

## O'ZBEK TILIDA EVFEMIZM VA DISFEMIZM

Hozirgi o'zbek adabiy tillida leksikologiya bo'limini o'tishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish masalasi tadqiq qilinib, unga evfemizm va disfemizm modullini kiritish taklif etiladi. Mazkur o'quv-uslubiy qo'llanma pedagogik jarayonga innovatsion texnologiyalar bilan joriy etilishi tahlil etiladi. Bunda evfemizm va disfemizm hodisalarining tildagi o'rni, yangiligi, maqsad va vazifalari, dolzarbliji o'z aksini topgan. Talabalar bilim, ko'nikma va malakalariga shuningdek, ijodiy faoliyat tajribasiga ta'sir etuvchi turli metodlardan foydalangan holda darsni tashkil etish masalalari tahlil qilingan.

Ushbu uslubiy qo'llanmaning elektron o'quv-uslubiy qo'llanmasi tadqiqot asosini tashkil etadi. Mazkur qollanma mavzuni yoritishda dastur sifatida xizmat qiladi.



Kadirova Xurshida Batirovna, 1982-yil 4-aprelda tug'ilgan, millati o'zbek. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti Amaliy filologiya kafedrasи dotsent v.b. X.Kadirova monografiya, o'quv qo'llanma, ilmiy-uslubiy qo'llanma va 50 dan ortiq ilmiy maqolalar muallifi.



Globe  
EDIT

9 7 8 6 1 3 9 4 1 4 9 4 9

FOR AUTHOR USE ONLY

Xurshida QODIROVA

Globe  
EDIT



Xurshida QODIROVA

## O'ZBEK TILIDA EVFEMIZM VA DISFEMIZM

to'ldirilgan qayta nashr

**Xurshida QODIROVA**

**O'ZBEK TILIDA EVFEMIZM VA DISFEMIZM**

FOR AUTHOR USE ONLY



**Xurshida QODIROVA**

# **O'ZBEK TILIDA EVFEMIZM VA DISFEMIZM**

**to 'Idirilgan qayta nashr**

FOR AUTHOR USE ONLY

**GlobeEdit**

### **Imprint**

Any brand names and product names mentioned in this book are subject to trademark, brand or patent protection and are trademarks or registered trademarks of their respective holders. The use of brand names, product names, common names, trade names, product descriptions etc. even without a particular marking in this work is in no way to be construed to mean that such names may be regarded as unrestricted in respect of trademark and brand protection legislation and could thus be used by anyone.

Cover image: [www.ingimage.com](http://www.ingimage.com)

Publisher:

GlobeEdit

is a trademark of

Dodo Books Indian Ocean Ltd., member of the OmniScriptum S.R.L Publishing group

str. A.Russo 15, of. 61, Chisinau-2068, Republic of Moldova Europe

Printed at: see last page

**ISBN: 978-613-9-41494-9**

Copyright © Xurshida QODIROVA

Copyright © 2022 Dodo Books Indian Ocean Ltd., member of the OmniScriptum S.R.L Publishing group

FOR AUTHOR USE ONLY

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**Xurshida QODIROVA**

**O'ZBEK TILIDA EVFEMIZM  
VA DISFEMIZM**

**to'ldirilgan qayta nashr**

**2022**

**UO‘K: 811.512.133(072)**

**KBK: 81.2(50‘)**

**Q 53**

**ISBN 978-613-9-41494-9**

Qodirova, X.

O‘zbek tilida evfemizm va disfemizm : to‘ldirilgan qayta nashr /  
Xurshida QODIROVA. – GlobeEdit, 2022. – 118 b.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili fanida leksikologiya bo‘limini o‘tishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish masalasi tadqiq qilinib, unga evfemizm va disfemizm modulini kiritish taklif etiladi. Mazkur o‘quv-uslubiy qo‘llanma pedagogik jarayonga innovatsion texnologiyalar bilan joriy etilishi tahlil etiladi. Bunda evfemizm va disfemizm hodisalarining tildagi o‘rni, yangiligi, maqsad va vazifalari, dolzarbligi o‘z aksini topgan. Talabalar bilim, ko‘nikma va malakalariga shuningdek, ijodiy faoliyat tajribasiga ta’sir etuvchi turli metodlardan foydalangan holda darsni tashkil etish masalalari tahlil qilingan.

Ushbu uslubiy qo‘llanmaning elektron o‘quv-uslubiy qo‘llanmasi tadqiqot asosini tashkil etadi. Mazkur qollanma mavzuni yoritishda dastur sifatida xizmat qiladi.

**Mas’ul muharrir:**

**Saodat Muhamedova** – filologiya fanlari doktori, professor

**Taqrizchilar:**

**Muyasar Saparniyozova** – filologiya fanlari nomzodi

**Nazokat Jo‘rayeva** – filologiya fanlari nomzodi

Uslubiy qo‘llanma Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘quv-uslubiy kengashi kengashi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan. (2022-yil 26-martdagi 7-sonli bayonnomaga)

© Qodirova X.  
© “GlobeEdit, 2022.”

## KIRISH

O‘zbek tili lisoniy imkoniyatlari nutqiy voqelanishining o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘lgan evfemizm va disfemizmlarda til va ma’naviyat, til va ruh mushtarakligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Shuning uchun milliy ma’naviyat muammosi globallashgan bugungi kunda milliy mentalitetni ifodalaydigan evfemik va disfemik vositalarni o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

Evfemizmning paydo bo‘lishi insoniyat tafakkuri va axloqiy qadriyatlar rivoji bilan bog‘liq. U nafaqat til hodisasi (ifoda etayotgan shaxs nuqtai nazaridan noqulay bo‘lgan birliklar o‘rnida qo‘llangan so‘z, so‘z birikmasi yoki gap), balki insonning nutqiy vaziyatni qaysidir ma’noda o‘zgartirishga moyilligi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Maqbul so‘z qo‘llana turib, so‘zlovchi tomonidan man etilgan (tabu) birliklar qo‘llanishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nosoz muhit yumshatiladi. Man etilgan so‘zlar esa insoniyat bilan tengqur deyilsa, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Disfemizmlarning muloqot xulqini ifodalovchi vosita sifatidagi roli o‘ziga xos. Keyingi paytlarda demokratiyaning jadallahuvi natijasida, qolaversa, 1948-yil 10-dekabrda BMT bosh Assambleyasi tomonidan inson huquqlari Deklaratsiyasida “so‘z erkinligi” to‘g‘risidagi Qonunning qabul qilinishi natijasida G‘arb OAV va boshqa axborot manbalarida disfemizmlardan foydalanish ommalashib, uni o‘rganish, tasnif qilish, talqin va tahsil etish davr taqozosi sifatida qaraldi.

Har ikki hodisa – ko‘chim, nutqiy jarayon mahsuli. Ulardan ba’zilari lisoniy birlik bo‘lib, adabiy me’yor qatoridan o‘rin olgan. Bunday evfemik ma’no yuklangan til birliklari evfemik yoki disfemik ma’noni qayta nomlashni ham taqozo etadi. Evfemiklik yoki disfemiklik xususiyati eskirganda ma’nodagi subyektiv munosabat bo‘yog‘i kuchsizlashadi. Demak, vaqt o‘tgan sayin yangi birliklar paydo bo‘lib, eskilari lisoniy sathda sinonimik, omonimik, polisemik qatorni to‘ldiraveradi. Shuningdek, implitsit ifodalangan evfemizm, so‘z yoki iborani qisqartirish hamda o‘zgartirish orqali vujudga kelgan evfemizmlar, boshqa tildan olingan so‘z bilan almashtirish orqali ifodalangan, imo-ishora, qolaversa, noverbal evfemizm yoki disfemizm qatori kengayaveradi. Ularning stilistik, grammatik tasniflari paydo bo‘lib, lug‘atlar yaratiladi. Demak, bu hodisa makon va zamon bilan bog‘liq ravishda rivojlanib boraveradi.

Ushbu o‘quv-uslubiy qo‘llanma oliy ta’limning turli bakalavriat yo‘nalishlarida talabalarining nutq madaniyati, kasbiy muloqot salohiyati va axloqiy tarbiyasini, ma’naviy-ma’rifiy saviyasini yuksaltirishga ko‘maklashish maqsadida tuzildi.

FOR AUTHOR USE ONLY

## 1-ma’ruza

### EVFEMIZMLAR

#### Reja:

- 1.Evfemizmlarning o‘rganilish tarixi
- 2.Evfemizmlar tasnifi
- 3.Evfemik ma’noli birlıklarning qo‘llanish xususiyatlari

**Tayanch tushunchalar:** *evfemizm, mavzuviy tasnif, struktural tasnif, so‘z-evfema, birikma-evfema, gap-evfema, ma’nodosh-evfema, shakldosh-evfema, zid ma’noli-evfema, monosemantik evfema, polisemantik evfema, evfema qo‘llash mahorati, portret evfemasi, badiiy evfema, publitsistik evfema*

**Evfemizmlarning o‘rganilish tarixi.** *Evfemizm* atamasi grek tilidan olingan bo‘lib, ko‘pchilik mualliflar fikriga ko‘ra, noo‘rin birlikning o‘rinli birlikka almashinuvi sifatida qaraladi. A.A.Reformatskiy “Evfemizmlar taqiqlangan (tabulangan) so‘zlar o‘rniga qo‘llanishga ruxsat berilgan so‘zlar” deya ta’rif beradi. “Лингвистический энциклопедический словарь”да esa “Evfemizm – bu so‘zlovchi nazarida qo‘pol, noqulay bo‘lgan so‘z va ifodalar o‘rnida qo‘llangan, ularga ma’nodosh bo‘lgan emotsional betaraf so‘z va ifodalar” deyiladi.

A.Hojiyevning 2002 yilda qayta nashr qilingan “Lingvistik terminlar izohli lug‘ati”da evfemizmga quyidagicha izoh beriladi: “Evfemizm (grek. euphemismos; eu — yaxshi, phemi — gapiraman) narsa-hodisaning ancha yumshoq formasidagi ifodasi; qo‘pol, beadab so‘z, ibora va tabu o‘rnida qo‘pol bo‘lmagan, botmaydigan so‘z, iborani qo‘llash. Mas., *ikkiqat* so‘zi o‘rnida *homilador*, *og‘ir oyoqli* so‘zlarini qo‘llash.” Biroq lug‘atda disfemizmga doir fikr bildirilmagan.

Evfemik ma’no yuklangan ifodalar antik davrdan boshlab olimlarda qiziqish uyg‘otgan. O.M.Freydenborg tahriri ostida chop etilgan “Античные теории языкоznания и стиля” nomli asarda “evfemizm” tushunchasi Demokrit, Platon, Aristotel tomonidan ham tilga olinganligi haqida ma’lumot beriladi. Demak, bu til birligi haqida qadimgi davrlarda ham bilishgan, ulardan foydalanishgan va hozirga qadar istifoda etishadi. “Dastlab, evfemizmlar XII—XV asrlarda ingliz tilida paydo bo‘lgan. XIV asrlarda frantsuz madaniyati urf bo‘la boshlaydi, bu esa tilda ham o‘z aksini topadi” degan qarash ham bor.

Ingliz tili tarixini o‘rgangan olim R.Byorchfeld Chosher nazmining evfemik birliklari misolida tadqiqot olib borar ekan, evfemizm she’riyatning juda qulay uslubiy vositasi ekanligini e’tirof etadi. R.Byorchfeld Choserni birinchi bor o‘z ijodida intim munosabatning evfemik shaklini bergenligini ta’kidlaydi. Shekspir esa bu yo‘nalishni buzgan holda, o‘zining obrazlarini his-hayajonli birliklar bilan ifodalab, evfemizmdan faqatgina stilistik bo‘yoqni kuchaytirish vositasi sifatida foydalanadi.

XVI asrning yarmiga kelib nutqiy madaniyatni yuksaltirishga bo‘lgan urinish kuchayib, Xudo, insonning avratlari va u bilan bog‘liq narsa-hodisalar nomini ishlatmaslikka qarshi kurash olib boriladi va bu Shekspir ijodida ham o‘z aksini topa boshlaydi. Kurash XVIII asrga qadar davom etib, S.Richerdsonning “Pamella” asarida ba’zi nozik vaziyatlarning evfemik shaklini juda madaniy tarzda qo‘llaganini ko‘rish mumkin. Masalan, muallif *Он хочет погубить меня* ifodasi o‘rnida *He позовольте мне, о небеса, принадлежать ему* jumlasini qo‘llaydi.

XIX asrga kelib o‘zgacha madaniy hayot tarzi shakllanadi, erkaklar ishlab chiqarish bilan band bo‘lishlari, ayollar esa o‘zlarini turmush o‘rtoqlari va oilasiga baxsh etishlari lozim bo‘ladi. Axloqiy va rasmiy tsenzura kuchayib, noziklik, nutqiy madaniyat yanada rivoj topa boshlaydi. SHEkspir asarlarida uchraydigan “odobli oilalarda qo‘llanmaydigan va ovoz chiqarib o‘qish mumkin bo‘limgan” ifodalarni qayta tahrir qilgan Tomas Bodler ayni davrlarda katta shuhrat qozonadi. U adibning 10 tomlik asarlar to‘plamiga muharrirlik qiladi va *Tom кто убил моего отца и сблазнил мою мать* kabi jumlalarni *Tom кто убил моего отца и развратил мою мать* tarzida o‘zgartiradi.

XX asrga kelib nafaqat inson a’zolari, balki hayvon va hasharot, kasallik va narsa-hodisalar nomini evfemalashtirish ham avj oladi. Chunki jahon urushi davrida odam savdosi, yetimlik, fohishabozlik rivoj topa borgan sari evfemik birliklar va argotizmlar ham ko‘payib boradi. Ularning ma’noviy xususiyatlari zamon va makonda, insoniyat xattiharakati va holati bilan bog‘liq holda tomir yoza boshlaydi.

Evfemizm hodisasi XX asr boshlarida umumtilshunoslikda J.Vandriyes, L.A.Bulakovskiy kabi tilshunoslar tomonidan soha bilan bog‘liq adabiyotlarda qayd etilgan bo‘lib, ularning fikr-mulohazalari evfemizm mohiyati tavsifining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu hodisani alohida millat, alohida jins vakillari (masalan, oltoy ayollari nutqi) misolida tadqiq etgan olimlar sirasiga A.N.Samoylovich, N.A.Baskakovlarni kiritish mumkin. Ular evfemizmni

ko‘pqirrali etnik hodisa sifatida yoritishga harakat qiladilar.

E.A.Agayan, O.N.Turbachevlar ham ma’lum guruh, mentalitet doirasida ushbu jarayonni tadqiq etadi. Masalan, O.N.Turbachev Evropa ovchilari va ov mavsumi bilan bog‘liq evfemizmlarning Shvetsiya, Finlyandiya, Estoniya kabi mamlakatlar xalqi nutqida ishlatalishini kuzatsa, E.A.Agayan arman qishloqlari aholisi nutqidagi evfemizatsiya jarayonini o‘rgandi. S.Otayev turkman tili evfemizmlari, G.G.Musaboyev qozoq tili evfemizmlari, V.P.Darbakova mongol xalqi evfemizmlari, N.G.Mixaylovskaya Uzoq Sharq — Chukot, Xanti-Mansiy, Nanay xalqlari tilida uchraydigan evfemizmlarni ilmiy tahlil qilishgan.

Shuningdek, Tuva tilida uchraydigan evfemizmlar borasida S.P.Vanshteyn, Sh.Ch.Sat, ingliz tilida uchraydigan evfemizmlar xususida I.V.Arnold kabi tadqiqotchilar ham o‘z ishlarida ma’lum darajada fikr bildirganlar.

A.A.Reformatskiy tabu o‘rnida qo‘llanilayotgan evfemik birliklarni etnik taraqqiyot bilan bog‘liq deb hisoblaydi. Tabuning paydo bo‘lishiga turli bid’at va xurofotlar sabab bo‘lganligini aytib, evfemizmlar uning nomini yopish uchun xizmat qilishini ta’kidlaydi.

R.A.Budagov tabuning paydo bo‘lishiga insoniyatning e’tiqodi turtki bo‘lganligini va bu ma’lum ma’noda tafakkur rivojining asosi ekanligini e’tirof etgani holda, evfemizm yuzaga kelishida muhim omil emas deb hisoblaydi. CHunki tabu boshqa sabablarga ko‘ra vujudga kelgan. Evfemizm esa nutqiy madaniyat yuzasidan aytish noqulay bo‘lgan vaziyatni yumshatish uchun qo‘llanadi. Masalan, aqli bo‘lmagan insonning ko‘ngliga ozor bermaslik uchun u haqda *ne izobretyot poroxa deyilishni ta’kidlaydi*.

Evfemiya hodisasi B.A.Larin, A.M.Katsev, N.TS.Boschayeva, L.V.Artyushkina, G.G.Kujim va boshqa tilshunos olimlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, uning turli nuqtai nazardan turli jihatlari yoritilgan. Masalan, L.V.Artyushkina evfemizmning almashinishini va semantik tipini tadqiq etgan bo‘lsa, N.TS.Boschayeva tomonidan uning pragmatik aspekti batafsil o‘rganiladi. G.G.Kujim evfemizmni tilning “meliorativ” vositasi sifatida yoritsa, A.M.Katsev uni ijtimoiy psixologik-jihatdan talqin etadi. Qayta nomlash bilan bog‘liq tomoni esa N.M.Berdova tomonidan tadqiq etiladi va izlanishlar natijasida evfemizmning 4 jihat aniqlanadi:

—lisoniy;

—psixologik;

- ijtimoiy;
- pragmatik.

N.M.Potapova tilshunoslar tadqiqotlari natijasiga ko‘ra, ayni jarayonning quyidagi belgi(mezon)larini ko‘rsatadi:

- denotatning stigmatikligi (salbiy bo‘yoq dorligi) («stigma» tushunchasi N.M.Berdova tadqiqotida sharhlanadi: «Stigma ostida nafaqat predmetning antetsedentda aks etgan salbiy xususiyati, balki salbiy taassurot uyg‘otish xossalari ham tushuniladi»);
- ijobjiy bo‘yoq hosil qilish;
- ifodaning asliyatini saqlash.

E.P.Senechkina qo‘srimcha belgilarini ham ko‘rsatadi:

- evfemizmning denotat salbiy bo‘yog‘ini yumshatuvchi semantik noaniqligi;

– denotatni ijobjiy lashtirishda gap qaysi predmet yoki hodisa haqida ketayotganligining anglashilishini ta’minlovchi formal tabiatini. U ushbu o‘lchovlarga javob bermagan ifoda evfemizm emasligiga va bu fikrga shu hodisani o‘rganishga harakat qilgan barcha olimlar qo‘silishini ta’kidlaydi.

V.P.Moskvin “Эвфемизмы в лексической системе современного русского языка” asarida evfemizmlarning kategorial maqomi, evfemizatsiya usulining qo‘llanish sferasi, shuningdek, evfemizmlarning qator yondosh hodisa (psevdoevfemiya, kriptologiya, ezop tili, dezinformatsiya, obrazli ifoda)lar bilan o‘zaro munosabatini tadqiq qildi. Evfemizmlarning mavzuviy va situativ xususiyatlari, qo‘llanishi, yasalishi, sinonimik ham leksik tizimdagagi o‘rni, lison va nutqqa munosabati, leksikografik tavsifiga doir fikrlarini bayon etdi.

XXI asrdan boshlab birgina rus tadqiqotchilari tomonidan evfemizm mavzusi doirasida 30 ga yaqin nomzodlik dissertatsiyalari yoqlangani bu hodisani o‘rganish yangi kuch olayotganidan dalolat beradi.

O‘zbek tilshunosligida bu atama 1963-64-yillarda N.Ismatullayevning “Hozirgi o‘zbek tilida evfemizmlar” nomli dissertatsiyasi orqali o‘rnashgan bo‘lib, olim o‘sha yillarda chop etilgan maqolalarida mavjud hodisa haqidagi mulohazalarini bayon qiladi. U ham evfemizmning paydo bo‘lish tarixiga to‘xtalib, tabu bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi. Shuningdek, evfemizm tasnifi xususida turli tilshunos olimlar qarashlariga fikr bildirib, o‘z ishlarida uning yaratilish sabablariga ko‘ra tasnifini taklif etadi.

1997-yilda A.Omonturdiyev evfemizmni uslubshunoslikning tadqiqot ob’ekti sifatida allaqachon o‘z echimini topishi kerak bo‘lgan

mavvusi sifatida keng doirada o‘rganib, o‘zbek nutqining evfemik asoslarini tadqiq qiladi. U ham yuqoridagi fikrga qo‘shilgan holda, evfemizmlarni etimologik, ijtimoiy-madaniy aspektda o‘rganish kerak deb hisoblaydi. Evfemik ma’noning evolyutsiyasiga, yondosh hodisalarga va til sathiga munosabatiga e’tiborini qaratadi. SHu bilan birga, uni qo‘llanish darajasiga ko‘ra umumnutqiylar va xususiy nutqiylar evfemaga ajratib, ifoda usullarini o‘rganadi. Tasnifiy xarakterdagi bu izlanish o‘zbek tili nutqining evfemik birlikkali haqida ko‘proq amaliy ma’lumot beradi. Bungacha esa mualliflar jamoasi tomonidan 1983-yilda nashr etilgan “O‘zbek tili stilistikasi” o‘quv qo‘llanmasida evfemizm hamda kakofemizm (disfemizm) xususida ma’lum darajada fikr yuritilgan edi.

Vaqt o‘tib, til taraqqiyoti, global muammolarning echimi uslubshunoslikni notiqlik san’ati maqomiga ko‘tarishni, jumladan, professional nutqning barcha tarmoqlarini — chorvador, ovchi, dehqon, yurist, jurnalist, diplomat, baxshi, shifokor, kurashchi, sovchi, to‘quvchi, tikuvchi, temirchi, san’atkor, rassom kabilalar nutqini fundamental tadqiq qilish, xususan, ularning evfemik vositalarini yozib olish, evfemiologiyani ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan mustaqil soha – tilshunoslikdan o‘sib chiqqan fan sifatida asoslash, dastur va darslik, lug‘at tuzish kabi muammolarni davr taqozo qiladi va A.Omonturdiyev muayyan soha evfemiyasi, ya’ni chorvador nutqiga xos evfemik vositalarni etnolingvistik nuqtai nazardan tavsiflashga bag‘ishlangan “Professional nutq evfemikasi” nomli doktorlik dissertatsiyasida yuqoridagi masalalarni hal etish maqsadida chorvadorlar nutqidagi, xususan, chorvadorlarning hayoti, yashash tarzi, dunyoqarashi, urf-odatlari, an’analari, marosimlari bilan bog‘liq holda vujudga kelgan evfemizmlarni tadqiq qildi.

Ko‘rinadiki, evfemizm o‘zbek tilshunosligida disfemizmga nisbatan kengroq o‘rganilgan bo‘lib, bugungi kunga qadar yuqorida sanab o‘tilgan olimlar tomonidan evfemizmning ko‘proq nutqiy qatlama sifatidagi xususiyatlari sistemali tadqiq etilgan. Uning yondosh hodisalarga munosabati, turdosh bo‘lgan troplari, til sathidagi o‘rnini belgilanganligi, lisoniy va nutqiy evfemalar farqlanib, evfemik ma’no kategoriyalari funksional-uslubiy jihatdan tasnif qilinganligi ahamiyatli. Qolaversa, o‘zbek tilshunoslari orasida ayni masala yuzasidan hanuz bahsmunozaralar olib borilayotganligi uning turli sohalar bo‘yicha chuqurroq o‘rganilishi lozimligidan dalolat beradi.

**Evfemizmlar tasnifi.** Evfemiya hodisasi bilan shug‘ullangan tilshunos olimlarning har biri uning turli belgilariga asoslangan tasniflarini ham u yoki bu darajada amalga oshirishga harakat qilishgan. Hodisa boshqa lisoniy birliklardek serqirra bo‘lgani kabi, bu tasniflarda evfemizmlarning turli qirralariga e’tibor qaratilgan bo‘lib, qo‘lga kiritilgan natijalar ham turlicha. Bu turli-tumanliklar qarama-qarshidek tuyulsa-da, aslida bir-birini to‘ldirishga xizmat qilishini ta’kidlash lozim.

Rus tilshunosi R.A.Budagov evfemizmlarni ikki yirik turga bo‘lishni taklif etadi: a) badiiy til evfemizmlari; b) turli jargon evfemizmlari. Birinchi turga qo‘pol so‘zni ifodalamaslikka intilish asosida yuzaga kelgan evfemizmlar kiritilgan (masalan, *старость* so‘zi o‘rnida qo‘llangan *почетный возраст* evfemizmi).

R.A. Budagov kontekstual evfemizmlarni alohida guruhlaydi. Ular nisbatan mukammalroq va fikrni ifoda etayotgan shaxsning fe'l-atvori hamda matn shartiga asoslanadi. Kontekstual evfemizmlarni E.P.Senichkina *okkazional evfemizm* deb nomlaydi. Ular doimo nutqda yuz beradi va evfemiya hodisasining barcha talablariga javob beradi, ammo tayyor qolipga ega bo‘lmaydi. Odatda, bunday evfemizmlar obrazli va metaforik tabiatli bo‘ladi.

Bu xildagi evfemizmlar A.M. Katsevning ham e’tiboridan chetda qolmagan. Uning fikricha, okkazional evfemizmlar kuchli evfemik ta’sir (bo‘yoq)ga ega. Ular yangi — shaklga kiritilmagan.

E.P.Senichkina okkazional evfemizmlar bilan bir qatorda quyidagi turkumlarni ajratadi: tilda o‘z qolipiga ega va ifodalovchi uchun ma’lum bo‘lgan evfemizmlar, kelib chiqishi ifodalovchi uchun noma’lum (biror shaxs yoki narsa-hodisa bilan bog‘liq) bo‘lgan evfemizmlar, shuningdek, tarixiy evfemizmlar va disfemizmlar.

Tasniflarning salmoqlisi mavzuiy tasnidir. Bu borada R.Xolder tomonidan qilingan tasnif e’tiborga molik. U leksik-semantik jihatdan evfemizmlarni 60 ta kichik sinfga ajratadi. Bu tasnif evfemizmlarning denotativ mazmuni xilma-xilligidan dalolat beradi.

A.M.Katsev evfemizmlarni 10 ta mavzu doirasiga ajratadi:

- 1) ilohiy kuchlar nomi;
- 2) o‘lim va kasallikni anglatuvchi birliklar;
- 3) nuqson bilan bog‘liq nomlar;
- 4) jins bilan bog‘liq nomlar;
- 5) kambag‘allikni anglatuvchi nomlar;
- 6) ayrim kasblarni anglatuvchi nomlar;
- 7) aqliy va jismoniy nuqson nomlari;

8) kiyim qismlari nomlari.

M.A.Katsevning yana evfemik vositaning ontologik xarakteriga ko‘ra tasnifi ham mavjud:

- 1) shaklga kirgan evfemizmlar;
- 2) tabiiy ravishda vujudga kelgan evfemizmlar;
- 3) uslubiy bo‘yoq (ironiya yoki humor) asosida tabiiy vujudga kelgan evfemizmlar.


Ijtimoiy tasnif evfemizmlar mohiyatini ochishda o‘ziga xos o‘rin tutadi. U so‘zning ma’lum ijtimoiy guruhgaga tegishliligi asosida ajratiladi. Misol tariqasida B.A.Larin tasnifini keltirish mumkin:

- 1) umummilliy, adabiy evfemizmlar;
- 2) sinfiy va kasbiy evfemizmlar;
- 3) oilaviy-ro‘zg‘or evfemizmlari.

Ayrim tadqiqotchilar tomonidan evfemizmlarning lingvistik tasnifi ham amalga oshirilgan:

- 1) tuzilishiga ko‘ra (so‘z, so‘z birikmasi, gap);
- 2) uslubiy xususiyatiga ko‘ra (ko‘tarinki, neytral, quyi darajadagi);
- 3) so‘z qurilishiga ko‘ra: a) ko‘chim (metafora, metonimiya, mohiyatining torayishi va h.) asosidagi; b) shakl o‘zgartirish yo‘li bilan hosil qilingan (fonetik buzilish, konversiya, affiksatsiya, abbreviatsiya va h.); v) o‘zlashma birliklar asosida.

L.V.Artyushkina evfemik nutqning semantik aspektlarini o‘rganib, evfemizmlarni quyidagicha tasniflaydi:



V.P.Moskvin evfemizmlarning quyidagi turlarini farqlagan:

- a) qo‘rquuvchi hodisalar evfemizmlari;
- b) maishiy evfemizmlar;
- c) etiket evfemizmlari;
- d) niqoblovchi evfemizmlar (siyosiy, sotsial);
- e) evfemizmlarning modal tiplari (hazil evfemizmlari, kinoya evfemizmlari).

O‘rganilayotgan hodisaning tasnifi o‘zbek tilshunoslarining e’tiboridan ham chetda qolmadi. N.Ismatullayev evfemizmlarni 5 yirik guruhga ajratadi:

- 1) tabu bilan bog‘liq evfemizmlar (zaharli hasharotlar nomi; yirtqich hayvonlar nomi; kasallik nomi; er va xotinning bir-birlari nomlarini aytmasliklari; xotin-qizlar tilida uchraydigan evfemizmlar);
- 2) bid’at, irim qilish bilan bog‘liq evfemizmlar;
- 3) ma’nosi qo‘pol, aytish noqulay bo‘lgan so‘z va iboralar o‘rnida qo‘llanadigan evfemizmlar;
- 4) nutqiy bezamalik, ko‘tarinkilik va diniy maqsadlar uchun qo‘llanadigan jargon evfemizmlar;
- 5) stilistik evfemizmlar.

Mavzuiy guruhlarga ajratilgan ifodalar tasnifi esa A.Omonturdiyev tomonidan tadqiq qilingan ilmiy ishda o‘z aksini topadi:

- 1) oila qurish bilan bog‘liq evfemik vositalar;
- 2) axloqsizlik bilan bog‘liq evfemik vositalar;
- 3) intim munosabat bilan bog‘liq evfemik vositalar;
- 4) murojaat bilan bog‘liq evfemik vositalar;
- 5) inson a’zolari va ular bilan bog‘liq kiyim nomlari evfemasi;
- 6) jismoniy nuqsonlar bilan bog‘liq evfemik vositalar;
- 7) ovqatlanish va uning hazmi bilan bog‘liq evfemik vositalar;
- 8) insonning salbiy faoliyatini bilan bog‘liq evfemik vositalar;
- 9) ayrim odat-an’ana bilan bog‘liq evfemik vositalar;
- 10) qarilik tushunchasi bilan bog‘liq evfemik vositalar;
- 11) o‘lim bilan bog‘liq evfemik vositalar.

SHuningdek, olim doktorlik dissertatsiyasida evfemani 7 guruhga ajratadi.

I. Voqelikning tabulanish darajasiga ko‘ra: 1) nomini aytib bo‘lmaydigan, aytish man etilgan EV; 2) qo‘rqinch, noxush xabar yoki o‘lim bilan bog‘liq EV; 3) nomini aytish mumkin, biroq nutq etikasiga mos kelmaydigan EV.

II. Semantik-grammatik shakllanishiga ko‘ra: 1) lisoniy; 2) nutqiy.

III. Ta’sirchanlik, bo‘yoq dorlik, originallik darajasiga ko‘ra: 1) individual; 2) okkazional.

IV. Ma’noning ifodalananish usuliga ko‘ra: tagma’noli.

V. Til evfemik qatlamini shakllantirishdagi roliga ko‘ra: 1) ritorik; 2) olmoshlisi.

VI. Ifoda vositasiga ko‘ra: 1) verbal; 2) noverbal: a) implikativ; b) kinetik.

VII. Noadabiy til vositalarining qo'llanishiga ko'ra: argo-simvolik evfema: a) umumnutqiy; b) xususiy nutqiy.

Evfemizmlarni tasniflash uning mohiyatini churroq o'rghanishga, turli nuqtai nazardan kuzatishga, tadqiq etishga, ushbu hodisaning tuzilishini aniqroq yoritishga xizmat qiladi, xilma-xil tasnif esa evfemizmlarning ko'p qirraliligidan va murakkab jarayon mahsuli ekanligidan dalolat beradi.

Evfemik birliklar serqirra hodisa, bu ularni har bir belgisi asosida turlicha tasnif qilish imkonini beradi. Zero, individual nutqga xos evfemizmlar lisoniy va nolisoniy omillar qorishuvidan iborat yaxlitlik bo'lib, bu omillar asosida qo'lga kiritilgan natijalarni umumlashtirishgina har bir evfemizmnning o'ziga xos, shuningdek, shaxs idolektiga xos evfemizmlarning individual mohiyatini aniqlash imkonini beradi. Quyida nutqga xos evfemizmlarning tasnifiy belgilarni ikki katta guruhga ajratamiz:

- 1) lisoniy belgilari;
- 2) nolisoniy belgilari.

Lisoniy belgilari asosidagi tasnifda evfemik birliklarning mavzuviy, semantik, shakliy (struktur), uslubiy xususiyatlari tayaniadi. Nolisoniy belgilari asosidagi tasnifda esa evfemik birliklarning nutqiy voqelanishida dialektik birlikda yuzaga chiquvchi tashqi omillar e'tiborga olinadi. Bular siravida so'zlovchi va tinglovchi shaxsnинг dunyoqarashi, saviyasi, ijobiy yoki salbiy obrazligi, jinsi, yoshi kabi sof lisoniy omillar bilan birgalikda nutq sharoiti va vaziyati bilan bog'liq pragmatik omillarni sanash mumkin. Evfemizmlarning implitsit ko'rinishlari ham nolisoniy xarakterga egadek tasavvur uyg'otadi. Biroq implitsit evfema qiymati denotatning asl atamasi asosida idrok etilishi sababli uni ham lisoniy vosita sifatida qarash ma'qul.

**Evfemik ma'noli birliklarning mavzuiy guruhlari.** Evfemizmlar miqdor jihatidan rang-barang bo'lish bilan birga, mavzuviy jihatdan ham xilma-xil. Badiiy adabiyotlarda evfemizmlarning aksariyati insonni, uning xususiyatlari va xatti-harakatlarini ifodalashga xizmat qiladi. Bu badiiy adabiyotning bosh ob'ekti inson bo'lganligi bilan belgilanadi. Mavzuni quyida badiiy asarlardan olingan misollar asosida yoritildi.

**Shaxsni anglatuvchi evfemik vositalar.** Ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar yangi-yangi nutqiy birliklarning vujudga kelishiga sabab bo'lganidek, siyosiy shaxslarni ham umumaxloqiy va madaniy jihatdan to'g'ridan-to'g'ri ifodalamaslikka urinish holatlari yangi birliklarning vujudga kelishiga yoki mavjud atov birliklarining yangi ma'no va vazifa

kasb etishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bu vositalar siyosiy-publitsistik yoki badiiy uslubda esa ma’lum tarixiy davr taqozosiga ko‘ra o‘z aksini topadi. Bunga yana yozuvchining katta ijtimoiy va siyosiy o‘zgarishlar muhitida yaratilgan asarlari asosida amin bo‘lish mumkin.

*Valine’mat* so‘zini ikki xil ma’noda uchratish mumkin: kinoyaviy evfemik ma’no va tabulashgan evfemik ma’no. Har ikki ma’no matnda, qurshov asosida yuzaga chiqadi: *Bas, siz bilan biz ishchi-dehqon xodimi bo‘la turib, nega valine’matimizga oyog‘ xizmatini o’taymiz* (A.Qod. “Shallaqi”). Bu erda *Stalin* nomini almashtiruvchi mazkur ifoda uslubiy evfema sifatida hurmat munosabatini yuzaga keltirgan desak, to‘g‘ri bo‘lmaydi. Bu so‘z kinoya asosidagi evfema sifatida qaralishga loyiq.

Quyidagi jumlada birlik o‘z ma’nosida yuzaga chiqqan va evfemik “ohangdan” xolidek tasavvur uyg‘otadi: *Qullaridan biri valine’matimga ikki kalima arzim bor, deydir.* (A.Qod. “Mehrobdan chayon”) “Valine’mat”ning ismini tutishga istihola mayjudligi uning evfemikligini ko‘rsatadi.

*Jannatmakon* so‘ziga ham Amir Umarxon shaxsini ifodalash uchun evfemik ma’no yuklangan: – *Siz “jannatmakon”ni ko‘rganmisiz?*” (A.Qod. “1819 yil yodgori”).

Bulardan tashqari, “*katta*” (hokimiyat kishisi) birligi ham siyosiy shaxslar qatorini kengaytiruvchi evfemik vosita sifatida o‘z aksini topadi: *Bu erda Rahimberdi Xudoyberdiev ismlik bedanaboz, Nuriddin Zokirov kabi muttaham, Berkin Azimov, Karim Abdurahmonov singari bezori va Vali Usmonov kabilar mavze’ning «katta»lari bo‘lib olib, xohlaganlaricha bo‘limg‘urliklarni qilib keldilar.* (A.Qod. «Qo‘rqan oldin musht ko‘tarar»)

Shaxsni anglatuvchi evfemik ma’noli birliklarning adabiy nutq uchun me’yor hisoblangan *fohisha* mazmunini anglatuvchi evfemalardan zinokor, halol emas, suyuq oyoq, “aynigan” shakllari tilimizda keng tarqalgan bo‘lib, nutqda buning o‘zgacha ifodalarini uchratamiz: *Majnun, Layli, baba, barishnaxon, marja, o‘ynash, tutash, “noz egasi”* kabi vositalar shular jumlasidan. Bunda rus tilining ta’siri ham kuzatiladi.

Bu kabi shaxsni anglatuvchi evfemik vositalarning mavzuiy guruhini yana ancha kengaytirish mumkin. Masalan, ayol kishi tushunchasi bilan bog‘liq *mazluma, zaifa*; ona tushunchasini anglatuvchi *sababi vujud*; qiz farzand tushunchasini anglatuvchi evfemik vositalar sifatidagi *ojiza, karima* ifodasi; soxta dindor, riyokorlarni anglatuvchi “*ahli sogol*”

ko'chimli evfemik ma'noli birliklari; mustamlakachilarga nisbatan ishlatalig "madaniy millatlar" kinoyali evfemik vositalari kabi.

**Inson a'zolarini ifodalovchi evfemik ifodalar.** Kishining evfemik tarzda ifodalanishi lozim a'zolari har qancha yumshatilgan, noziklashtirilgan bo'lmasin, o'sha mazmun inson ongida uyat, aytish noqlay bo'lgan tushuncha sifatida qolaveradi. (Lug'atlarga qarang.)

**Biomoddalarni anglatuvchi evfemik ifodalar.** Ko'proq hajviy hikoyalari qahramonlari tilidagi yumorga boy nutqida o'z navbatida biomoddalarni anglatuvchi evfemik ifodalarini ham uchratamiz. Masalan, *axlat, tezak* kabi evfemik birliklar qatoridan *xilt so'zi* ham o'z o'rnnini topadi: *Bu zamon to'yimiz azag'a aylanib, sho'rba-sho'rbada, et-etda qolub, kim kinnachiga, kim domlaga yugurub, ammo faqirning ham og'zimdan, ham ortimdan xilt va safrolar keta boshlab, bosh yostiqqa etub, o'zim bemorlik darajasiga boribdirman.* (A.Qod. «Tarjimai holim»)

**Insonning jismoniy nuqsonlarini anglatuvchi evfemik ifodalar.** "Kar" ma'nosini beruvchi *qulog'i og'ir*, "g'ilay" ma'nosini beruvchi *bir ko'zi mag'ribda, bir ko'zi mashriqda* evfemik ma'noli birikmasi shular jumlasidan.

*Diydori nomuborak* (turqi sovuq), *vaqtsizroq yaratilib qolgan* (chala tug'ilgan) kabi insonning tashqi ko'rinishidagi nuqsonlarni bildiruvchi evfemik ma'noli birliklar orasida yana «*husni Yusuf*» kinoyaviy birikmasi ham xarakterli ahamiyatga ega: *Uning yonida bo'z yaxtak bog'ichini osiltirib, handalakdek bo'qog'i bilan o'ng tomog'ini ziynatlagan o'rtta yashar yana bir «*husni Yusuf*» ko'rinar edi.* (A.Qod. "Mehrobdan chayon") "Xunuk", "badbashara" mazmunini yumshatayotgan ayni ifoda qo'shtirnoq ichida berilib, kinoyaviy ma'no ifodalagan.

**Insonning jismoniy holatini anglatuvchi evfemik ifodalar.** Homila bilan bog'liq ifodalarning *yuklik, homilalik, og'ir oyoq, ikkiyat, tumsa, qisr* (tug'mas yoki tug'may qolgan xotin) kabi shakllari uchraydi.

Ma'lumki, *hez, hezalak* so'zları o'rniiga *pushtsiz, bezurriyot, "qizil kuyov"* kabi evfemik vositalar nutqda o'z aksini topadi. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida Otabek tilidan aytilgan *mijozim zaif* birikmasi ham erkakning jismoniy holatini evfemik asosda ifodalagan.

**Insonning ma'naviy nuqsonlarini anglatuvchi evfemik ifodalar.** Insonning aql bilan bog'liq ma'naviy-ruhiy nuqsonlarni anglatuvchi *aqling oqsaydir, aqlingiz bir oz yanglishibdir, boshi bo'sh, jo'n odam,*

*po 'stak aqlini moy bosgan, jahli basit, soddalavh, esi yarim, yarim madaniy xalq, xom kishi* kabi evfemik ifodalar badiiy adabiyotlarda kuzatiladi. YAna asabiy og'riq (ruhiy kasal, jinni), *bolalik* (sodda, go'l, xom), *botirligi etmas* (qo'rqaqlig qilar), *vasiqasi yo 'q* (betayin) kabi evfemik ma'noli birliklar ham ushbu tizimda qaraladi.

**Insonning muomala va munosabatdagi nuqsonlarini anglatuvchi evfemik ifodalar.** Umuman, kishining muomala va munosabatdagi nuqsonlari noziklashtirilgan birliklarning ko'pchiligidagi ma'lum miqdorda haqorat, kinoya o'z aksini topadi. Madaniyatsizlik, tarbiyadagi nosozlik qanchalik yumshatilmasin, ob'ektga nisbatan norozilik kayfiyatiga yuzaga chiqaveradi: *Siz bizning odamiyatimiz yo 'qlig 'ini bir joyda ko 'rganmisiz yoki dimog 'ingizg 'a futur etib qolq'anmi?* (A.Qod. "Mehrobdan chayon") Yoki *Qozining bu holini o 'quq 'uchilar muhokamasiga berib, men o 'z tomonimdan bunday deyman: agar siz kitob so 'ziga ishonsangiz vijdoningizning sal obiyati qochibdir.* (A.Qod. «SHallaqi») Ikkala o'rinda ham "gerdaymoq" yoki "vijdonsizlashmoq" tushunchalarini ifodalovchi evfemik vositalar sintaktik qurilma shaklida qo'llanilmoqda.

Tamagirlik, pora mavzusi doirasida evfemik ma'noli birliklar xilmashil: *elkasi qichimasin* (tamagirlik qilmasin), *yovvoyi chiqim* (pora), *mullajiring* (pul; pora), «*qarz*» (pora), *cho 'ntakparast* (tamagir, pulga o'ch odam), *konvert orqali ylashilgan «badal»lar* (pul, pora) kabi evfemik ma'noli birliklar shular jumlasidan.

O'g'irlilik bilan bog'lik evfemik vositalar sirasiga «*daromad*» (o'g'irlangan pul), *choy chaqa* (yo'lini qilib undiriladigan pul), «*shilib ketgan*» (o'g'irlagan), «*halol kasb*» (o'g'rilik), «*hunar*» (o'g'rilik), *sovurdi* (talon-taroj qildi, o'g'irladi) kabi birliklar kiradi.

Ma'naviy nuqsonlarni anglatuvchi *bo 'yni yo 'g'on* (zo'ravon), *o 'tkirlik* (so'zini o'tkaza olmoq), *etaksiz* (betayin, tuturiqsiz), *chayqovchi* (olib-sotar, qallob), *xotin-qizlarga serishtaha* (xotinboz), *tuprog 'i engil* (engiltak), *tarelka tutish* (laganbardorlik, xushomadgo'ylik), *tamtam* (olifta, dabdababoz), *safil* (pastkash, tuban), *nafsi shayton* (o'ta ochko'z), *mir quruq* (ziqna, xasis) kabi evfemik ma'no yuklangan birliklar nutqdan keng o'rin olgan.

**Spirtli ichimliklarni anglatuvchi evfemik ifodalar.** Abdulla Qodiriy spiritli ichimliklarning evfemik ifodalarini qahramon tilidan qo'llaydi. Masalan, Xomidning sheriklaridan biri Mutal polvon tilidan *dori* (aroq), SHirvon xola tilidan *zahar* (aroq), Tosho'lat tilidan «*obi*

*surx*» (vino), *obirahmat* (aroq), *oqsoqol* (aroq, spirt) birliklarini evfemik vosita sifatida ishlatadi.

Hajviy qahramon Toshpo'lat tajangning ayni mavzuga doir “*qirq gazlik*” ifodasi ham juda go‘zal evfemik ma’noli birlik sifatida o‘z aksini topgan: *Axir Toshpo‘lad akaning ham orqasig‘a oftob tegar, ul ham sizni yangi chiqg‘an «qirq gazligi» bilan bir kun mehmon qilib qolar, shoshmoq shaytonning ishi!* (A.Qod. «Toshpo‘lat tajang nima deydi?»)

«Maskov xatlari» xabarnoma maqolasida “konyak” tushunchasini bergen «*qizilcha*» ifodasi evfemik ma’noli birlik sifatida namoyon bo‘ladi: *U yog‘-bu yog‘dan qilib, degandek palov oldidan «qizilcha» ham o‘tilib turildi shekillik...* (A.Qod. «Maskov xatlari»)


**Evfemik birliklarning leksik-semantik munosabat asosidagi tiplari. Ma’nodosh evfemalar.** Evfemizm tilning nutqiy qatlamida sodir bo‘ladigan jarayon — qayta nomlash bilan bog‘liq hodisa bo‘lib, to‘la ma’noda uslubiy ma’nodoshlik qatorini tashkil etish bilan xarakterlanadi. U millatning etik-estetik didi, milliy ruhi, odobi va nazokati bo‘lib, muomala madaniyatining o‘ziga xosligini aks ettiradi. Evfemizmlarning “dabdabali” (tantanavor), “hurmat-ehtiromli”, “ko‘tarinki” ma’no ottenkalari bilan badiiy, ilmiy, so‘zlashuv uslubida qo‘llanilishi tilning keng imkoniyatidan dalolat beradi. Ayniqsa, o‘zbek tilida o‘lim bilan bog‘liq evfemik vositalarining 300 ga yaqin varianti topilganligi ahamiyatli.<sup>1</sup> Bu esa ularning turli vaziyat, matn va zamonda qo‘llanilishga xoslangan turidan foydalana olish imkonini beradi, shuningdek, nutqning sayqallanishiga olib keladi.

Inson hayotida yuz beradigan barcha jarayon, hodisa, shaxslarning “birlamchi nom o‘rnida qo‘llanadigan evfemistik ifodalari mayjud, ular tilda mavjud nomlarning funktsional-semantik sinonimlari” sifatida qo‘llaniladi. Xususan, o‘zbek nutqning bu kabi “tutqich bermas” ifodalari benihoya ko‘pligi, konnotativ sathning o‘zgaruvchanligi, humor, kinoya usullarining o‘ziga xosligi diqqatga sazovor.

“O‘lmoq” tushunchasining evfemalarini badiiy asarda muallif qahramon yoki o‘z tilidan turli vaziyat va shaklda ifodalaydi. Salbiy yoki hajviy qahramon nutqidan ijobiy, madaniyatli obraz nutqi farqlangani bois, o‘z navbatida, evfemik ma’nolar ham bir necha turga ajraladi. Ma’lum guruh kishilarigagina tushunarli bo‘lgan argotik evfema, shu voqelikka aloqador suhbatdoshgagina ma’lum qarg‘ish, haqoratni aks etuvchi evfemik birliklar farqlanadi. Bular sinonimik qatorni tashkil qilgan bo‘lsa-da, birlamchi ma’no bilan ko‘chim orasidagi bog‘liqlik

<sup>1</sup> Омонтурдиев А. Бир сўз луфати. – Термиз: Жайхун, 1996. – Б. 45.

ma'lum ma'noda uzilganini kuzatish mumkin, xususan Abdulla Qodiriyning quyidagi evfemik ko'chimli birliklarida ushbu jarayon yaqqol ko'zga tashlanadi.



N.M.Potapovaning fikricha, salbiy emotsiyani yumshatish uchun qo'llanilayotgan evfemizm denotat bilan aloqani uzsa, u evfemizm emas, balki haqiqatni buzishga urinishdir.

Dastavval, o'lim bilan bog'liq evfemalar mazmuniga ko'ra diniy va dunyoviy evfemalarga ajralgan. Tilshunos A.Omonturdiyev "diniy evfemalar ko'proq jonning mavjudligi, tanadan chiqib ketishi, u dunyoga — Xudo huzuriga borishi, jannat yoki do'zaxdan joy olishi kabi tushunchalar asosida paydo bo'lgan"ligini ta'kidlaydi. SHu kabi *jon bermoq, ajalga omon bermoq, mangulik uyquga ketmoq* kabi dindorlar nutqiga xos evfemik ma'noli birliklar qatoridan *ajal chaqiraman* ifodasi ham yangicha bir shakl sifatida o'rinn oladi. *Bu kunimdan, bu hasratimdan qutulish uchun o'zinga ajal chaqiraman.* (A.Qod. "O'tkan kunlar")

Davr o'tishi bilan bir guruh evfemalarning dunyoviylashgani xususida ham tilshunos o'z fikrlarini bayon etgan. Ayni guruhga *so 'nggi soati etmoq, qazo qilmoq* kabi evfemik ma'noli birliklar misol bo'la oladi. SHuningdek, *bosh* leksemasi bilan birikkan *ket-, ol-* kabi fe'llar ham "o'lmoq" tushunchasini ifodalovchi evfemizmlardir: 1. *Navoiy: taftish tamom bo'l magan holda, Yodgorning boshini oldirib yuborishingiznim deb fahmlash kerak?* (Uyg., I.Sult. "Navoiy"). 2. *Safdoshlarimizdan biri mardlarcha boshini sirtmoqqa soldi.* (O'.Hosh. "Ikki eshik orasi")

Ma'lumki, qarg'ish va haqoratlarda "o'lmoq" tushunchasini bergen ifodalar tinglovchi yoki o'quvchida salbiy kayfiyat uyg'otadi. SHu ma'noda, har qanday ifoda agar haqorat, qarg'ish shaklida tinglovchiga nisbatan yo'naltirilsa, qo'pol munosabat, ruhiy tushkunlik, kayfiyatdagi o'zgarish — antipatiyani uyg'otadi. Bu esa disfemiya kabi qabul qilinadi. Biroq o'l so'zi doirasidagi *ikki yuzing qaro bo'lsun, joying jannatda bo'lsin* kabi ifodalar haqiqatda evfemik mohiyatlari ekanligini ta'kidlash

joizki, ular ma'noni o'l so'ziga nisbatan birmuncha yopiq, berkitilgan shaklda ifodalagan.

**Shakldosh evfemalar.** Evfemik omonimiyaga doir masalalar borasida yo'l-yo'lakay fikr bildirib ketilgan, biroq muammo etarlicha o'rganilmagan.

Bir tushunchani turli shaklda ifodalash, albatta, nutq uchun qulay. Biroq bir evfemik ko'chimning turli mazmunda kelishi o'zbek tilining naqadar ko'rkan ekanligini namoyon etadi. "O'tkan kunlar" asari qahramoni YUsufbek hojining "*Nega har narsaga etgan aqling shunga kelganda oqsaydir*" degan iborasida adib mental madaniyatni nozik his etganligini ko'rsatadi. *Etmaydi* ifodasi o'rnida *oqsaydir* so'zi shu qadar nozik qolipga keltirilganki, so'zlovchi og'zidan chiqayotgan ayni jumlada biror qo'pol munosabat sezilmaydi. *Oqsamoq* ifodasining Abdulla Qodiriyning «Nega kim» deb nomlanuvchi fel'etonida ham takrorlanishini kuzatamiz: "*Ishtirokiyun*" gazetasi *bir kun chiqub, bir kun chiqmay oqsay boshladi*. Ya'ni, *oqsamoq* — ishi yurishmaslik, omadsizlik mazmunida. Bu erda evfemik omonimiya hosil bo'lganligi kuzatiladi.

Ma'lumki, odob-axloq me'yori talabiga ko'ra, qadimdan turmush o'rtog'i, qaynota-qaynonasi va boshqa qarindoshlarning nomini tilga olmaslik, o'zi ijod qilgan maxsus laqab-evfemik nom bilan murojaat etish — Markaziy Osiyo xalqlariga urf. Xususan, o'zbek oilalarida turmush o'rtoqlarini bosh farzand nomi bilan atash bugungi kunga qadar saqlangan. Jumladan, "Mehrobdan chayon" romanida buning o'ziga xos ko'rinishiga duch kelamiz:

**RA'NO I** (Nigor oyim) *Maxdum to'nni yoruqqa solib ko'rди: – Yo'q, adres hayf Ra'no, – dedi to'nni taxtiga solib, – haligi bo'zni beravur.* (A.Qod. "Mehrobdan chayon")

**RA'NO II** (Solih maxdum) – *Hay, Ra'no! – dedi havlida ketib borg'an maxdumg'a, – nonlarimizning suvi qochqan, xamir qilishg'a vaqt oz, bozordan issig' non oldirasizmi?* (A.Qod. "Mehrobdan chayon")

**Zid ma'noli evfemizmlar.** Evfemik ma'noga mezon va me'yor belgilanmasdan, uni (evfemani) yondosh, o'xshash, turdosh, jinsdosh hodisalaridan farqlab yoki chegaralamasdan yangi bir soha bo'lgan evfemiologik tadqiqotni amalga oshirib bo'lmaydi. Biroq evfemizmning ayrim badiiy-tasviriy vositalar bilan birga antonimik holati ham haligacha lison va nutq hodisasi sifatida maxsus o'rganilmagan. *O'g'lim, bugunoq boshingni bog'lab kelamiz.* (E.Tur. "Bu tog'lar ulug' tog'lar") Bu gapdag'i *boshini bog'lamoq* evfemizmi "boshini ajratmoq, o'zidan

soqit qilmoq” tushunchasiga antonim munosabatda bo‘ladi. Demak, “taloq qilmoq”, “ajramoq” mazmunini beruvchi *tinchitmoq* evfemik birligi o‘ziniki etmoq birligiga nisbatan zid ma’noli. – *Sen tinchitmasang, – dedi Xushro ‘y, – boshqalar seni tinchitar.* (A.Qod. “O‘tkan kunlar”)

Shuningdek, *afifa, sof* (bokira qiz) hamda *buzilgan* (bokira emas) evfemik birliklari o‘zaro zid ma’noli ifodalardir: *Alisher: – Ishonchim zo ‘r, Gulim sen sof erursen.* (Uyg., I.Sult. “Navoiy”); *Qizi tushkur jajmondekkina ekan. Hayfki buzilg‘anda...* (A.Qod. «Kalvak mahzumming xotira daftaridan»)

**Evfemik vositalarning ma’no ko‘lamiga ko‘ra tasnifi.** Ayrim evfemik vositalar bir ma’nonigina ifodalash uchun qo‘llangan bo‘lsa, boshqasi bir-biriga yaqin bir necha nutqiy ma’noni ifodalash uchun ishlatilgan. Bu esa ularni monosemantik va polisemantik evfemik birliklar sifatida guruqlash mumkinligini ko‘rsatadi.

**Monosemantik evfemalar.** Monosemantik evfemalar, faqat bir ma’noni ifodalashga xizmat qiladi. Bunday evfemalar faqat bir evfemik ma’noni ifodalashga xoslanganligi, ma’no ko‘لامи o‘ta torligi va muayyanligi bilan ajralib turadi. Masalan, o‘lim bilan bog‘liq evfemik birliklarning aksariyati turg‘unlashgan bo‘lib, boshqa bir mazmunni anglatmaydi: *Ha, Abdunabi sarroj ham bandalikni bajo keltirdi.* (Mirm. “Qissalar”)

Matn tarkibida ham, matndan tashqarida ham bir evfemik ma’noni bildiruvchi birliklardan yana biri o‘limdan keyingi hayot bilan bog‘liq ifodalar: *oxirat, u dunyo.*

Xalq tilida ishlatib kelingan evfemik ma’noga ega *afifa* (bokira), *ko‘ch* (xotin), *holva* (qiz) kabi so‘zlar tushunchaning evfemik ifodalovchisini almashtirishga ehtiyoj sezilmaganligi bois u biringa ma’noni bildirib, vaqt o‘tishi bilan bu monosemantik evfema sifatida til sathidan o‘rin olgan: *Nargisxon endi bizning jufti halolimiz.* (O‘.Hosh. “Ikki karra ikki besh”); *Toshkandda kimsan, Yusufbek hoji deganning ko‘chiman.* (A.Qod. “O‘tkan kunlar”) SHuningdek, gomoseksualizm tushunchasini ifodalash uchun qo‘llangan ayrim evfemik birliklar faqat shu ma’noda badiiy asarlarda o‘z aksini topadi. ...*Rahimjon besoqoli bilan sarf qilub, uyig‘a o‘n-o‘n besh kunda kelsa kelub, kelmasa samovar va no‘mirlarda Rahimjonni ayshini surib yurar edi.* (A.Qod. “Juvonboz”)

Umuman olganda, evfemiya hodisasi ma’no yuklash, neytral tushunchani yopiq, nozik, yumshoq ifoda etish bilan bog‘liq ko‘chim

ekanligini inobatga oladigan bo'lsak, bu vaziyatda monosemantik ifodalar salmog'i torayishi kuzatiladi.

**Polisemantik evfemalar.** To'la polisemiyaga javob beruvchi evfemalar ko'p uchraydi. Masalan, yuqorida sanab o'tilgan o'lim bilan bog'liq evfemalarning ba'zilarida ayni holatni kuzatamiz:

**ORADAN KO'TAR 1** (yo'q qil, o'ldir) *Halig'i Otabek qizg'a uylanib qo'yg'ach, bizning Homid tikanga ag'nab, oradan Otabek bilan Mirzakarim akani ko'tarish fikriga tushkan va bo'limg'an chaqimchiliqlar bilan ularni dor ostig'acha tortishg'a muvaffaq bo'lg'an...* (A.Qod. "O'tkan kunlar")

**ORADAN KO'TAR 2** (yo'q qil, taxtdan yiqit) *YO qirilib bitish va yo Azizbekni oradan ko'tarishga fotiha o'qildi.* (A.Qod. O'tkan kunlar); *Qo'shin Toshkanga etgan ba'dida bizlar tashqaridin va sizlar ichkaridin bo'lib Musulmonqulni oradan ko'targaymiz.* (A.Qod. "O'tkan kunlar").

Polisemantik evfemalar ko'chma ma'noning xarakteriga ko'ra ham ichki tasnifiga ega bo'la oladi. Bunda ma'no ko'chimining qanday asosda ekanligi bilan e'tiborli. SHu boisdan polisemantik evfemalardagi ko'chma ma'no metaforik, metonimik, sinekdoxik, vazifadoshlik, kinoyaviy kabi turlarga ajratilishi mumkin.

**Metaforik evfema.** Metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik barcha majoziy ifodalarning, jumladan, troplarning (evfemalarning ham) shakllanishida asos bo'lib xizmat qiladigan usullar – ma'no ko'chish yo'llaridir. SHunday ekan, evfemiya jarayonida ko'chimning ayni turi ko'p o'rinnarda xizmat qiladi. Bo'yin bilan bog'liq evfemik birliklari ma'lum ma'noda nisbiy ekanligi anglashiladi. Jumladan, *bo'yin egmoq, bo'yni yo'g'on* kabi ifodalarida kishining jismoniy holati o'z o'rnida ma'naviy holatiga nisbatlanadi.

**Metonimik evfema.** Narsa-hodisa makon va zamondagi o'zaro bog'liqligi asosida qayta nomlash evfemik ko'chim sifatida qaralishi mumkin. Ayniqsa, spirtli ichimliklar bilan bog'liq evfemalarning ayrimlarida uning yaratilishi, foydalanish xususiyatiga ko'ra ko'chim qabul qilgan *dori, zahar* ifodalari bunga yaqqol misol bo'la oladi. Ularning ma'no ko'لامи kengligi spirtli ichimlikning tavsifi, ta'rifi, xususiyati bilan bog'liq. Masalan, *Bek (piyolaga may quyadi): Keling, yig'ingizni tarqatish uchun guldan yasalgan dori beraman.* (CHO'lp. "YOrqinoy")

**Sinekdoxik evfema.** Qismni butun bilan atash, butunni qism bilan atash evfemik ko'chimda ham mavjud. Masalan, *tuyoq so'zining hayvonlarga nisbatan ishlatalishi ma'lum.* Biroq badiiy asarlarda bu so'z

evfemik shaklda qo'llanilib, “yolg‘iz farzandlik” tushunchasining yumshoqroq shaklini ko‘rishimiz mumkin: *Ammo siz hurmatlularg‘a ma'lumdir, bizning shul Otabekdan o‘zga farzandimiz bo‘lmay, dunyoda o‘zimizdan keyin qolaturg‘on tuyogimiz va ko‘z tikkan orzu-havasimiz, umid hadafimiz faqat shul Otabekdir.* (A.Qod. “O‘tkan kunlar”)

Sinekdoxik evfema sifatida *turmadi* ifodasini misol qilib olish mumkin. Homilaning tushib qolishini, tug‘ilmasdan burun nobud bo‘lishni anglatib kelgan ayni ifodadan bolaning turmaganligi haqida fikr ketayotganligi ayon bo‘ladi: – *Marg‘ilonliq xotiningizdan bolangiz bordir? – Yo‘q... – Bo‘lsa ham turmadimi, uylanganingizga ancha bo‘ldi shekillik? – Turmadi.* (A.Qod. “O‘tkan kunlar”)

**Vazifadoshlik asosidagi evfema.** Bu tur ko‘chish ham o‘xhashlikka asoslanadi. Biroq bu erda vazifa o‘xhashligiga tayaniladi. Foydani teng bo‘lib olish xaqida tushuncha berayotgan *arra* ifodasi ham shu kabi vazifadoshlik asosida vujudga kelgan evfemik birliklar qatoridan o‘rin oladi: *SHaharda mashhur ishonchliq muttahamlardan iborat kamisio ‘nniy magazin ochildi... Kamisiya haqi juda arzon: sotib berilgan molning oqchasi arra.* (A.Qod. «Bildirishlar»)

**Kinoyaviy evfema.** Kinoya – so‘zni teskari ma’noda ishlatish. Kinoyadagi so‘z hozirgi imloda, odatda, qo‘shtirnoqda beriladi. Juda ko‘p o‘rinlarda shaxsni anglatib kelgan «*bo‘ydoqlar*» (tur mushga chiqmagan qizlar), «*yigit*» (nomard), evfemik kinoyaviy ifodalari teskari mazmunda qo‘llanishi kuzatiladi. Inson sifatini bildirib kelgan «*vijdonli*» (vijdonsiz), «*kelishkan*» (beo‘xshov), ifodalari asl muddaoni aytishidan qutqargan ko‘chim sifatida ayrim asarlardan o‘rin oladi.

**Evfemalarning shakliy strukturasiga ko‘ra tasnifi.** Ayrim ma’no bir so‘z yoki ibora shaklidagi evfemik vosita bilan ifodalansa, boshqasi birikma holidagi ifodalovchiga ega, ba’zan gap holidagi evfemik vositalar ham kuzatiladi. SHunga ko‘ra, evfemik so‘z (ibora), evfemik birikma, evfemik gap farqlanishi mumkin.

**So‘z shaklidagi evfemik vosita.** Bir so‘z boshqa so‘zlarsiz evfemik ma’noni bergen holatlar talay: *arra, axlat, qisqa* (ahmoq), *o‘choqboshi* (hukumat), *o‘yin* (xiyla), *yara* (dard), *yuraksiz* (qo‘rqoq), *yuklik* (homilador), *etaksiz* (betayin), *chayqovchi* (olib sotar, qallob), *tuyoq* (farzand), *tillaxona* (hojatxona), *oqsogol* (aroq), *obirahmat* (aroq), *ko‘ch* (xotin), *zaifa* (ayol, ojiza), *do‘ndiqcha* (fohisha).

Shuningdek, voqelik, vaziyat, xatti-harakatlar bilan bog‘liq denotat bir so‘z bilangina ifodalanganligini ham ko‘rishimiz mumkin: *Domla mudarris* «*zamona buzuqlig‘i*»ni nazarga olg‘ani uchun Abdurahmonni

*haligi to 'g'risidan juda qattiq nazorat qilar edi.* (A.Qod. “Mehrobdan chayon”) Bu o‘rinda haligi so‘zi zamirida qahramonning noplari xattiharakatlari yotadi. Bunday qisqalik — so‘zga xasislik buyuk yozuvchi Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asarida ham o‘z aksini topgan: ...*Shundan keyin bir necha qadam bosib Otabekning pinjiga yaqin keldi va esankiragan, hayajonlangan bir tovush bilan so‘radi:*

— Siz o‘shami?

— Men o‘sha, — dedi bek.

Bu iboradagi o‘sha so‘zi Kumushning dardi bo‘lib, ko‘ngil qo‘ygan insoni, bir nurafshon kunda favqulorra uchratib qolgan va natijada sevib qolgan kishisi haqida so‘zlaydi. Unda men sevgan, firoq o‘tida qiynalgan, o‘ylab o‘yimga etolmagan, qancha izlagan kishim sizmi kabi tuyg‘ular Siz o‘shami degan jumlesi bilan jonlantirilib, o‘sha insonga qarata «Men sizni sevaman!” ma’nosini o‘zbekona, Kumushona qilib singdirish — ulkan san’atkorlik belgisi. O‘sha — “muhabbatim”, “yuragim gavhari”, “ko‘zim nuri”, “qalbim duri”, “sevgan kishim”... kabi.

**Ibora shaklidagi evfemik vosita.** Axloqiy va madaniy jihatdan qo‘llanishi mumkin bo‘lmagan yoki noqulay deb topilgan tushunchalarni ancha yumshoq tarzdagi birikmalar bilan ifodalash ehtiyoji asosida frazeologizmlar shakllanishi mumkin.

Evfemik ma’no beruvchisi frazeologik birliklarning aksariyati okkazional tabiatli deyish mumkin: *toq kelib juft ketmoqchi* (“foydalamoqchi”), *qurigan ariqdan suv borg‘ishlab, shamoldan luqma berar* (“asossiz va’da beradi”) kabi evfemik-frazeologik birliklar shular jumlasidan.

Mavjud frazeologizmlarning *surobini to‘g‘irlab qo‘ymasimni* (“ta‘zirini bermasimni”), *kavshining chakagi yirtildi* (“ovora bo‘ldi”), *boshida tegirmon yurgizish* (“azob berish”), *yoshini yashab, oshini oshagan* (“qarigan”), *kosasi oqarmay ketyapti* (“kambag‘al”), *tishimizni tishimizga qo‘yishga majburmiz* (“chidaymiz”), *tirnoq ostidan kir izlash* (“arzimagan narsadan g‘avg‘o chiqarish”), *miyamizni qoqib qo‘limizga bersin* (“o‘ta ezmalik qilsin”), *yaraga tuz sepdi* (“o‘tmishini esga soldi”), “aybini yuziga aytdi”), *qordan qutulib, yomg‘irg‘a tutilib* (“bir tashvishning ustiga boshqa tashvish tushib”), *boshini ikki qilish* (“uylantirish”), *tog‘dagi mashoqqa besaranjom yugurish* (“qo‘ldan kelmaydigan ishga urinish”), *holimizga mushuklar yig‘lasun* (“og‘ir, yomon ahvolga tushamiz”), *ebdir nomaql buzoqning go‘shtini* (“yanglishibdi, ahmoq bo‘libdi”), *og‘zining suvi kelguvchi* (“havasi

kelgan”, “ishtiyooqi bor”), *usta ko’rmagan shogird har maqomga yo’rg’alar* (“uquvsiz”, “malakasiz”, “savodsiz”), *ko’z bo’yash* (“xo’jako’rsinga”, “shunchaki”), *tagiga suv keladi* (“lavozimdan haydaladi”), *ko’ksini zaxga berib yotgan och-og’riq* (“qashshoq”, “kambag‘al”, “och-nahor”), *og’zi oshga etgan* (“maqsadiga erishgan”), *tutuni ko’kka ko’tarilar ekan* (“jahli chiqar ekan”) kabi ifodalari evfemik xarakterga ega.

**So’z birikmasi shaklidagi evfemik vosita.** So’z birikmasi shaklidagi evfemik vosita [tobe so’z+hokim so’z] qolipiga ega. Bunday evfemizmlar nutqiy tabiatliligi va barqaror emasligi bilan iboralardan farqlanadi: *jilovi qo’lida*, *siyosatga tegadirg’an*, *tishlik hayvon* (“cho’ri”), *yolg’iz bosh* (“beva”, “tul”), *madaniy millatlar*, *vaqtsizroq yaratilgan* (“chala tug’ilgan”) va hokazo.

Ilmi, saviyasi past, madaniyatsiz kishilarga nisbatan ishlatgan *boshi bo’sh, jo’n odam, bo’yni yo’g’on, ishi buzuq* kabi evfemik birikmalar fikr ta’sirchanligini oshiradi. Bu birliliklar turg‘un (lisoniy) bo’lmay, nutqda keng qo’llanilib, turli evfemik mazmunda keladi.

**Gap shaklidagi evfemik vosita.** Gap shaklidagi evfemik vositani ajaratishda sodda gapning o’zbek an’anaviy tilshunosligida tan olingan [ega+kesim] qolipiga tayaniladi.

*Dami kesiladi* (ovozi o’chadi), *elkasi qichimasin* (“tamagirlilik qilmasin”), *kavshining chakagi yirtildi* (“ovora bo’ldi”), *katta tollar kesilgan* (“yaxshi davrlar o’tib ketgan”), *suyaklari o’ltirgan* (“qarib, munkayib qolgan”) kabilar gap shaklidagi evfemik vositalardir.

Bu evfemik vositalar gap shaklida bo’lsa-da, ularning aksariyati ibora sifatida ham qaralishi mumkin. Barqarorlik darajasi mazkur birliklarni ibora sifatida baholashga asos bo’lsa, lekin ularning [ega+kesim] shaklida ekanligi gap qolipidagi birliliklar sifatida qarashga sabab bo’la oladi. Til hodisalarining serqirraligi tamoyili mazkur birliklarni baholashda ham metodologik tayanch vazifasini bajaradi.

**Implitsit evfemiya.** Badiiy matnda implitsit ifodalangan haqorat, qarg’ishlar ham mavjud: *Qo’lingdan qamchin, belingdan oshpichoq, shopdek murtingning ostidagi sassiq og’zingdan “Qizingni... onangni... diningni... ota-bobongni... ” degan zikri oliylar doim favvora urar edi* (A.Qod. “Mochalov”). Bu erda haqorat ko’p nuqta bilan berilgan. Implitsit ifodada tabulashtirilgan voqelikning evfemik vositasi ko’pincha qo’llanmay, ular zamiridagi tushunchalar kontekst va intonatsiya (ohangning birdan kesilishi, to’xtab qolish, cho’zilishi, tugallanmaganligi, sukut, davomlilik kabilar) orqali anglashilib turadi. Negaki, matn

mohiyatan shunga yaqin tushunchani kishi ongiga undaydi. Baribir, birinchi yarq etib paydo bo‘lgan fikr to‘g‘ri bo‘lib, aytish noqlay, nutqiy etikaga mos kelmasligi sababli madaniyat yuzasidan qo‘shtirnoqda beriladi yoki ko‘p nuqta bilan yoziladi: 1. *O‘ylab, qizning aslini bildimki, onasi yuqoridan tavba qilib tushgan haromzodalardandir va otasi ham ...lardandir.* («Kalvak mahzumning xotira daftaridan», Diyori bakr – 299) 2. *Men shu zamonnинг hezalaklariga sira tushunolmadim-da, voy, dedim, voy sani o’sha olipta qilub tuqqanni... dedim.* (A.Qod.«Toshpo‘lat tajang nima deydi?»)

**Evfemik ma’noli birliklarning qo‘llanish xususiyatlari.** Evfemik nutq tafakkurning, inson aql-zakovatining oliv formasi, “qaymog‘i”, voqeqlikning pardozlangan, “parda ichiga olingan”, beozorlashtirilgan, yumshatilgan obrazli ifodasidir. Ko‘chimlarning ma’nosini juda murakkab bo‘lib, u har gal nutq jarayonida uslubshunosning so‘z qo‘llash, ibora tanlash mahorati, maqsadi, didi bilan bog‘liq faoliyatida reallashadi, – deydi A.Omonturdiyev “O‘zbek tilining evfemik asoslari” asarida.

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asarining dastlabki qismida Homid, Rahmat va Otabekning uylanish haqidagi suhbatlarida *muvofig* so‘zi juda ko‘p o‘rinlarda qo‘llanilganini ko‘ramiz. Har qo‘llanishda bir ma’no zohir bo‘ladi. Qaysidir o‘rinda ma’no uchun qo‘pol so‘z yumshatiladi, boshqasida esa, aksincha, qo‘pol so‘z boshqasiga almashtiriladi.

Yozuvchining so‘z tanlay olish mahorati shundaki, “xarakterga mos kelmoq” fikrini ifoda etish uchun bo‘yoqli so‘zlar qidirib o‘tirmaydi. *Muvofig* so‘zida ushbu kontekstdagidek “meni tushunadigan”, “menga yoqadigan” kabi tushunchalar ham mavjudligini his qilgan holda qo‘llaydi. Nutq jarayonidagi etika talabi ana shunday evfemik hodisaning yuzaga kelishiga turtki bo‘ladi. Birgina so‘z misolida, unga evfemik “mas’uliyat” yuklash barobarida, adib nafaqat mubohasadagi kishilarining ma’naviy qiyofasini chizadi, balki o‘z munosabati uchun bu so‘zni xizmat qildiradi. Bahslashuvchilar o‘z fikrlarini ochiq aytmaydilar, har biri “muvofiglik”ni o‘z “qarichi” bilan o‘lchaydi, o‘zicha tushunadi va talqin qiladi. “Ko‘nglini topish”, “xizmatini qilish”, “ra’yini qaytarmaslik”, zarur ehtiyojlariga xizmat qilish” kabi ma’lum darajada ochiq aytish mumkin bo‘lmagan ma’nolarni faqat shu so‘z ifodalaydi. Yozuvchi garchi Homidga salbiy qahramon maqomini bergen bo‘lsa-da, uning og‘ziga ham faqat pardalangan so‘zlarni “soladi”, uni ham, kim va qanday odam bo‘lishidan qat’i nazar, milliy ibo va andishadan xoli ko‘rmaydi, o‘quvchiga bepardoz namoyish qilmaydi.

Bunda adibning milliy ibo va nazokatni qanchalik ustuvor tutganligiga amin bo‘lish mumkin. Adibning maqsadi bu erda *muvofiq* so‘zini yolg‘iz qo‘llab, har gal “munosib”, “loyiq” tushunchalarining bezakli, shuningdek, ta’sirchan ko‘rinishiga erishadi. Bu evfema ham, boshqa evfemalarda bo‘lgani kabi, kishida ijobiy taassurot qoldirish, yoqimsiz so‘zlarni oshkor aytmaslik vazifasini bajarishga yo‘naltirilgan.

Shuningdek, adib o‘rinsiz qaytariqlardan ham tiyiladi. Zero o‘rinsiz qaytariq nutqiy “chuchmallik”ni keltirib chiqaradi. Bir gapdagi *tab’ga muvofiq* so‘z birikmasi ikkinchi misolda qo‘shma so‘z –*muvofiquttab*’ shakliga keladi. So‘z birikmasi matn ichida o‘z ma’nosida tushunilgan bo‘lsa, ikkinchi gapdagi qo‘shma so‘z “tanlangan juftining dididagi inson” ma’nosini beruvchi ushbu ifoda fikrni boyitadi. Bu bilan tinglovchiga nisbatan “sen ham unga yoqishing kerak” degandek bo‘ladi, ammo uning xotirasida noxushlikni uyg‘otmaslik maqsadida yumshoqroq shaklda bayon etadi: – *Xoting‘a muvofiq bo‘lish va bo‘lmasliqni uncha keragi yo‘q, – dedi Homid e’tirozlanib, – xotinlarga “er” degan ismning o‘zi kifoya... ammo jiyan aytkandek, xotin degan erga muvofiq bo‘lsa bas.*

Yuqorida *muvofiq bo‘lmoq* jumlesi “ma’qul bo‘lmoq” tushunchasini berayotganini sezamiz. “Xotinga yoqish”, “xotinning erga ma’qul bo‘lishi” kabi mulohazalar nozik evfemik vositalar ortiga berkinib, beodoblikni, nutqiy odob-axloq buzilishining oldini olmoqda. Dunyoqarash, madaniy saviya esa tilga ko‘chmoqda.

*Masalan, men ota-onamning yoqdirishlari bilan uylandim... ammo xotinin ota-onanga muvofiq bo‘lsa ham menga muvofiq emas, siz aytkandek, ehtimol, men ham xotinimga muvofiq emasdirmagan...* jumlasida ko‘proq “to‘g‘ri kelmoq”, “yoqtirmoq” tushunchalari anglashiladi. Nutqiy kontekst “ota-onam uchun yaxshi bo‘lsa ham menga ma’qul emas, ehtimol, men ham yoqmasman” gapidagi ajratilgan birliklardan ko‘ra *mutanosib* so‘zini talab qilmoqda. CHunki nutq jarayonidagi so‘z o‘yinida *muvofiq* so‘zi asos sifatida har xil rangda ko‘rimmoqda. Berilayotgan har bir fikr mazmunini o‘z o‘rnida ifodalamoqda.

*Xotining ko‘nglingga muvofiq kelmas ekan, muvofiqini olib, xotinni ikki qil jumlasidagi ikki o‘rinda ishlataligan ayni ifodalar antonim hodisisi yuz berishiga sabab bo‘ldi. Beozor ko‘rinishga keltirgan ushbu evfemik vositalar qanchalik go‘zal bo‘lmasin, nozik ma’no ifodalamasin, salbiy mohiyatini yo‘qotmayotir: – “Xotining yoqmasa, yaxshisini ol”.*

*Xotinin muvofiq emas deb zorlanib, hasratlanib yurish er kishining ishi emas.* Bu erda “muvofiq kelmoq”ning o‘rniga “muvofiq emas” kabi evfemaning yangi, qulayroq, ammo bizningcha, yumshoq emas, aksincha, dag‘alroq ko‘rinishi qo‘llanilgan. Qiylaymiz:



Demak, tilning taraqqiyoti natijasida evfemalarining yangi shakllari, aytishi me’yor bo‘lib kelgan ko‘pgina so‘z va iboralar o‘rnida unga nisbatan yanada qulay, so‘zlovchi va tinglovchi uchun yoqimliroq bo‘lgan ifodalar paydo bo‘laveradi. Hassos va, shuning barobarida, so‘zga “xasis” adib Abdulla Qodiriy esa turli mazmundagi tushunchalarni ifodalash uchun bir so‘zning o‘zinigina evfema sifatida qo‘llaydi, ajablanarlisi shuki, u kishini zeriktirish o‘rniga jalb qiladi, tortadi. U narsa yoki voqelikni kuzatib, muhim belgi-xususiyatlarini ajratadi, umumlashtiradi, makoniy-zamoniy bog‘lanishlarni aniqlaydi va turli xil tusga soladi. Bora-bora bu uslub adib asarlarining bir necha o‘rinlarida qo‘llanilganining guvohi bo‘lamiz. “Mehrobdan chayon” romanidagi Gulshanbonuning haram qizlari bilan bo‘lgan suhbatida *ma’nisiz* ifodasini, “O‘tkan kunlar”dagi Otabekning Kumush bilan bo‘lgan suhbatida *hamroh, biraq, yo‘ldosh* ifodasini yuqoridagi *muvofiq* ifodasi kabi turli rangda, omonimik-polisemik xarakterda ifodalaydi. Quyida Otabek va Kumush bahsidan o‘rin olgan *hamroh* birligi vositasidagi so‘z o‘yiniga murojaat qilamiz:

*Bu nima degan so‘zingiz tag ‘in?*

– *Ya‘ni hamrohim bor deganim – mendan qo‘rqmang, deganim...*

*Otabek yana tushunmad...*

– *Hamrohingiz...*

– *Hamrohimmi? – dedi Kumush, – hamrohim birovning xayoli, birovning fikri. Bas, bundan ham yaxshi rafiq bormi? Ba’zi vaqtlarda bu yo‘ldosh uyqudan ham shirin.*

*Otabek hamrohga tushundi va yotib Kumushning yuzidan o‘pdi:*

– *Lekin bu so‘zingizga ishonmayman.*

– *Nega ishonmaysiz?*

– *Negaki, siz anovi... kechasi hamrohsiz edingiz... Pish-pish uxlar edingiz...*

*Kumush Otabekning elkasiga qo‘lini tashladi:*

— O’shal vaqtarda **hamrohsiz** uxlag ‘anim to ‘g’ri, — dedi, — chunki **birovlardan** butunlay umidim kesilgan, **hamrohim** menga hamisha umidsizlikgina berar, dahshatimnigina ortdirar edi. Ammo o’sha kunlarda uyqu menga juda shirin bir narsa bo’lib qolg’an, men uyqudag‘ina **birovlarni** ko‘rar va kunduzlari uyqu qidirar edim. Endi bo’lsa yana yo‘ldoshim xayol... Tag‘in nima deysiz?

Adib Otabek uchun dastlab *hamroh* so‘zini boshqa bir kishi haqidagi, Kumush uchun esa Otabek haqidagi xayolning evfemik ifodasi sifatida beradi. Matn davomida Otabek so‘zning evfemik mazmunini anglab etadi. Kumush esa yana *birav* so‘zini Otabekning o‘ziga nisbatan evfemik vosita sifatida qo‘llaydi. *Hamroh* so‘zi aslida kishiga nisbatan qo‘llanadi. Otabek uning egalik shaklida qo‘llanayotganligi asosida o‘ziga nisbatan aytilayotganligini anglab etadi. Bu o‘rinda o‘zbek ayoliga xos ichki madaniyat va andisha namoyon bo‘ladi. Hatto ochiq aytish mumkin bo‘lgan vaziyatda ham Kumush andisha chegarasini bosib o‘tmaydi. Ko‘rinadiki, ushbu o‘rinda har uchala so‘z go‘zal mutanosiblikni hosil qiladi.

*Og‘ir tabiatlik, ulug‘ gavdalik, ko‘rkam va oq yuzlik, kelishgan qora ko‘zlik, mutanosib qora qoshliq va endigina murti sabz urgan bir yigit.* Sevimli qahramonimiz Otabek ta’riflangan ana shu bir jumlaning o‘zidayoq so‘z zargarining tilga qanchalik e’tiborli ekanligi ko‘rinadi. *Og‘ir tabiatlik* iborasi “o‘zini tuta bilgan”, “sipo”, “vazmin”, “bosiq” kabi tushunchalarni ifodalaydi. Ammo adib tanlagan so‘z birikmasi nutqiy vaziyatni, ob‘ektni tasvirlash uchun qo‘llanilayotgan bo‘yoq dor so‘z – evfema bo‘lib, o‘zining an’anaviy muqobillaridan, lisoniy yoki nutqiy ma’nodoshlaridan badiiy-estetik vazifasi jihatidan ancha ustuvorligi bilan ajralib turadi. Otabek sipo yoki bosiq emas, aynan og‘ir tabiatlik. Bu tushunchada umumiylikka xos mantiq mavjud. *O‘zini tutib olgan, sipo birliklari* – ko‘proq salbiylikka moyil ifodalar. Adib o‘zi xayrixoh Otabekni emas, balki Xomid yoki boshqa salbiy obraz portretini chizganda shu so‘zlarni qo‘llashi mumkinligi ehtimoldan xoli emas.

Ayni jumlaning *mutanosib qora qoshliq* so‘z birikmasi kishini o‘ziga jalb qilmay qo‘ymaydi. Nutqiy evfemani, asosan, matn boshqarishini nazarda tutgan holda aytish mumkinki, Otabekning ko‘rkamligi tashqi ko‘rinishdagi mutanosiblikning mavjudligida, qoshlarning teng o‘lchamli, muntazam joylashganligida. Evfemizatsiya hodisasi yuz berdi deyishimizga sabab, qoshlarni bir-biriga mos demasdan, muntazam emas.

joylashgan deyishda, bu bilan nutqdagi so‘zning chiroyli sinonimi bilan almashtirilishida namoyon bo‘ladi.

Jumladagi barcha bo‘yoqli so‘zlar qatorida *murti sabz urgan* iborasi evfemiklik talabiga javob beradi. Chunki evfema – yumshatuvchi birlik. *Sabz* yashil rang ma’nosidan tashqari, “g‘o‘r”, “xom”, “yangi”, “yosh” ma’nolarini ham anglatadi. *Murt* (mo‘ylov)ga nisbatan ishlatilgan *sabz* so‘zi ko‘chma ma’noda “o‘sib, unib chiq qoshlamoq”, “nish urmoq” tushunchalarini beradi. *Otabekning endigina mo‘ylovi o’sayotgan edi* jumlasidan ko‘ra *murti sabz urgan* ifodasi kishida ijobjiroq taassurot qoldirishi tabiiy. *Murt* so‘zini yumshatish uchun *sabz* so‘zi yordamga kelgan. Adibning *murt* so‘zini Homidning jiyani Rahmatni tasvirlayotganida “...yuzga to‘la, ozroqqina soqol-murtlik, yigirma besh yoshlar chamaliq bir yigit...” tarzida qo‘llaydi. Bu erda evfemaga murojaat qilinmaydi. *Ozroqqina* so‘zi ham *sabz urmoq* birligining ma’nosini to‘la aks ettirmasa-da, kontekstual ma’no jihatidan yaqinligi ma’lum. Adibning qahramonga bo‘lgan munosabati tilga ko‘chadi. YUqorida keltirilgan ikki gapda evfemizmlar ikki va to‘rtta komponentdan tashkil topgan so‘z birikmalari bo‘lib, ular o‘zaro sinonimik qatorni hosil qilgan.

Otabekning ma’naviy otasi Hasanalinining esa “...to‘garak qora ko‘zlik, oppoq uzun soqollik...”ligida “yaxshi xislatlarga boy nuroniyo ota” ma’nosi bor. Ko‘zlarning to‘garakligi – aylana, doira shaklidaligi soddalik, beg‘uborlik alomati. Adib shu o‘rinda *dumaloq* so‘zini ishlatsa ham bo‘lar edi. Ammo u yuqoridagi go‘zal ifodaga erisha olmas edi. Otabekni *kelishgan qora ko‘zlik*, Homidni *chag‘ir ko‘zlik* tarzida tasvirlaydi. Inson tabiatni, xarakteri adib nazdida uning tashqi ko‘rinishidagi belgilarida aks etadi. *Kelishgan* so‘zi ko‘zga nisbatan ishlatilganligini faqat Qodiriy ijodidagina ko‘ramiz. “Xushbichim”, “bichimi to‘g‘ri” ma’nolarini beruvchi bu ifoda aksariyat hollarda qaddiqomatga nisbatan qo‘llanilishi ma’lum. Ammo barcha ijobjiy xarakterga ega, “pardozlangan” so‘zlardan Otabek obrazini yaratish yozuvchining asosiy vazifasi edi.

Evfemik misollar, ayniqsa, siyosiy hayotga oid masalalarda ko‘p qo‘llanilganini his etib turamiz: *Saidovlar uchun ilgarilar bu xilda “halol kasb” bilan kun ko‘rish mumkin bo‘lsa bo‘lgandir; ammo endi, ayniqsa bu kun, ya’ni yorug‘ ochiq kunda o‘g‘riliq?!* (A.Qod. “Lug‘at pudratchiligi va quruq rasmiyat”)

O‘sha davr muhitni “yopiq” ifodalangan yuqoridagi jumlada *yorug‘ ochiq kun* so‘z birikmasi qo‘llanishida siyosiy mavsumni yangi nutqiy

birlik bilan ifodalaganligini ko‘ramiz. Ya’ni bu birikma “demokratiya, oshkoraliq, adolat ravnaq topgan bir davlatda o‘g‘rilik qilinishi ajablanarli hol” ma’nosini berayotir. Abdulla Qodiriy uchun qulay usullardan bo‘lgan piching evfema qo‘llashga asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu bilan o‘sha davr siyosatining nosozligidan shikoyat mazmuni anglashilayotir. SHu o‘rinda bir jumlaning o‘zida bir so‘zni ikki bora takrorlamaslik maqsadida sinonim – *o‘g‘ri* so‘zining “halol kasb” evfemasi ham beriladi. Natijada piching ma’nosi yuzaga chiqadi.

Yozuvchi ijodida bosh so‘zni ajratish qiyin bo‘lgan va bunda matn mazmunidan kelib chiqish lozim bo‘lgan holatlarga ham duch kelinadi. Masalan, “Ro‘zg‘or” degan so‘z “**chor ishkal**”ning birinchisi. Nima bo‘lg‘anda ham bu “ishkal”dan chiqish kerak. G‘o‘zakentdan kolxozchilar uchun bug‘doy sotib olinadi. Bug‘doy u qadar **izzattalab bo‘lmasa ham**, Yorqoriyev bug‘doyni “**istiqbol qilish**” uchun yacheyska kotibi Qobilovni yo‘lga chiqaradi. Lekin... lekin shu qadar izzat va ehtiyoj bilan keltirilgan bug‘doyning vazni kutilmaganda 240 kg. kam keladi. Yorqoriyev ham bunga “taasuf” bayon qilib, akt bilan “ta‘ziya” izhor qiladi. (A.Qod. “O‘zi xon, ko‘lankasi maydon”). Butun kontekst mazmuni o‘g‘irlilik haqida ekanligi ma’lum. Qolaversa, chiroysi so‘zlarni ishlatish bilan bir qatorda, ular qo‘shtirnoq ichiga olinadi. Yuqorida aytganimizdek, yolg‘iz evfemadan foydalanilmay, kinoya qilinib, disfemik kayfiyat uyg‘otilgan.

A.Omonturdiyev siyosiy publisistik uslubdagagi har qanday tanqidiy tushunchalarni hamma vaqt ham oshkora ifodalab bo‘lmaganligidan ba’zan majoziylashtirilishini ta’kidlaydi va yumshoq – “yopiq” shaklda ishlatilgan har qanday evfemik ifoda vositalarini siyosiy-badiiy yoki siyosiy majoziy evfema deb atash mumkinligini aytadi. Masalan, *Tanqid qilgan kishilarning xotinlari chopiq vaqtida ishlab turgan joyidan haydaladi* (chunki bunda ish nuqtai nazaridan emas, **nafsoniyat nuqtasidan ish yuriydi**). (A.Qod. “O‘zi xon, ko‘lankasi maydon”). Ayni jumladagi qo‘pol mazmun har qancha evfemalashtirilgan bo‘lmasin, piching havosi ufurib turganini va mazmunini yumshata olmayotganini sezib turamiz. Intim munosabatga aloqador evfemik vositalarni A.Omonturdiyev o‘zining “O‘zbek tilining qisqacha evfemik lug‘ati”ga to‘plagan, ular sirasiga xalq orasidagi 150 dan ortiq iborani kiritgan. Ammo Abdulla Qodiriyning yuqoridagi iborasida shu mazmunni beruvchi evfemanering yangi, hech qaerda uchramagan o‘ziga xos shakli kashf etilgan.

“Lavozimdan ketish” tushunchasiga misol: “*Bu ma’lumotni olg‘ach kecha-kunduz: “Ey bor xudoyo, Kerenskiy hukumatini qiyomatg‘acha oyog‘dan yiqitma!” deb duo qilmoqg‘a kirishdi.*” (A.Qod. “Tinch ish”). YOki *Barakalla bolshavoyingga, barakalla bolshavoyingga, xo‘p qilupti-da! Oq podshohligini burnidan chiqaribdi... Xoh, xoh, xoh, xo-o-o...* (A.Qod. “Otam va bolshevik”).

Davr taqozosiga ko‘ra rus so‘ziga nisbatan izzat-hurmatni anglatuvchi evfemalar ko‘p bo‘lgan. Misol uchun, *og‘amiz, ulug‘ og‘amiz, katta millat kabi. Rus to‘ralari suti oppoq va shirin sigirlarni qo‘ldan chiqarishni istarmidi?* (Cho‘lp. “Kecha va kunduz”). Yuqorida keltirilgan misollar kishida tabassum uyg‘otgani barbarida, taassuf, millatning kechirayotgan turmushiga nisbatan achinish hissini ham beradi.

*Oqsoq Temir, Ahmad Yassaviy, shoh Mashrab marhumlarining qabrlarini buzub na’shlarini!* Tataristonq‘a ko‘chirilganda o‘zbeklar **churq etmay**, balki ko‘mak berurlar. Navoiyning tatarmi va yo o‘zbekmiligi masalasi **alohida bir o‘ltirishda hal qilinur**. (A.Qod. “Bildirishlar”)

Kulgiga chaqiruvchi “pora”, “nobop kelishuv”, “yashirin savdo” tushunchalarini beruvchi *hal qilinur* birikmasini *alohida bir o‘ltirish* iborasi orqali yanada bo‘rttirilib, fikrda salbiy munosabatning, g‘ayrioddiy harakatning evfemik ifodaşini berayotir.

### Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Evfemizm nima?
2. Evfemizmni mavzuviy tasniflang.
3. Evfemizmning struktural tasnifi haqida gapiring.
4. So‘z-evfemaga misol keltiring.
5. Evfemik birikma xususida nimalar deya olasiz?
6. Gap-evfema nima?
7. Ma’nodosh-evfemaga misol keltiring.
8. Shakldosh-evfemaga misol keltiring.
9. Zid ma’noli evfemaga misol keltiring.
10. Evfemik birlikning ma’no ko‘lamiga ko‘ra tasnifi haqida gapiring.
11. Efemizmning metaforik, metonimik, sinekdoxik, vazifadoshlik asosida ma’no ko‘chish usullariga misollar keltiring.

---

<sup>1</sup> Наъш – жасад

12. Implitsit evfema nima?
13. Evfema qo‘llash mahorati xususida nimalar deya olasiz?
14. Portret evfemasi nima?
15. Badiiy evfema deganda nimani tushunasiz?
16. Publitsistik evfema qanday holatlarda qo‘llaniladi?

FOR AUTHOR USE ONLY

## AMALIY MASHG‘ULOT UCHUN MASHQLAR

**1-mashq.** Gaplardagi ko‘chma ma’noli birliklarni aniqlang. Bu birliklar ifodalaydigan denotatlarning asl tushunchasini toping. Ko‘chma ma’noli birliklarni ikkiga ajrating: a) denotatni “yumshoq” ifodalagan birliklar; b) uslubiy bo‘yoq uchun foydalilanlgan birliklar. Birlikning ma’noni “yumshoq” ifodalashi sababini tushuntiring.

**1.** *Bunga o‘xshagan bir kam yuzlar boplayapti-da, jamiyatni.* (S.Ahm.) **2.** *Sotiboldining xotini og‘rib qoldi.* (A.Qah.) **3.** *Yopiqliqda kun kechirish azobini mendan so‘rang.* (Shukr.) **4.** *O‘rtoqlarim yuraksiz yigitlar emas, bu yog‘idan xotirjam’ bo‘lingiz.* (A.Qod.) **5.** *Bu qiz ne-ne orzu-umidlar bilan u bilan bir yostiqqa bosh qo‘ydi.* (A.Juma.) **6.** *Bu kishi kimingiz? – deb so‘ragan savoliga javob topishga ulgurmagan edim, o‘zi yordam qildi: – Ahliyatingizmi ? – Ha, ahliyatim deb qutuldim.* (Cho‘lp.) **7.** *Hozir yana uning bo‘yida bo‘lgan, uch oydan keyin farzand tug‘ilishi kerak.* (P.Q.) **8.** *O‘g‘rililar esa bahuzur “ish”ni davom ettirdilar.* (A.Qod.) **9.** *Stolning ustiga tentak suvni keltirib qo‘ydi.* (S.Siyo.) **10.** *Nurmatjon magazindan aroq olganida, “uyga borib, yonboshlab maydalayman”, deb o‘ylagan edi.* (S.Ahm.)

**2-mashq.** Berilgan gaplardagi evfemik ma’noli birliklarni aniqlang. Bu birliklarni quyidagi belgilari asosida tasniflang: a) ma’no ko‘lamiga ko‘ra: monosemantik evfemik birlik, polisemantik evfemik birlik; b) leksik-semantik munosabatiga ko‘ra: shakldosh, ma’nodosh, zid ma’noli; v) shakliga ko‘ra: so‘z (ibora) shaklidagi evfemik birlik, birikma shaklidagi evfemik birlik, gap shaklidagi evfemik birlik.

**1.** *Soqoliga oq tushgan Dehqon ota minarda.* (H.Olim.) **2.** *O‘tirganlarning hammasi oq ichishdi.* (Mirm.) **3.** *Xumsa semizing keldi-kettini faqatla oqsoqol bilan sug‘orar ekan.* (A.Qod.) **4.** *Bugun yoshi oltmishning nari berisida bo‘lgan yoki umri vafo qilmay hayotdan ko‘z yumgan “ikkinchi avlod” deb atalmish oqsoqollarimiz haqida gapiramiz.* (O‘.Hosh.) **5.** *O‘zingizga ma‘lum, 6 yildan beri keliningiz bilan... Endi almashtiray desam, bir yog‘i SHamsi akamlarga qarindosh.* (N.Amin.) **6.** *Jo‘n odamlar qatorida odam o‘ldirib yurdim, degin?* (A.Qod.) **7.** *Salimxonning yoniga cho‘kkalab, – zanjirni shiqirlatsam ham, devorni yiqitib kirsam ham, erta-indin to‘rtta soldat oldiga tushamiz.* (A.Qah.) **8.** *Ha, o‘sha SHonazar aka besh yil olibdi.* (N.Amin.) **9.** *Xonim, muborak bo‘lsin, qizingiz o‘ng‘aygina qutildi, o‘g‘ilgina ekan.* (M.Koz.) **10.** *Men seni halol yo‘ldosh qilaman degan edi.* (CHo‘lp.)

## **SEMINAR MASHG‘ULOTI**

### **Reja:**

- 1.Tilshunoslikda evfemizmlarning o‘rganilishi haqida.
- 2.Evfemik ma’noli birliklarning tasnifi masalasi.
- 3.Badiiy matnda evfemik ma’noli birliklarning qo’llanilishi.

### **Seminar mashg‘ulotida qo‘yilgan masalalarga tayyorlanish uchun uslubiy tavsiyalar**

**1-masala.** Evfemizm haqida. Evropa tilshunosligida evfemizmlarning o‘rganilishi. O‘zbek tilshunosligida evfemizmlarning o‘rganilishi. N.Ismatullayevning qarashlari. A.Omonturdiyevning ishlari.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarning izohli lug‘ati. — T.:Fan, 2002. – B. 146.
2. Omonturdiyev A. O‘zbek nutqining evfemik asoslari. – Termiz: NS, 2000. – 128 b.
3. Omonturdiyev A.J. O‘zbek tilining qisqacha evfemik lug‘ati. – T.: Fan, 2006. – 134 b.
4. Qodirova X.B. Abdulla Qodiriy asarlarida qisqacha evfemik va disfemik ma’noli birliklari lug‘ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – B. 64.
5. Mirtojiyev M. O‘zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent, Mumtoz so‘z, 2011, B.119127-
6. Qodirova X.B. Abdulla Qodiriyning evfemizm va disfemizmlardan foydalanish mahorati: Filol.fan.nom. ...diss. – T., 2012.

**2-masala.** Lisoniy tasnif haqida. O‘rganish ob’ektining serqirraligi va tilshunoslikda evfemizmlarni tasniflash muammosi. Evfemizmlarni tasniflashda tasnif belgisini tanlash masalasi. O‘zbek tili evfemizmlarini mavzuviy tasniflash masalasi. O‘zbek tili evfemizmlarini semantik tasniflash masalasi. O‘zbek tili evfemizmlarini struktur tasniflash masalasi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Ismatullayev N. O‘zbek tilidagi evfemizmlar va ularning klassifikatsiyasiga doir // O‘zbek tili va adabiyoti, 1964. — № 1. – B. 57.

2. Omonturdiyev A.J. Professional nutq evfemikasi. – Toshkent: Fan, 2006.
3. Qodirova X.B. Shaxsni anglatuvchi evfemik vositalar // XX asrda shaxs kamoloti muammolari. – Toshkent, – 2010 yil, 17 fevral, B.163165-
4. Omonturdiyev A.J. Evfemik omonimiyaga doir // Tilshunoslikning dolzarb masalalari. 1-qism. – T.: Universitet. 2002. – B. 70-73.
5. Shamsiddinov H. So‘zlarning evfemik funksional-semantik sinonimlari // O‘zbek tili va adabiyoti, 1997. – B. 22-25.
6. Qodirova X.B. Abdulla Qodiriy ijodida evfemik omonimiya // Ayyub G‘ulomov va o‘zbek tilshunosligi masalalari (Ilmiy maqolalar to‘plami), – T., Universitetet, 2009, – B. 87-90.
7. Mirtojiyev M. O‘zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent, Mumtoz so‘z, 2011, B.119127-
8. Qodirova X.B. Ma’nodosh evfemalar // Ayyub G‘ulomov va o‘zbek tilshunosligi masalalari (ilmiy to‘plam). – Toshkent, 2010 yil, B. 7577-

**3-masala.** Badiiy evfemizm badiiy mahorat mahsuli sifatida. Evfemizmlarda milliy mentalitetning namoyon bo‘lishi. Atoqli adiblarning evfemizmlarni qo‘llash xususiyatlari. Publitsistik evfemiya haqida. Publitsistik evfemiyada shaxs tavsifi. Tarixiy shaxslarga nisbatan qo‘llangan evfemizmlar.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

- 1.Shamsiddinov H. So‘zlarning evfemik funksional-semantik sinonimlari // O‘zbek tili va adabiyoti, 1997. – B. 22-25.
- 2.Qodirova X.B. Abdulla Qodiriyning evfemizm va disfemizmlardan foydalanish mahorati: Filol.fan.nom. ...diss. – T., 2012.
- 3.Omonturdiyev A.J. Professional nutq evfemikasi. – Toshkent: Fan, 2006. – B. 65.

## ADABIYOTLAR

### Asosiy adabiyotlar

1. Ismatullayev N. O‘zbek tilidagi evfemizmlar va ularning klassifikatsiyasiga doir // O‘zbek tili va adabiyoti, 1964. — № 1. – B. 57.
2. Ismatullayev N. Evfemizmlarning lug‘at sostavini va so‘z ma’nolarini boyitishdagi ahamiyati // ToshDPI ilmiy asarlari, 1964. 2–kitob. – B. 3-12.
3. Mengliyev B., Sayfullayeva R. va boshq. Milliy tilshunoslik mustaqil rivojlanish yo‘lida // Ma’rifat, – 2007, – 21 may.
4. Omonturdiyev A. O‘zbek nutqining evfemik asoslari. – Termiz: NS, 2000. – 128 b.
5. Omonturdiyev A.J. Professional nutq evfemikasi. – Toshkent: Fan, 2006. – B. 65.
6. Omonturdiyev A.J. O‘zbek tilining qisqacha evfemik lug‘ati. – T.: Fan, 2006. – 134 b.
7. Omonturdiyev A.J. Evfemik omonimiyaga doir // Tilshunoslikning dolzarb masalalari. 1-qism. – T.: Universitet. 2002. – B. 70-73.
8. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: FTM, 2009.
9. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarning izohli lug‘ati. — T.:Fan, 2002. – B. 146.
10. Shamsiddinov H. So‘zlarning evfemik funktsional-semantik sinonimlari // O‘zbek tili va adabiyoti, 1997. – № 6. – B. 22.
11. Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo‘ng‘urov R., Rustamov H. O‘zbek tili stilistikasi. — Toshkent: O‘qituvchi, 1983. – B. 148.
12. Qodirova X.B. Abdulla Qodiriy ijodida evfemik omonimiya // Ayyub G‘ulomov va o‘zbek tilshunosligi masalalari (Ilmiy maqolalar to‘plami), – T., Universitetet, 2009, – B. 87-90.
13. Qodirova X.B. Abdulla Qodiriy asarlarida qisqacha evfemik va disfemik ma’noli birliklari lug‘ati. – Toshkent: Yangi asr avlodи, 2009. – B. 64.
14. Qodirova X.B. Abdulla Qodiriyning evfemizm va disfemizmlardan foydalanish mahorati: Filol.fan.nom. ...diss. – T., 2012.
15. Qodirova X.B. Ma’nodosh evfemalar // Ayyub G‘ulomov va o‘zbek tilshunosligi masalalari (ilmiy to‘plam). – Toshkent, 2010 yil, B. 7577-

16. Qodirova X.B. Shaxsni anglatuvchi evfemik vositalar // XX asrda shaxs kamoloti muammolari. – Toshkent, – 2010 yil, 17 fevral, B.163165-

17. Mirtojiyev M. O‘zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent, Mumtoz so‘z, 2011, B.119-127

### **Qo‘sishimcha adabiyotlar**

1. Артюшкина Л.В. Семантический аспект эвфемистической лексики в современном английском языке: Дисс...канд. филол. наук. – М., 2002. – 157 с.
2. Бердова Н.М. Эвфемизмы в свете теории вторичной номинации. Дисс... канд. филол. наук. – М., 1998. – 148 с.
3. Исматуллаев Н. Эвфемизмы в современном узбекском языке: Автореф. дис... канд. филол. наук. – Т., 1963. – 19 с.
4. Крысин Л.П. Эвфемизмы с современной русской речи. Русский язык конца столетия. – М.: ЭКСМО, 1996. – 432 с.
5. Москвин В.П. Эвфемизмы в лексической системе современного русского языка. – М., 2007. – 264 с. // <http://urss.ru/cgi-bin/db>
6. Омонтурдиев А.Ж. Бир сўз луғати. – Термиз: Жайхун, 1996. – 45 б.
7. Потапова Н.М. Краткий обзор некоторых исследований эвфемизмов. Язык, сознание, коммуникация: Сб. статей / Отв.ред. В.В.Красных, А.И.Изотов. – М.: МАКС Пресс, 2007. – Вып. 34. – с. 108-110.
8. Сат Ш.Ч. Табу и эвфемизмы в тувинском языке // Советская туркология. – Баку, 1981. – С. 266-268.
9. Шахжури К.К. Эвфемизмы и их роль в изменении значения слов: Автореф. дисс...канд. филол. наук. – Тбилиси, 1956. – 17 с.
10. Кадирова Х.Б. Классификация эвфемистических средств по семантическому объёму // Вестник науки и образования. – Москва. «ПРОБЛЕМЫ НАУКИ» № 23 (77). Часть 1. С. 39-43  
<https://cyberleninka.ru/article/n/klassifikatsiya-evfemisticheskikh-sredstv-po-semaniticheskому-obyomu/viewer>

## 2-ma’ruza

### DISFEMIZMLAR

#### Reja:

1. Disfemizmning o‘rganilish tarixi
2. Disfemizmning tasnifi
3. Disfemik ma’noli birliklarning qo‘llanish xususiyatlari

**Tayanch tushunchalar:** *disfemizm, jargon, argo, mavzuviy tasnif, struktural tasnif, so‘z-disfema, birikma-disfema, gap-disfema, ma‘nodosh-disfema, shakldosh-disfema, zid ma‘noli-disfema, monosemantik disfema, polisemantik disfema, disfema qo‘llash mahorati, badiiy disfemizm, siyosiy tushuncha disfemizmi*

**Disfemizmning o‘rganilish tarixi.** Evfemizmning aksi hisoblangan disfemizm hodisasi ham qadimdan mavjud bo‘lgan bo‘lsa-da, evfemizmdan farqli o‘laroq, kam o‘rganilgan. Buning sababini esa, yuqorida aytiganidek, madaniy muloqot me’yorlaridan izlash muhim. Chunki ular badiiy adabiyotda, madaniy muloqot muhitida odob nuqtai nazaridan berilishi mumkin bo‘lmagan birlik sifatida qaralgan. Odatda, tilshunoslikka oid lug‘atlarda disfemizm xususida alohida to‘xtalinmay, unga evfemizm bo‘limida yo‘l-yo‘lakay izoh berilib ketiladi. Bunga misol sifatida V.N.Yarseva tahriri ostida chop etilgan “Лингвистический энциклопедический словарь”ни olish mumkin. Unda evfemizm xususida so‘z ketganda yo‘l-yo‘lakay “uslubiy va emotsiyal betaraf so‘zni nisbatan ko‘pol, noqulay so‘z bilan almashtirish” deya ta’riflanadi va унасть со‘зining disfemizmi sifatida загреметь, заплакать со‘зining disfemik varianti sifatida *расконливаться, о‘lmоq* со‘зining disfemik ko‘rinishi sifatida *сыграть в ящик* birikmasi beriladi.

Dastlab, Ovrupo tilshunoslari e’tiborini tortgan ayni hodisa Vidlak, Jelvis, Katsev, Speygal, Allan, Giezek kabi olimlarning ishlarida o‘z aksini topadi. Ularda ta’kidlanishicha, disfemizmlarning evfemizm bilan o‘xhash tomoni shundaki, denotatga ma’lum konnotativ mazmun yuklaydi, til sathida sinonimik qatorni tashkil etadi, evfemizm bilan birdek qadimiy jarayon hamda nutqiy hodisa sifatida qaraladi.

Disfemizmga O.S.Axmanovaning “Tilshunoslik atamalari lug‘ati” deb nomlanuvchi lug‘atida qisqacha izoh berib ketiladi. “Disfemizm (kakofemizm) *isp. disfemismo*. Trop. muayyan matndagi predmet, narsa-

hodisa nomini nisbatan qo‘pol, vulgar ifoda bilan almashtirish. Ziddi: *Evfemizm...*”

Disfemizm ikkinchi jahon urushidan keyingina turli illatlar (giyohvandlik, fohishabozlik, o‘g‘rilik, etimlik) avj olgach, evfemik birliklar qatorida nutq sathida etarli darajada o‘z o‘rniga ega bo‘la boshlaydi va tilshunoslik tadqiq manbaiga aylanadi.

D.Lourens va boshqa tadqiqotchilar tomonidan so‘z erkinligi va ochiqlik yoqlanar ekan, ularning foydali tomonlari ta’kidlanadi. Masalan, noxush tushuncha qanchalik berkitilsa, shunchalik qiziqarli bo‘lishi, yomonlikni taqiqlagan sayin unga e’tibor kuchayishi va samarasini teskari bo‘lishi mumkinligi e’tirof etiladi. Bu esa, o‘z-o‘zidan, ma’lum ma’noda evfemizatsiyaning qisqarishiga olib keladi. Shuning uchun ham keyingi paytlarda disfemizm mavzusi yuzasidan Evropa mamlakatlari tadqiqotchilari tomonidan birmuncha ishlar qilinayotganligi ko‘zga tashlanadi. Jumladan, A.N.Reanova ingliz tili disfemizmlarini o‘rganar ekan, disfemizm tarixi, badiiy nutqdagi vazifalari, leksik-semantik tahlili va tasnifini amalga oshiradi. Disfemizmga ham asosan nutqda ro‘y beradigan nolisoniy omil sifatida qarash lozimligi, u denotat salbiy ta’sirining kuchayishi ekanligi e’tirof etiladi: “Disfemizm – denotatni (tahqirlovchi, u yoki bu tarzdagi oftenkali) salbiy bo‘yoqdor so‘z bilan ifodalash.” Shuningdek, T.V.Boyko, T.S.Bushuyevalar disfemizmni evfemizm bilan yonma-yon tadqiq etadilar.

Muayyan millatning yashash tarzi, etnik taraqqiyoti, tarixiy davri bilan bog‘liq ravishda til va nutqda shakllangan birliklar tadqiqiga bag‘ishlangan ishlarda ham ma’lum ma’noda disfemiya xususida alohida bo‘limlar ajratilib, uning mohiyati, leksik qatlami, nutqiy xususiyati tavsiflangan. Bu ham bo‘lsa, XXI asrning ilk davrlarida himoya qilingan ishlarda kuzatiladi. Masalan, O.V.Potapova belorus, rus va polyak xalqi tilining XIX asrlardagi etnik qolipini o‘rganar ekan, shunday yozadi: “Etnonominatiya muhitida leksemalarning uslubiy farqlanishi muhim rol o‘ynaydi. Aynan “etnik jamoaga xoslik” ma’noli leksemaga muayyan bo‘yoq berish ushbu LSG ichida sinonimlar vujudga kelishiga sabab bo‘ladi. Bunda ikki usul qo‘llanadi: evfemizatsiya va disfemizatsiya” deb hisoblaydi.


I.P.Pasechnikova hozirgi nemis tilida urush va tinchlik tushunchalarining mohiyati xususidagi tadqiqot ishida ham evfemizm va disfemizmlarga to‘xtaladi: “Urush va tinchlik qutbiy fenomenlarining baho kategorizatsiyasi sub’ektning o‘z va begona arxetipik sotsiomadaniy ziddiyatiga mo‘ljali bilan shartlangan bo‘ladi. Funktsional

planda muayyan vaziyatdagi urush va tinchlik bahosi ambivalentligi bo‘lishi mumkin. “Sotsial yovuzlik”ning “yaxshilanishi” yoki yomonlashuvi”ni ta’minlaydigan evfemizatsiya va disfemizatsiya shaklidagi tadqiq dixotomiyasida baho variatsiyasida elementlarning negativ komponentga munosabati istisno qilinmaydi.»

Milliy mentalitet ifodasida evfemizmga bo‘lgan ehtiyojdan nobop voqelik yoki shaxsni salbiy bo‘yoq bilan berish, haqiqatni ro‘y-rost tasvirlash istagi goh ustun kelib, qo‘pol, noo‘rin til birliklari bilan ma‘lum zamon nosoz siyosati, nomaqbul kishilari tanqid ostiga olinadi. Go‘yoki bu bilan ularga kuchli zarba beriladi, axloqiy mezonlar bilan muvofiqlashishga – tarbiyaga chaqiriladi.

Disfemizatsiya til birliklarining pragmatik ma’nosи bo‘lib, u evefmizatsiyaga zid turadi. Buning sababi – disfemizatsiya hodisasining ba’zan ijtimoiy, ba’zan esa individual sterotipler bilan bog‘lanishi. Disfemizatsiya leksemalarning nutqiy qo‘llanish differentsiatisiyasini ham keltirib chiqaradi. Bu esa, o‘z navbatida, kontekstual ma’nodoshlik qatorining boyishini ham ta’minlaydi. Matn, bog‘liq qurshov va nutqiy vaziyat ma’nodoshlik qatori muvaqqat a’zolarining shu qatordagi o‘rnini belgilovchi ijtimoiy omillarni mustahkamlovchi vositadir.

Badiiy nutqdagi disfemizatsiyani individual usul (priyom) sifatida baholash mumkin. Bu individuallik evfemiyadagi individuallikka nisbatan birmuncha ustuvorligi bilan xarakterlanadi. Faqat “pragmatika nuqtai nazaridan tegishli til vositasining evfemikligi yoki kakofemikligi kuzatuvchi (tinglovchi)ga bog‘liq bo‘ladi” (A.Dabrowska). Masalan, ko‘pgina evropa tillarida uchraydigan *fransuz kasalligi* (sifilis) evfemizmi boshqa til vakillari tomonidan evfemizm sifatida, ayrim etnik muhitda disfemizm sifatida qaralishi mumkin. *Швабы, французы, прусаки* atamalari “hasharot” ma’nosida ham evfemizm, ham disfemizm sifatida qabul qilinishi mumkin”. Zero, birliliklardagi disfemik ma’no faqat muayyan makon va zamon bilan bog‘liq holda yuzaga chiqadi va shu asosda idrok etiladi. Disfemik ma’no, evfemizmlarda bo‘lgani kabi asosan etnik stereotipler bilan bog‘lanadi va belgilanadi. Masalan:



Evfemizm deb qaralayotgan birlik kishida disfemik taassurot uyg‘otayotgandek tuyuladi. Bu – tabiiy. Polisemantik, ayni vaziyatda, insonga nisbatan qo‘llanilayotgan *it so‘zi* har ikki holatda ham haqoratni bildiradi. Bu esa disfemizmning shartlaridan biri. Biroq, davr muhit, so‘zlovchi madaniyatidan kelib chiqib, shuni aytish kerakki, “harom bo‘lmoq” ma’nosini aynan ifodalash obraz xarakteriga mos bo‘lmaganidan *it tegdi* evfemik ma’noli birligi qo‘llanadi. Chunki o‘tgan asr boshidagi davr muhitida islom hukmron mafkura bo‘lgan bir sharoitda *harom bo‘lmoq* juda qo‘pol, o‘ta nohush ifoda sifatida qaralgan. Harom qilingan narsa shariat arkonlariga muvofiq qattiq taqiqlangan, demak, bu so‘zni ishlatish ham evfemizatsiyani taqozo qilganligi haqida xulosa chiqarishga asos bo‘ladi. Unga nisbatan juda nozik bo‘lmasa-da, boshqa — aytish u darajada qiyin bo‘lmagan variantini qo‘llash ehtiyoji tug‘ilgan bo‘lsa, ajab emas. Ikkinchisida ham aytishga tili bormaslik holati mavjud, biroq bu o‘rinda O.V.Potapova ta‘kidlaganidek, insonning itga mengzalishi tinglovchi nuqtai nazarida disfemik taassurotli bo‘lishi mumkin. Bu o‘rinda disfemizatsiya stsenariysi bir necha bosqichdan iborat ekanligiga e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. *Birovni majbur qilishi* – vogelikning asl atamasiga nisbatan evfemik libos, biroq *birovning nomusiga tegishi* birikmasiga nisbatan esa disfemik, *nomus buzilgan* birikmasiga nisbatan *it tekkан* iborasi disfemikdir. Ko‘rinadiki, garchi nutqiy xarakterga ega bo‘lsa ham, bir denotativ mazmun ifodalovchi evfemik va disfemik birliklarni o‘zaro qiyoslash asosida ularning nisbiy evfemiklik va disfemiklik qiymati baholanadi. Demak, mazkur birliklarga munosabat bildirganda nisbiylik tamoyiliga tayanish maqsadga muvofiq.

**Disfemizmlarning tasnifi.** Disfema – denotatga subyektiv munosabatning manfiy tomonga ketishi bilan bog‘liq pragmatik hodisa. Bu, albatta, unga adabiy tilda o‘rin yo‘q deyishga asos bo‘la olmaydi. Disfemik ma’noli birliklardan tinglovchida voqelik yoki shaxs haqida kuchaytirilgan salbiy taassurot qoldirish uchun foydalaniladi, biroq bu holat uni shu jihatdan o‘rganishga, tahlil va talqin etishga, qolaversa, tasnif etishga asos yo‘qligini, maqsad noma'lum ekanligini, ehtiyoj sezilmasligini ko‘rsatmaydi. Muammo shundaki, haqiqatan ham, disfemizm mutlaq alohida birliklar tizimi emas, bunday birliklarning disfemik qiymati nutqiy, u evfemizm bilan bir sistemada, shu bilan birga, unga qarama-qarshi – zid vosita sifatida qaraladi.

Disfemizm tasnifi tilshunoslik sohasida ayrim ishlardagina amalga oshirilgan. Masalan, inglez tilida disfemizm leksik-semantik jihatdan quyidagicha tasnif qilinadi:

- o‘lim, kasallik, jismoniy va ma’naviy nuqsonlarni bildirib keluvchi disfemizmlar;
- keng doiradagi jinoiy guruhlar bilan bog‘liq disfemizmlar;
- inson nuqsonlari bilan bog‘liq disfemizmlar;
- millatga mansub disfemik nomlar;
- xudo, iblis (shayton), cherkov marosimlari bilan bog‘liq disfemizmlar.<sup>1</sup>

Shuni aytish kerakki, uning ham evfemizm kabi mavzuiy guruhlari, leksik-semantik yo‘nalishlari, ijtimoiy-tarixiy kelib chiqishga ko‘ra turlari mavjud.

Disfemizmlar evfemizmlar bilan munosabatdosh bo‘lganligi sababli, ular tasnifida ham evfemizmlar tasnifidagi kabi ayrim omillar tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

**Disfemik ma’noli birliklarning mavzuiy guruhlari.** Disfemik ma’noli birliklar kam va shu jihatdan uning mavzuiy guruhlari doirasida ham asosan so‘kish, haqorat, qarg‘ish, kinoya, masxara tushunchalarini ifodalovchi vositalar bilan chegaralanadi.

**So‘kish va haqoratni ifodalovchi disfemik ifodalar.** Ayol kishiga nisbatan aytildigan *sochi uzun, aqli qisqa* iborasida asosidagi *aqli qisqa* disfemik ma’noli birligi xarakterli ahamiyatga ega. Qo‘shtirnoq ichida berilayotgan birikma ahmoq, farosatsiz, omi ayollarni haqorat qilishda ishlatilgan bo‘lib, shaklga kirgan iboraning qisqargan variantidir. Masalan, *Kelin ko‘rib yurgan va kelin bo‘lg‘an «aqli qisqa» xotun-qizlarning o’takasini yorib, nechtalarining bolalarini tushirdi.* (A.Qod. «Mahkamai shari’iyada holva talqon masalasi»)

*Aqli tushdan keyin kirgan* (masalaning mohiyatiga kech tushunadigan) iborasida “ahmoq”, “omi”, “farosatsiz” tushunchalarining yangi talqindagi disfemik shakli aks etadi. Ayni tushunchaning *po‘kak bosh* ifodasi ham haqoratni anglatib keladi. Bir qarashda *po‘kak bosh* yuqoridaqgi birliklar kabi voqelikning boshqa ifodasi bo‘lganligi sababli evfemik qiymatga egadek tasavvur uyg‘otadi. Holbuki, *ahmoq* insonning belgisi, *po‘kak esa* jonsiz narsa ekanligi, insonning jonsiz narsaga qiyoslanayotganligi uning disfemikligini ko‘rsatadi. SHuningdek, *it so‘zining o‘zi* ham “badfe’l”, “badxulq” tushunchalarini bergani bois,

<sup>1</sup> Резанова А.Н. Дисфемия в английском языке: семантические механизмы и pragматические функции: Автореф... канд. филол. наук. — Санкт-Петербург, 2008. — С. 20.

ayni ifoda turli ko‘rinishlarda qo‘llaniladi, masalan, matn ichida *it emgan, it, itbachcha, itlanish, it-mushuk, sakibedum* kabi vositalar badiiy obraz nuqtida haqorat sifatida namoyon bo‘ladi.

**Qarg‘ish anglatuvchi disfemik ifodalar.** Qarg‘ish o‘z-o‘zidan disfemik kayfiyat uyg‘otadi. “O‘l” tushunchasiga nisbatan qo‘llanilgan *aptidan buzilsin, joyi jahannamdan belgilanadir, joying jannatda bo‘lsin, ikki yuzi qaro bo‘lsun* kabi ifodalar birmuncha yumshoqroq, qaysidir ma’noda “o‘ralgan”roq ekanligi xususida evfemizm xususida so‘z ketganda fikr bildirilgan edi. Biroq *harom qotsin, go‘rso‘xta* ifodalarida *harom* va *go‘r* so‘zlari mavjudligi tufayli va ma’lum davr muhiti nuqtai nazaridan qo‘polroq bo‘lganligi sababli disfemik ifoda sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, *qaqshag‘ir, uying kuysun, labi bichilmay o‘lsin, xumpar* kabi disfemik ma’noli, qarg‘ishni anglatuvchi ifodalar *xudobexabar, yuzi qaro, uvoli tutsin, oqpadar* kabi evfemik ma’noli qarg‘ish ifodalariga nisbatan qo‘pol ottenkaga ega.

**Mazxara, kinoya anglatuvchi disfemik ifodalar.** *Qo‘tir itning keyingi oyog‘i bo‘lmoq* (hech narsaga arzimaydigan odam): «*Qalam guftoki...»ning shoiri to‘ng‘uz qo‘psachi, mani etti yildan beri bekorga sarson va sargardon qildi, harom tukimga turmaydig‘an hashpara maxsimlar yorug‘ dunyo orzu havasining arshi a‘losigacha borib etkanlarida, man qo‘tir itning keyingi oyog‘i ham bo‘lolmadim.* (A.Qod. «Maslaku maqsaddan shammai izhor (ozgina arz)»)

Ma’lumki, *homilador* ifodasining asosan hayvonlarga nisbatan qo‘llaniladigan *bo‘g‘oz* ifodasi hech qanday bo‘yoqqa ega emas. Biroq ayrim hollarda u insonlarga nisbatan ishlatilib, disfemik mohiyat kasb etgan. Masalan: *Bu erdag‘i bolalari ahvollaridan so‘rasalar, alhamdulilloh, ular ham erkagu urg‘ochi, bo‘g‘ozu qisr degandek o‘ynab-kulib yuriydirlar.* («Maskov xatlari», Diyori bakr – 219)

**“Aytmagan joyga yo‘nmagan tayoq”** ham bo‘lib oladirlar (chaqirilmagan mehmon), *allaqaysi go‘rga qochdi* (o‘zini olib qochdi; chetga oldi), *maymunlik* (ikkiyuzlamachilik) kabi iboralar tarkibida *tayoq, go‘r* birliklari qo‘llanilganligi hamda hayvon xarakterida mavjud fe’lning insonga nisbatan ishlatilganligi tufayli disfemik ibora sifatida qaraladi.


“O‘tkan kunlar” romanida atrofdagilarning Otabekka nisbatan masxaraomiz kayfiyati tasavvuri quyidagicha tasvirlanadi: *Ul birinchi so‘roqdayoq — «uchib qo‘nib qabul qilamiz» deb javob bermakchi bo‘lsa ham, biroq xalqning «o‘lib turg‘an ekan» deb qiladigan*

*ta’nasidan cho ‘chib javob bermaydir.* (O’tkan kunlar – 56) Bu o‘rinda “o‘l” tushunchasidan foydalanilganligining o‘ziyoq disfemik kinoyani yuzaga keltiradi.

**Disfemik ma’noli birliklarning leksik-semantik munosabatlar asosidagi tasnifi.** Disfemik ma’noli birliklar o‘zaro leksik-semantik munosabat ham hosil qiladi. Ayniqsa, ular sirasida nutqiy xarakterdagi ma’nodoshlik, zid ma’nolilik holatlari ko‘proq kuzatiladi.

**Ma’nodosh disfemik birliklar.** Ma’lumki, siyosiy tushunchalar muhit bilan bog‘liq holda nafaqat evfemik, balki disfemik shaklda xalq nutqida o‘z aksini topgan. Ifoda evfemik xususiyatiga ega bo‘lgani holda ba’zan ular qo‘shtirnoq ichida berilgani kuzatiladi. Bu esa ularning, o‘z o‘rnida, teskari mazmunni ifodalashini ko‘rsatadi. Semantik nuqtai nazardan disfemiya denotatni salbiy munosabat asosida atashni o‘zida aks etiradi. Masalan, Abdulla Qodiriy salbiy munosabatini ifodalash maqsadida xonning o‘zini obrazlar nutqidan turli disfemik birliklar (“*adolatpanoh*”, “*soyaboni marhamat*”) orqali ifodalaydi: *Hayhot, bu razolatni Anvarning nafsi hazm qilolmag ‘anidek, «adolatpanoh»ning ham bu to‘g‘rida «marhamat»lari shubhalik.* (A.Qod. “Mehrobdan chayon”). Bu o‘rinda matn mohiyatidan kelib chiqib, *adolatli emas demoqchi* bo‘linayotgani ravshan, **«Soyaboni marhamat»** vijdon kengashiga quloq solg‘uchi **«ahmoq»**lardan emasdir. (A.Qod. “Mehrobdan chayon”) gapida Xudoyorxonning soyaboni marhamatligi shubha tug‘dirishi nashrda qo‘shtirnoq ichida berilganligi bilan belgilanayotir.

*Xudaychi qulluq qilgan ko‘yi orqasi bilan yurib, birinchi xonaning dahliziga keldi va dahlizda kutib turg‘an Anvarni **«huzuri muborak»** sari yo‘lg‘a soldi.* (A.Qod. Mehrobdan chayon) Bu jumlada Anvarning xon huzuriga borayotganligi tufayli “*huzuri muborak*” disfemik birligidan o‘z o‘rnida foydalanilgan. Shuningdek, adibning Xudoyorxonga tegishli *janobi oliv* disfemik birligi ham matn ichida vaziyatga bog‘liq holda keladi: *Xon hali ichki o‘rdadan chiqmag ‘an, hamma ra’iyat **«janobi oliv»**ni kutib muhtasham darbozagaga ko‘z tikkanlar edi.* (Mehrobdan chayon – 146)



Demak, disfemik birliklar kinoyaviy asosda bo‘lib, nashrda qo‘shtirnoq ichiga olinishi bilan ham xarakterlanadi. Masalan, “*Soyaboni marhamat*” qo‘shtirnoqsiz evfemik vosita bo‘lishi mumkin edi. Evfemiyada so‘zlovchi fikrida ijobiy munosabatni hosil qilish yoki salbiy munosbatni yumshatish mayjud bo‘ladi. Aynan shu munosabat disfemiya va evfemiyani farqlash uchun asos bo‘ladi. Xususan, bu siyosiy shaxs bilan bog‘liq tushunchalarda o‘z aksini topadi.

**Zid ma’noli disfemik birliklar.** Ushbu misolning o‘zida ikki disfemik ifodani antonimik munosabatga qo‘yanligini kuzatish mumkin: *Bu erdagи bolalari ahvollaridan so‘rasalar, alhamdulilloh, ular ham erkagu urg‘ochi, bo‘g‘ozu qisr degandek o‘ynab-kulib yuriydirlar.* («Maskov xatlari», Diyori bakr – 219)

Hayvonlarga nisbatan ishlatiladigan “bo‘g‘oz” so‘zi insonga nisbatan qo‘llanadi, shu o‘rinda “qisr” deya ayni ifodaning antonimik (“tug‘magan”) shakli berilib, ifoda ta’siri kuchayadi.

**Disfemik birliklarning ma’no qamrovi asosidagi tasnifi.** Disfemik birliklar ma’noviy ko‘lamni jihatidan ham o‘zaro farqlanadi. Ayrim disfemik birliklar faqat bir ma’noda qo‘llansa, boshqalari matn, qurshov talabi va ko‘magida turli ma’nolarni ifodalashi mumkin. Shunga ko‘ra, ma’no qamroviga ko‘ra disfemik birliklar monosemantik va polisemantik birliklarga bo‘linadi.

**Monosemantik disfemik birliklar.** Monosemantik disfemik ma’no yuklangan *po‘kak bosh, sakibedum, soqoling ko‘ksingga to‘kilsin, to‘ng‘izxona, qo‘tir itning keyingi oyog‘i, itdek qirgan, bola tashlar edi* kabi birliklar faqat bir disfemik ma’noda qo‘llanganligi bilan xarakterlidir.

**Polisemantik disfemik birliklar.** *Xumsa* ifodasi ham evfemik, ham disfemik bo‘yoqqa ega bo‘lishi kuzatiladi. Har ikkala voqelanish polisenmantik bog‘lanishga ega. Ulardan biri qo‘pol tushunchani yumshatish uchun xizmat qilsa, ikkinchi variantda, aksincha, kishiga nisbatan haqorat, qarg‘ish ifodalaydi, salbiy emotsiya uyg‘otadi.

**XUMSA 1 – disf.** lapashang. *Yuz martaba sizga aytib yotibman-ku, xumsani darbozadan chiqardim, tag‘in qanchag‘acha orqasidan borib to karvonlarga qo‘shilib ketkuncha kutdim, so‘ngra qaytib keldim, deb.* (O‘tkan kunlar – 236)

**XUMSA 2 – evf.** hezalak. *Binobarin, ularning o‘ynab kulishlariga rozi bo‘limg‘an odam xumsadir.* («Hoy, yer yutkur», Diyori bakr – 174). Albatta, bunda polisemantiklikning evfemik-disfemik xarakterda ekanligini ta’kidlash lozim.

Polisemantik disfemizmlarning metaforik, metonimik, sinekdoxik, vazifadoshlik asosdagi ko‘chma ma’no asosidagi ko‘rinishlari uchradi.

**Metaforik asosli disfemik birliklar.** Disfemik ko‘chimda metaforizatsiya muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, metaforik va metonimik nominatsiya alohida mavqega ega. Aksariyat disfemik birliklar insonni ko‘pincha biror hayvonga o‘xshatish asosidadir. YUqorida tahlil qilingan *it so‘zi bilan bog‘liq tushunchalarning zamirida aslida o‘xshatish yotadi: Birinchi may – butun dunyo mehnatkashlarining birlashkan bayrami, butundunyo ifloslarining bir-birlari bilan it-mushuk bo‘lib ajarashqan kunidir.* (A.Qod. «Birinchi may») Ma’no ko‘chishning bunday usuli adib asarlarining bir necha o‘rinlarida o‘z aksini topadi: *Ammo menga qolsa u xumpar (Otabekni aytadir) Marg‘ilonda xotini borlig‘ini ham unutib yuborg‘an, deb o‘ylayman.* (A.Qod. “O‘tkan kunlar”) Ismni yoki shaxsni anglatuvchi otning bu kabi disfemik haqorat shaklidagi varianti aksariyat hollarda salbiy qahramonlar tilida, nutqiy madaniyatsizlik natijasida yuzaga kelganligini ko‘rishimiz mumkin.

O‘xshatishning -dek, xuddi kabi vositalaridan foydalanish hollari ham mavjud: *Barakalla g‘ayratlariningizga, – dedi Azizbek, – bu kun qipchoqlag‘a rustamona javob berib, o‘zlarini ham itdek qirg‘ansiz.* (A.Qod. “O‘tkan kunlar”); *Bir vaqt osh-suvdan qutulib Norpochchaxonim minan bir piyola zaharni ichib o‘ltursam, eshikdan nortuyadek bo‘rtib ikkita yallachi o‘lgur kevotti.* (A.Qod. «SHarvon xola nima deydi»); *Ey-y, bolshevoyning uyi kuysun, hoji pochcha, xuddi tosh-metin, padar la’nati!* (A.Qod. «Tarovuz qo‘ltiqdan tushdi»)

**Metonimik asosli disfemik birliklar.** Biror tushunchani ifodalovchi birlikni tushirib, unga bog‘liq boshqa birlik asosida fikrni ifodalash disfemik birliklar hosil qilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, shaxsni o‘z nomi bilan emas, balki uning biror sifatini bildiruvchi so‘z bilan atash ham adib ijodida ko‘plab uchraydi: *Nekalay davrida turkistonliklar temiryo‘l cho‘chqalaridan qanday turtilgan-surtilgan bo‘lsalar, 23-yilda ham undan battaroq turtilabersunlar.* (A.Qod. «Tilak») Bu o‘rinda temiryo‘l nazoratchilari nazarda utilayotgan bo‘lsa-da, zimdan mustamlakachilar xususida fikr yuritilayotganligi anglashiladi. SHu ifodaning sinonimi hisoblanmish *to‘ng‘iz birligi ham yuqorida fikrni isbotlovchi mazmunni o‘zida aks ettirib kelganligini ham kuzatish mumkin: Bobolarning muqaddas gavdasi madfun (dafn qilingan) Turkistonimizni to‘ng‘uzxonasi qilishg‘a hozirlang‘an biz itlar yaratguchining qahrig‘a albatta yo‘liqarmiz.* (A.Qod. “O‘tkan kunlar”)

**Sinekdoxik asosli disfemik birliklar.** Bunda inson tanasidagi bir a'zo yoki shu a'zo ustida yuz bergen vogelik atamasi inson yoki insonni butunligicha qamrab olgan vogelikni ifodalanadi. Sinekdoxaning bir ko'rinishi hisoblanmish ayni jarayon *ko'zi chiqmoq* birligida o'z aksini topadi: *Hay-hay qanday yaxshi... bu dunyodan qadri yo'q musulmon og'a-inilarning u dunyoda bunday rohat bilan kun kechirishlariga hasad qilg'uchi kofirlarning ko'zi chiqsun.* (A.Qod. «Qurban bayrami») *Ko'zi chiqmoq* disfemik birligi qarg'ish kayfiyatini uyg'otishi bilan bir qatorda insonga o'lim tilashni ifodalaydi. *Ko'zi chiqib o'lsin* ifodasining qisqa varianti bo'lgan *ko'zi chiqsin* sinekdoxik asosli disfemik birlik sifatida namoyon bo'ladi. *Soqoling ko'ksingga to'kilsin* ifodasi ham sinekdoxik ko'chim asosidagi disfemik birlikka misol bo'la oladi.

**Vazifadoshlik asosidagi disfemik birliklar.** Abdulla Qodiriy ishlatgan *shung'iya* ifodasining kelib chiqishi ham uning asl vazifasi bilan bog'liq bo'lib, bu boshqa ekinlar ildizidan oziqlanadigan tekinxo'r yovvoyi o't ekanligiga ishoradir. Ishonchni oqlamaslik, noshud, xiyonatkor, birovlar hisobidan kun ko'radigan insonlarga nisbatan adibning ayni ifodasi haqiqatda vazifadoshlik asosidagi disfemik birlik sifatida namoyon bo'ladi: – *Qovun deb ekkanimiz shung'iya bo'lib chiqdi.* (A.Qod. «Mushtum tarifida»)

Shuningdek, *va'z o'qimoq, ayyuhannos solmoq* tushunchalarni anglatib keladigan *hangrashabermoq* disfemik birligi ham eshakning xatti-harakati bilan bog'liq: «*O'tkan 25-yil samovor — choyxonalarda Puchuqqori va kuchukqorilar patnus qo'lda, maqsad pulda hangrashaberib bizni juda bezor qildilar. Endi 26-yil, albatta, shu eshaklarni no'xtalab bersin!*» – deydi. (A.Qod. «Bo'lsun-bo'lmasun»)

**Disfemik birlıklarning shakliy strukturasiga ko'ra tasnifi.** Disfemik birliklar shakliy strukturasiga ko'ra ham farqlanadi. Ba'zan ayrim so'z, ba'zan birikma, ba'zan gap disfemik ma'no ifodalaydi. SHunga ko'ra, so'z, so'z birikmasi, gap shaklidagi disfemik ma'noli birliklar farqlanadi.

**So'z shaklidagi disfemik birliklar.** So'z shaklidagi disfemik ma'noli birliklarining ham aksariyati yuqorida aytganimizdek haqorat, qarg'ish shaklida. *Benavo, maymunlik, mochaxar, muttaham, oshharami, pes, sakibedum, singlitaloq, tirrancha, to'ng'izxona, xannos, xumpar, cho'chqa, shaytonxona, shung'iya, qaqshag'ir, hez* kabi birliklar shular jumlasidan. Ayrimlari mavjud tushunchaning Abdulla Qodiriy uslubiga xos bo'lgan yangicha ifodasi. Masalan, xalq tilidagi *zantaloq* forsiy birlikning adib asarlarida uchraydigan *singlitaloq* variantini ko'rishimiz

mumkin: *Safar bo‘zchi Mamatqulni to‘xtatib so‘radi: – O‘sha kim, o‘sha? – O‘sha-da, mulla emas, singlitaloq-da... O‘zingiz ham so‘ray beradi ekansiz-da!...* (A.Qod. “Mehrobdan chayon”) Biroq *zan* forschada *singil* degani emas, balki *xotin* ekan, Abdulla Qodiriy buning salbiy ta’sirini yanada oshirish maqsadida xotindan ham yaqinroq kishisi bo‘lmish singlisining taloq bo‘lishiga ishora qilib, shu birlikdan o‘rinli foydalanadi.

Forsiy leksik birliklardan foydalanilganini ko‘p o‘rinlarda ko‘rishimiz mumkin. *It* so‘zi o‘rnida ishlatalgan disfemik birliklar qatoridagi *sakibedum* ifodasida salbiy ottenka bir qadar yumshagandek, chunki shu hayvonning ona tilimizdagi ifodasi ancha qo‘pol eshitilishi bilan xarakterlanadi. Biroq *sak* so‘ziga qo‘shilib kelayotgan *bedum* birligi “kalta kiyangan, ochiq-sochiq, andishasiz, sharmanda, biroq bundan oz bo‘lsa-da uyalmaydigan” ma’nosini berib, disfemik xususiyat kasb etadi: *Ana o‘sha lapka ko‘targan sakibeduming ham to‘rtta go‘dagi bilan xotinini qo‘yipti, it emgan, endi bir tatarskasiga uylanar emish – hezalak!* (A.Qod. «Toshpo‘lat tajang nima deydi»)

**Frazeologik disfemik birlik.** Frazeologik birliklarda ham salbiy kayfiyat namoyon bo‘ladi. Bu alohida so‘z yoki so‘z birikmasi shaklidagi disfemik birliklardan ta’sir kuchining jarangdorligi, bir necha vositalarning yagona salbiy fikrni berishi, aksariyati xalq tilida mayjudligi bilan ajralib turadi. Ma’lumki, evfemik va disfemik birliklar individual xususiyatga ega. SHu ma’noda, ular nutqda turlicha tus olishi mumkin. Disfemizmlarni matn mohiyatidan kelib chiqqan holda **yangi to‘qima frazeologik-disfemik** birlik va **so‘zlashuv nutqida avvaldan mavjud frazeologik-disfemik** birliklarga ajratishimiz mumkin. To‘qima frazeologik-disfemik birliklar sirasiga *turmushning chirik joyi, aqli tushdan keyin kirgan, chandir kabi sakkiz tarafdan tishlanib* (A.Qod.) kabi ifodalar kiradi. Xalq tilida mavjud iboralarga masalan, *onasini uchqo ‘rg‘ondan ko‘rsatmoq, qumalog‘ini kaka deb yurgan* (ona suti og‘zidan ketmagan, g‘o‘r), *aytmagan joyga yo‘nmagan tayoq* (chaqirilmagan mehmon), *boshi yorilmasdan, ko‘zi chiqmasdan* (bekamu ko‘sht), *ikki qo‘lini burniga tiqib* kabi disfemik iboralar kiradi.

**So‘z birikmasi shaklidagi disfemik birliklar.** *Xaloyig‘i beparhez, qitiq pari o‘lмаган, qон ichida, jigar so‘xtalari, mag‘rur go‘dak, maorifga cho‘l xalq* kabi disfemik ma’noli birikmalar mavjud. Birikmaning bir unsuri ikkinchi qismiga salbiy ottenka berish bilan ta’sir ifodasini oshiradi. Biroq ayrim hollarda alohida qismi fikr nima haqida ketayotganligini bildirmaydigan disfemik birliklarni ham kuzatish

mumkin: *Mustamlakachilar* «*Tom tepkanga besh yong ‘oq – temmaganga qo‘y qumaloq!*» deb maymun o‘ymatqaylar. (A.Qod. «Nahs bosqan ekan») *Qo‘y qumaloq* disfemik birikmasining xalq nutqida mavjud bo‘lgan maqol tarkibida yo‘q tushunchisini bildirib kelganligini faqat kontekst ichida anglab olish mumkin bo‘ladi. CHunki *najas siyosat, hukumat bo‘rilari, «saylov» sichqonlari* kabi birikmalar ma’nosini anglab olish uchun matnga ehtiyoj sezilmaydi.

**Gap shaklidagi disfemik birliklar.** Badiiy nutqdagi ayrim disfemik ma’no butun gap orqali ifodalanadi. Bunday disfemik birliklarni gap holidagi disfemik birlik sifatida e’tirof etish mumkin: *uyi kuysin, shayton ali qoplag‘an, qitiq pari o‘lmagan, it tekkan*.

Nutq madaniyatida umuman salbiy taassurot qoldiruvchi maqollar sanoqli. Masalan, *Binobarin, aqlg‘a «qarg‘a qarg‘anинг ko‘zini cho‘qir ekanmi?» degan savollar keladir; janoblari shu iborani qanday tushundilar ekan*. (A.Qod. “Mehrobdan chayon”)

**Disfemik ma’noli birliklarning qo‘llanish xususiyatlari.** Aytiganidek, disfemizmlar evfemizmlar bilan voqelik yoki shaxsga munosabat belgisi asosida ziddiyatda bo‘lib, disfemizmni qo‘llashdan asosiy maqsad denotatga salbiy bo‘yoq berish va shu bilan axborot qabul qiluvchida salbiy munosabat uyg‘otishdir.

O‘quvchi his-tuyg‘ulariga ta’sir qilishda gazeta matnlari muhim rol o‘ynaydi. Zero, ommaviy axborot vositalari paydo bo‘lgandan buyon axborot berish asosida tashviqot-targ‘ibot vazifasini bajaradi. SHu ma’noda evfemizmlarda kommunikativ ziddiyatlardan qochish maqsadi ustuvorlik qilsa, disfemizmlarda uning aksi ko‘zga tashlanadi. Disfemizmlar ko‘proq publitsistik asarlarda uchraydi. Chunki bu kichik asarlar fel‘eton, hajviya va boshqa yumoristik janrdagi asarlar bo‘lib, ular, asosan, ommaviy axborot vositalarida, ya’ni gazeta va jurnallarda chop qilishga mo‘ljallangan. Bu esa dunyo tilshunosligida disfemizmlar ko‘proq siyosiy diskurslarda tahlil etilishi bilan ham belgilanadi. Disfemizmlarning ma’lum qismigina badiiy obraz yaratishida qo‘llangan bo‘lib, ko‘pchiligi voqelikka hajviy munosbat bildirilgan kichik asarlarda uchraydi. SHunga ko‘ra, ular shartli ravishda **badiiy** va **siyosiy** matnga xos disfemizmlar sifatida guruhlandi.

Ochiq ifoda etilishi muloqot xulqiga to‘g‘ri kelmaydigan tushunchalarni salbiy bo‘yoqli boshqa vositalar bilan qo‘llangan holatlar mavjud. Fikrimizcha, bu kontekst ichida disfemik ma’noli birlik sifatida aks etadi. Voqelik, shaxs yoki narsa haqida yorqin tasavvur uyg‘otish, shuningdek, o‘quvchida kuchli taassurot qoldirish hamda o‘zining

munosabatini ochiq namoyon qilish maqsadi disfemizmlardan o‘rinli va unumli foydalanishni ta’minlaydi.

**Badiiy matnga xos disfemizmlar.** O‘tkan kunlar asarining birinchi bo‘limida Homidning Rahmat Kumush to‘g‘risida so‘z ochgan vaqtdagi holatini quyidagicha bayon etadi:

- ...bir turlik vaziyatda er ostidan jiyaniga qaradi...
- ...Homid uni er ostidan ta‘qib etar edi...

*Ta‘qib etmoq* birligi hech qanday bo‘yoqqa ega emas, biroq, *er ostidan* so‘z birikmasida ma‘lum ma’noda buzg‘unchilik, g‘araz niyatlilik mulohazalari yashirinadi. Qolaversa, aynan salbiy obraz bo‘lganligi uchunmi, uning har bir harakati salbiy taassurot qoldiraveradi. Shuningdek, *kuzatmoq* so‘ziga nisbatan olinganda disfemik qiymati ortadi. Shu birlik ijobjiy obrazga nisbatan qo‘llanilganda bunday holatga duch kelmaymiz: *Ertalabki choy hozirlang‘an, Otabek homush o‘tirar, Hasanali esa uning holini ta‘qib etmoqda edi.* Yoki holis vaziyat yoritilayotganda ham o‘z ma’nosida, ya’ni bo‘yoqsiz shaklda uchratamiz: *O‘z og‘zidan eshitkanimizdek Sodiq uni, Homidning ta‘limoticha, Qo‘qon darbozasidan chiqib to karvonlarga qo‘silib olg‘uncha ta‘qib etib borgan edi.*

**Siyosiy tushunchalar disfemizmi haqida.** Gazeta va jurnal chop etilishining yo‘lga qo‘yilishi bilan har qanday publisist siyosiy hushyor va faol fuqaro sifatida publisistikaning etakchi vakillaridan biriga aylandi.

Ommaviy axborot nazariyasida bugungi kunda uning kommunikantga ta’siri samaradorligini oshirish usul va yo‘llarini ishlab chiqish bo‘yicha jadal ishlar olib borilmoqda. Siyosiy mavzudagi gazeta matnlarining ta’siri nuqtai nazaridan sub’ekt tomonidan muayyan kommunikativ maqsadlarga erishish uchun zarur lisoniy vosita va nutqiy faoliyatni tanlash masalasi ham amaliy, ham ilmiy nuqtai nazaridan hamma vaqtarda muhim bo‘lib kelgan. Bu esa publisistik asar muallifi tomonidan zakovat va mahorat talab qilgan.

Siyosiy mazmundagi diskursning axborot funktsiyasiga nisbatan ta’sir vazifasi har doim ustuvor bo‘ladi. Bunda ta’sir vazifasi nutqiy strategiya va nutqiy taktika orqali vujudga keladi. Disfemizmlar ko‘p hollarda salbiy munosabat strategiyasi asosida fosh qilish, ayplash, uyaltirish taktikasi orqali namoyon bo‘ladi. Buni chizmada quyidagicha berish mumkin:

Ta'sir vazifasi				
Ta'sir strategiyasi	Ta'sir taktikasi			
salbiy ta'sir qilish	fosh qilish	Uyaltirish	ayblash	tahqirlash

Diskreditlovchi nutq sub'ekti diskreditatsiya ob'ekti, uning harakati va qarorlariga nisbatan o'zining salbiy emotsiyal holatini bildiradi. Bu peyorativ bo'yoqli birliklar, xususan, disfemizmlar orqali amalga oshadi va tegishli shaxslar xatti-harakatlarini fosh qilish maqsadiga bo'ysundiriladi. Bu vazifani **ayblash** taktikasi bajaradi.

Har qanday neytral lisoniy birlik denotativ planda o'zgarishga uchrab, buning natijasida konnotativ aspekti ham o'zgarishi mumkin. Buni, albatta, matn ko'rsatadi.

Siyosiy matnlarda diskreditlash ob'ektini pastga urish va tahqirlash vazifasi tahqirlash taktikasi orqali amalga oshadi. Haqorat qilishda nafaqat qo'pol so'zni, balki me'riy leksikaga doir birlikni ishlatib, undan ko'proq samara olish mumkin.

Xalq orasida davr siyosati, davlat arboblari nomi disfemalashtirilganligini ayrim asarlaridan bilib olishimiz mumkin: *Jamoat biror foyda-zararni ajratuvchini saylovga qaror bersa, darrov hukumat va hukumat bo'rilari sapchiydilar.* (A.Qod. "Shodmarg"). Bunda o'sha davr amaldorlari bo'rige o'xshatilib, disfemik ma'no birikma shaklidagi, tasviriy ifoda ko'rinishidagi birlik bilan ifodalangan.

Ma'lumki, saylov – siyosiy jarayonlardan eng muhimi. Unda hukumat va fuqarolar munosabati yaqqol namoyon bo'lgan. Bugungi demokratik asoslardagi saylovlardan farqli o'laroq, o'tgan asr boshidagi siyosiy jarayonlarda, birinchidan, xalqning siyosiy ongi pastligi, ikkinchidan, amaldorlarning yangi, dunyoviy tipdagi davlat tuzumiga qarshiligi, saylov tizimining nobopligi kabi holatlar hamisha publisistlar diqqat-e'tiborda bo'ladi.

Siyosiy diskurs manipulyativ imkoniyati bilan alohida ajralib turadi. Bu, ayniqsa, kinoyaviy disfemizmlarning qo'llanishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Zero, siyosiy diskurs murakkab kommunikativ xarakterga ega bo'lib, u hokimiyat uchun kurashish maqsadiga ijtimoiy ongni shakllantirish asosida erishadi. Natijada matn verballahgan, kontekst situativ va sotsiokultur xarakterga ega bo'lib, maxsus til vositalari diskursning maqsad va vazifalariga bo'ysungan bo'ladi. Unda ijtimoiy ongni manipulyatsiya qilishning barcha vositalaridan unumli foydalanadi. Abdulla Qodiriyning "Qizil bayroq" gazetasida 1922-yil 28-aprelda bosilgan "Azob bog'chasida – yig'i-sig'i kechasi" deb

nomlangan “kichkina feleto‘n”ida kinoya asosidagi disfemik ifodalarning ko‘pini uchratish mumkin. Adib SHayxontohur tumanidagi hozirgi Abdulla Qodiriy bog‘i bilan tsirk binosi oralig‘ida joylashgan “Rohat boqchasi”ni “azob boqchasi”, undagi “qiziq kecha”larni teskari ma’noli ifoda – yig‘i-sig‘i kechasi birikmasi bilan ifodalashda ana shunday piryomlarni qo‘llaydi. Shuningdek, o‘zlarining kechaga borganlarida odmi kiyimlarda bo‘lganligiga “boqcha” xodimlarining salbiy munosabati natijasidagi holatini tanazzulda qolg‘onlig‘ birikmasi bilan kuchaytirib beradi. Albatta, bunda disfemik ma’no kinoyaviy asosda emas, balki shunchaki holatni salbiy tomonga kuchaytirish asosida berilgan.

Siyosiy tushunchalarni yopiq ifodalashda fonografik, leksik, morfologik va tekstual vositalardan foydalaniladi. Alliteratsiya, qofiya, tinish belgilari, metagrafik vositalar (qoraytirib yozish, tagiga chizish, bosh harflar bilan berish) bunda manipulyativ vositalar sifatida namoyon bo‘ladi. *Madaniyat boqchasining madaniy yigitlari*, “azob bog‘chasida – yig‘i-sig‘i kechasi”, “baba” kabilar bunga misol bo‘la oladi.

Umuman olganda, siyosiy disfemizmlar turli shakl va maqsadda ishlatalgan bo‘lsa-da, ular orasida tinglovchi yoki o‘quvchida salbiy taassurot qoldirish, voqelikni aslidan ko‘ra bo‘rttirish vazifasi ko‘zga alohida tashlanib turadi. Bunda disfemik ma’no ochiq yoki manipulyativ asosda ifodalananadi.

### **Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar**

1. Disfemizm nima?
2. Disfemizmning yondosh hodisalar bilan munosabati xususida gapiring.
3. Disfemik ma’noli birliklarni mavzuiy tasniflang.
4. Disfemizmning struktural tasnifi haqida nimalar deya olasiz?
5. So‘z-disfemaga misol keltiring.
6. Birikma shaklidagi disfemik birliklarga misol keltiring.
7. Gap-disfema xususida gapiring.
8. Ma’nodosh-disfema deganda nimani tushunasiz?
9. SHakldosh-disfemaga misol keltiring.
10. Qanday zid ma’noli disfemik birliklarni bilasiz?
11. Disfemik ma’noli birlikning ma’no ko‘lamiga ko‘ra qanday turlari bor?

12. Metaforik, metonimik, sinekdoxik, vazifadoshlik asosida ma’no ko‘chgan disfemik birliklar xususida gapiring.
13. Kinoya shaklidagi disfemizmga misol keltiring.
14. Disfema qo‘llash mahorati deganda nimani tushunasiz?
15. Badiiy disfemizm nima?
16. Siyosiy tushuncha disfemizmi haqida gapiring.

FOR AUTHOR USE ONLY

## AMALIY MASHG‘ULOT

**1-mashq.** Gaplardagi ko‘chma ma’noli birliklarni aniqlang. Bu birliklar ifodalaydigan denotatlarning asl ifodalovchilarini toping. Ko‘chma ma’noli birliklarni ikkiga ajrating: a) denotatni qo‘pol ifodalagan birliklar; b) bunday xususiyatga ega bo‘lmagan birliklar. Birlikning ma’noni qo‘pol ifodalashi sababini tushuntiring.

1. *Masalan, “O’rtoq Akmal CHO lponboining... she’ri bilan ziylolilarning aftiga tupurgani holda yana nima uchundir, “Hezlar tavba qilsa ularga firqaning qulog‘i ochiq”, deb qo‘yadir. (A.Qod.) 2. So ‘fi takbir tushirar ekan, maxdumning ko‘nglidan «Ra’noga cho‘ri qo‘sha ko‘rmasinlar-da, tishlik hayvonning bo‘lg‘anidan bo‘lmaq‘ani yaxshi» degan andisha kechti... (A.Qod.) 3. Ammo bul joy tilovatxona ermas erkan, shaytonxona erkan! (A.Qod.) 4. Bu kun kechasi Toshkand qon ichida, mahallalarda bo‘lg‘an hukumat kishilari xalq tomonidan o‘ldiriladilar, uylariga o‘t qo‘yilib mollari talong‘a tushadir. 5. Oyimning bir qiziq odati bor: har qachon yangiroq kiyim kiymakchi bo‘lsam, ko‘zini ola-kula qilib: «qaqshag‘ir, kir qilasan, to‘y-po‘yga borganda kiyarsan!» – deb qarg‘ay boshlaydi. (A.Qod.)*

**2-mashq.** Berilgan gaplardagi disfemik ma’noli birliklarni aniqlang. Bu birliklarni quyidagi belgilari asosida tasniflang: a) ma’no ko‘lamiga ko‘ra: monosemantik disfemik birlik, polisemantik disfemik birlik; b) leksik-semantik munosabatiga ko‘ra: ma’nodosh disfema, zid ma’noli disfema; v) shakliga ko‘ra: so‘z (ibora) shaklidagi disfemik birlik, birikma shaklidagi disfemik birlik, gap shaklidagi disfemik birlik.

1. *Kelin ko‘rib yurgan va kelin bo‘lg‘an «aqli qisqa» xotun-qizlarning o‘takasini yorib, nechtalarining bolalarini tushirdi. (A.Qod.) 2. Bu erdag‘i bolalari ahvollaridan so‘rasalar, alhamdulilloh, ular ham erkagu urg‘ochi, bo‘g‘ozu qisr degandek o‘ynab kulib yuriydirlar. (A.Qod.) 3. Gapka buncha chechan bu haromilar. (A.Qod.) 4. To‘vba, bu avlodning bir zuvolasi haromdan, Xamfabuvi, Norpochchani o‘zi qurib ketkurniyam shayton ali qoplag‘an. (A.Qod.) 5. Nekalay taxtdan yiqilg‘andan keyin oddiy xalq militsasiga ko‘ngilli bo‘lub yozildim. (A.Qod.) 6. Ammo charxi kajraftor davrasini teskaridan olib, shartta inqilob degan kasofat yuz ko‘rsatgan edi, shilq etib bizning Mahdixonimiz ham kursisidan qulab tushdi. (A.Qod.) 7. Agar ul sirringizni bilgan bo‘lg‘anda ham allaqachon kelaturgan ishka tushunib olib, Marg‘ilondan dumini xoda qildi, desangiz-chi! (A.Qod.)*

## SEMINAR MASHG‘ULOTI

### Reja:

- 1.Tilshunoslikda disfemizmlarning o‘rganilishi haqida.
- 2.Disfemik ma’noli birliliklarning tasnifi masalasi.
- 3.Matnda disfemik ma’noli birliliklarning qo’llanilishi.

### **Seminar mashg‘ulotida qo‘yilgan masalalarga tayyorlanish uchun uslubiy tavsiyalar**

**1-masala.** Disfemizmning ta’rifi. Disfemizmning evfemizmdan farqli xususiyati. Dunyo tilshunosligida disfemizmning o‘rganilishi. O‘zbek tilshunosligida disfemizmning ilmiy talqini. X.B.Qodirova tadqiqoti.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Mirtojiyev M. O‘zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent, Mumtoz so‘z, 2011, B.119127-
2. Qodirova X.B. Abdulla Qodiriy asarlarida qisqacha evfemik va disfemik ma’noli birliklari lug‘ati. – Toshkent: YAngi asr avlod, 2009. – B. 64.
3. Qodirova X.B. Disfemizmlarning o‘rganilish tarixi va tasnifi // O‘TA, № 1 – T., 2011. – B. 111115-

**2-masala.** Disfemik birliklar tasnifi muammolari. Disfemik ma’noli birliliklarning tasnify belgilari. Disfemizmlarning mavzuviy tasnifi. Disfemizmlarning semantik tasnifi. Disfemizmlarning struktur tasnifi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Qodirova X.B. Abdulla Qodiriy asarlarida qisqacha evfemik va disfemik ma’noli birliklari lug‘ati. – Toshkent: YAngi asr avlod, 2009. – B. 64.
- 2.Qodirova X.B. Disfemizmlarning o‘rganilish tarixi va tasnifi. // O‘TA, № 1 – T., 2011. – B. 111115-
- 3.Qodirova X.B. Abdulla Qodiriyning evfemizm va disfemizmlardan foydalanish mahorati: Filol.fan.nom. ...diss. – T., 2012.
- 4.Mirtojiyev M. O‘zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent, Mumtoz so‘z, 2011, B.119127-

**3-masala.** Badiiy disfemizm badiiy mahorat mahsuli sifatida. Siyosiy disfemizm haqida. Disfemizmlarda milliy mentalitetning namoyon bo‘lishi. Atoqli adiblarning disfemizmlarni qo‘llash xususiyatlari. Publitsistik disfemiya haqida. Publitsistik disfemiyada shaxs tavsiyi. Tarixiy shaxslarga nisbatan qo‘llangan disfemizmlar.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1.Qodirova X.B. Abdulla Qodiriy asarlarida qisqacha evfemik va disfemik ma’noli birliklari lug‘ati. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2009. – B. 64.

2.Qodirova X.B. Abdulla Qodiriyning evfemizm va disfemizmlardan foydalanish mahorati: Filol.fan.nom. ...diss. – T., 2012.

## ADABIYOTLAR

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. — М.: Сов. энциклопедия, 1969. — С. 137.
2. Mengliyev B., Sayfullayeva R. va boshq. Milliy tilshunoslik mustaqil rivojlanish yo‘lida // Ma’rifat, – 2007, – 21 may.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2 томли. 60 000 so‘z va so‘z birikmasi. 2-том / S.F.Akobirov, T.A.Aliquulov, S.I.Ibragimov i dr.; Z.M.Ma’rufov tahriri ostida. – M: Russkiy yazыk, 1981. – B. 144.
4. Mirtojiyev M. O‘zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent, Mumtoz so‘z, 2011, B.119127-
5. Qodirova X.B. Abdulla Qodiriy asarlarida qisqacha evfemik va disfemik ma’noli birliklari lug‘ati. – Toshkent: Yangi asr avlodи, 2009. – B. 64.
6. Qodirova X.B. Abdulla Qodiriyning evfemizm va disfemizmlardan foydalanish mahorati: Filol.fan.nom. ...diss. – T., 2012.
7. Кадирова Х.Б. Приспособление стратегии и тактики дисфемизации политических понятий // «Инновации. Наука. Образование» – Тольятти: – 2021.– № 33 (май).– 2140 с.– С. 924-929  
[https://drive.google.com/file/d/1iWLCu9NQdQ1\\_O2N2UCNbyz6YmRrGt1h/view](https://drive.google.com/file/d/1iWLCu9NQdQ1_O2N2UCNbyz6YmRrGt1h/view)

### **Qo‘sishma adabiyotlar**

1. Бойко Т.В. Эвфемия и дисфемия в газетном тексте: Автореф. дисс...канд. филол. наук. – М., 2005. – 26 с.
2. Бушуева Т.С.Прагматический аспект эвфемизмов и дисфемизмов в современном английском языке: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Смоленск, 2005. – 25 с.
3. Лоуренс Д. Порнография и непристойности. – М.: Азбуковник, 2003. – 392 с.
4. Резанова А.Н. Дисфемия в английском языке: семантические механизмы и прагматические функции: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2008. – 20 с.
5. Кадирова Х.Б. Эвфемико-дисфемистические значения в пересечении структурно-прагматического анализа // Международный научный обзор проблем философии, психологии и педагогики. – Boston. USA. January 28-29, 2020 <https://scientific->

[conference.com/h/sborniki/112-10-00-00-filologicheskie-nauki/2172-euphemic-dysphemistic-values.html](http://conference.com/h/sborniki/112-10-00-00-filologicheskie-nauki/2172-euphemic-dysphemistic-values.html)

6. Кадирова Х.Б. Эвфемизмы и дисфемизмы как отражение культуры общения // Вестник науки и образования. – Москва. «ПРОБЛЕМЫ НАУКИ» 2020. № 21 (99). Часть 1. С.35-37.  
<http://scientificjournal.ru/images/PDF/2020/99/evfemizmy-i-disfemizmy-kak.pdf>

7. Кадирова Х.Б. Эвфемический и дисфемический смысл в структурно-прагматическом анализе // «Мировая наука», Выпуск № 4(49) (апрель, 2021). [https://6f11d5b6-a34f-44d4-b696-52ed0e72afa9.filesusr.com/ugd/b06fdc\\_ae9b8316d0934efc97e38002e89e1411.pdf?index=true](https://6f11d5b6-a34f-44d4-b696-52ed0e72afa9.filesusr.com/ugd/b06fdc_ae9b8316d0934efc97e38002e89e1411.pdf?index=true)

### **Mustaqil ish mavzulari:**

1. Evfemizm va disfemizmlarning yondosh hodisalarga munosabati.
2. Evfemizm va disfemizmlarda darajalanish.
3. So‘zlashuv nutqiga xos evfemizm va disfemizmlar.
4. Evfemizm va disfemizmlarda milliy mentalitetning namoyon bo‘lishi.
5. Evfemizmlar va disfemizmlarning etnik va professional xoslanganligi.

# **TALABALARING BILISHGA OID O'QUV MAQSADIGA ERISHILGANLIK DARAJASINI NAZORAT QILISH VA BAHOLASHDA FOYDALANILADIGAN NOSTANDART TEST TOPSHIRIQLARI**

1. Evfemizmlarning mavzuiy turlarini aniqlang va jadvalga har bir evfemik ko‘chim ostiga mos raqamlarni yozing.

- 1) Badxulq shaxsni anglatuvchi evfemik vosita;
- 2) Insonning jismoniy nuqsonini anglatuvchi evfemik ifoda;
- 3) Insonning jismoniy holatini anglatuvchi evfemik ifoda;
- 4) Insonning ma’naviy nuqsonini anglatuvchi evfemik ifoda;
- 5) Insonning muomala va munosabatdagi nuqsonini anglatuvchi evfemik ifoda;
- 6) Spirtli ichimliklarni anglatuvchi evfemik ifoda;
- 7) Siyosiy shaxsni anglatuvchi evfemik vosita


<i>a'mo, basir, botil, garang, eshitmaydi, qulog'i og'ir, Diyдори номуборак (турғи соvuq), vaqtsizroq yaratilib qolg'an (чала түг'ilган)</i>	
<i>Qozining bu holini o'qug'uchilar muhokamasiga berib, men o'z tomonimdan bunday deyman: agar siz kitob so'ziga ishonsangiz vijdoningizning sal obiyati qochibdir.</i>	
<i>U yog'-bu yog'dan qilib, degandek palov oldidan «qizilcha» ham o'tilib turildi shekillik...</i>	
<i>tirnoqqa zor, bepusht, bezurriyot, pushtsiz, kechaligi yo'q, bichilgan</i>	
<i>katta, katta boshliq, birinchi, dohiy, jahon proletariatining dohiysi, qadrdon «ustozimiz», yo'lboshchimiz, xalqlar otasi, Moskvadagi oqsoqolimiz, mamlakatimiz rahbari, o'zbek paxtakorlarining otasi, aziz mehmon, yuqori darajali mehmon, hurmatli, otamiz, hammamiz uchun hurmatli</i>	
<i>To'g'risi aytganda (orada eshitkuchi yo'qmi?), bu sochi uzun, aqli qisqa <b>anav-manavlarga bayram qilishni kim qo'yubdir?</b></i>	
<i>aqling oqsaydir, aqlingiz bir oz yanglishibdir, boshi bo'sh, jo'n odam, jahli basit, soddalavh, esi yarim, yarim madaniy xalq, xom kishi</i>	

Ko‘p javobli nostandard test javobi quyidagicha bo‘ladi.

2	5	6	3	7	1	4
---	---	---	---	---	---	---

2. Quyidagi evfemik birliklar qaysi ma’no munosabatiga ko‘ra o‘zaro bog‘liqligini aniqlang.


1) dunyodan ketmoq; 2) hukumat ma’murlari o‘rindan tushurilib; qo‘lga oling‘an; 3) qutidorning qizini o‘ziniki etishga o‘ylab yuradir; 4) birarta darbozabonni qo‘lga olib qo‘ymog‘imiz, albatta, kerak; 5) jon bermoq; 6) Sen tinchitmasang, – dedi Xushro ‘y, – boshqalar seni tinchitar.




Javobi:

1	5	2	4	3	6
Ma’nodosh	Shakldosh	Zid ma’noli			

2. Quyidagi disfemizm tasnifida turlar o‘rniga yozilgan raqamlarni tegishli tur qatoriga joylashtiring.



Ko‘p javobli nostandard test javobi:



4. “Ahmoq” ma’noli evfemik va disfemik birlıklarning darajalanishi ketma-ketligini mos raqamlarini yozing.

<b>Ma’nolar</b>	<b>Raqamlar</b>
<i>maorifga cho'l</i>	
<i>yarim madaniy</i>	
<i>po'kak bosh</i>	
<i>boshi bo'sh</i>	
<i>Ahmoq</i>	
<i>esi yarim</i>	
<i>xumpar</i>	

Javobi:

<b>Ma’nolar</b>	<b>Raqamlar</b>
<i>maorifga cho'l</i>	-1
<i>yarim madaniy</i>	3
<i>po'kak bosh</i>	-3
<i>boshi bo'sh</i>	1
<i>Ahmoq</i>	0
<i>esi yarim</i>	2
<i>xumpar</i>	-2

5. O‘zbek tilshunosligida Evfemizm hodisasining ilmiy tadqiq qilish tarixining ketma-ketligini mos raqamlar bilan belgilang va jadvalga raqamlarni qo‘ying.

Shaxslar	raqamlar
X. Qodirova	
N.Ismatullaev	
Z.Xolmonova	
A.Omonturdiev	
H.Shamsiddinov	
A.E.Mamatov	

Javobi:

Shaxslar	raqamlar
X. Qodirova	6
N.Ismatullaev	1
Z.Xolmonova	5
A.Omonturdiev	2
H.Shamsiddinov	3
A.E.Mamatov	4

6. Disfemizm belgilarini aniqlang va jadvalga har bir tushuncha ostiga mos raqamlarni yozing.


- 1) Qarg‘ishni anglatuvchi disfemik ifoda
- 2) Zid ma’noli disfemik birlik
- 3) Gap shaklidagi disfemik birlik
- 4) So‘kish va haqoratni ifodalovchi disfemik ifoda
- 5) Frazeologik disfemik birlik
- 6) Masxara, kinoyani anglatuvchi disfemik ifoda
- 7) Metaforik asosli disfemik birlik

<i>aqli qisqa</i>	<i>uying kuysun</i>	<i>o ‘lib turg ‘an ekan</i>	<i>erkagu urg ‘ochi, bo ‘g ‘ozu qisr</i>	<i>hangrashaberib</i>	<i>onasini Uchqo ‘rg ‘ ondan ko ‘rgan.</i>	<i>qarg ‘a qarg ‘anin g ko ‘zini cho ‘qir ekanmi?</i>

Javobi:

4	1	6	2	7	5	3
---	---	---	---	---	---	---

7. Quyidagi disfemizm tasnifida turlar o‘rniga yozilgan raqamlarni tegishli tur qatoriga joylashtiring.



Javobi:

Turlar	Raqamlar
So‘z	6
Metaforik	10
Shaxsni anglatuvchi	14
Inson ma’n. nuqsoni	15
Ma’nodosh	1
Inson a’zosini angl.	16
Vazifadoshlik	11
Ibora	7
Monosemantik	4
Muomala-munosabat	17
Metonimik	12
Biomoddalarni angl.	18
So‘z birikmasi	8
SHakldosh	2
Spirli ichimlik	19
Inson jismoniy nuqs.	20
Sinekdozik	13
Inson jism.holati	21
Gap	8
Polisemantik	5
Zid ma’noli	3

```

graph TD
    EVFEMIZMLAR[EVFEMIZMLAR] --> LISONIV_EVFEMA[LISONIV EVFEMA]
    EVFEMIZMLAR --> IMPLITSIT_EVFEMA[IMPLITSIT EVFEMA]
    
    LISONIV_EVFEMA --> MAVZUIY_GURUH[Mavzuiy guruh]
    LISONIV_EVFEMA --> SHAKILY_MA_NOVIV_TURLARI[Shakily va ma'noviy turlari]
    LISONIV_EVFEMA --> MA_NO_KELUMIGA_KO_RATURLARI[Ma'no ke'lumiga ko'raturlari]
    LISONIV_EVFEMA --> SHAKILIY_TURLARI[Shakiliy turlari]
    
    IMPLITSIT_EVFEMA --> 14[14]
    IMPLITSIT_EVFEMA --> 15[15]
    IMPLITSIT_EVFEMA --> 16[16]
    IMPLITSIT_EVFEMA --> 17[17]
    IMPLITSIT_EVFEMA --> 18[18]
    IMPLITSIT_EVFEMA --> 19[19]
    IMPLITSIT_EVFEMA --> 20[20]
    IMPLITSIT_EVFEMA --> 21[21]
    
    MAVZUIY_GURUH --> 14
    MAVZUIY_GURUH --> 15
    MAVZUIY_GURUH --> 16
    MAVZUIY_GURUH --> 17
    
    SHAKILY_MA_NOVIV_TURLARI --> 1
    SHAKILY_MA_NOVIV_TURLARI --> 2
    SHAKILY_MA_NOVIV_TURLARI --> 3
    
    MA_NO_KELUMIGA_KO_RATURLARI --> 4
    MA_NO_KELUMIGA_KO_RATURLARI --> 5
    MA_NO_KELUMIGA_KO_RATURLARI --> 6
    MA_NO_KELUMIGA_KO_RATURLARI --> 7
    
    SHAKILIY_TURLARI --> 8
    SHAKILIY_TURLARI --> 9
    SHAKILIY_TURLARI --> 10
    SHAKILIY_TURLARI --> 11
    SHAKILIY_TURLARI --> 12
  
```

**TALABALARING TUSHUNISHGA OID O'QUV MAQSADIGA  
ERISHILGANLIK DARAJASINI NAZORAT QILISH VA  
BAHOLASHDA FOYDALANILADIGAN NOSTANDART TEST  
TOPSHIRIQLARI**

8. Ko‘chimlarni ularning xusustyatlari bilan juftlang.

1	<b>jargon</b>	A	axloq talablari nuqtai nazaridan qo‘llanishi taqiqlangan so‘zlar bo‘lib, bunday so‘zlar badiiy adabiyotda, lug‘atlarda, odatda, qayd etilmasligi bilan xarakterlanadi	
2	<b>tabu</b>	B	vazifasida oddiy, qo‘pol so‘zlar bilan birgalikda, so‘kish-haqorat so‘zлari ham keladiki, bu siradagi ayrim so‘zlarga qo‘llanish uchun «ruxsat» berilgan bo‘lsa-da, ba‘zilarining qo‘llanishi nutq odobi talablariga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydi	
3	<b>disfemizm</b>	C	urf-odat, irim-sirimlar talabiga ko‘ra taqiqlangan so‘zlar	
4	<b>vulgarizm</b>	D	qo‘llanishning adabiy til me’yoriga xos bo‘lmay, ma’lum bir soha kishilari jonli so‘zlashuviga xosligi, adabiy til nuqtai nazaridan ishlatalishi «ta’qiqlanganligi» bilan xarakterlanadi	
javob:	1-	2 -	3 -	4 -

Javobi:

javob:	1-D	2 -S	3 - B	4 - A
--------	-----	------	-------	-------

9. Evfemik ko‘chimlarni asl ma’nosi bilan juftlang.

1	<b>«katta»</b>	A	fohisha	
2	<b>obirahmat</b>	B	pul; pora	
3	<b>mullajiring</b>	C	hokimiyat kishisi	
4	<b>aynigan</b>	D	Aroq	
javob:	1-	2 -	3 -	4 -

Javobi:

javob:	1-C	2 -D	3 - B	4 - A
--------	-----	------	-------	-------

10. Berilgan gaplardagi evfemik ko‘chimlaring asl ma’nosи bilan juftlang.

№	Evfemik ifodali gaplar	№	Asl ma’no
1	<i>Siz ham har kun kechasi ko‘rarsiz: militsaning go‘ristonlikdan ushlab chiqaturg‘an tappa-tuzuk odamshavanda sochi taralg‘an, dumi yuluq, qip-qizil barkashdekkina yuzlik sun‘iy afandixon hazratlari bilan o‘zini fir‘avn qizi bilgan dilbarxon...larni!...»</i>	A	Mag‘rurlik
2	<i>Uning yonida bo‘z yaxtak bog‘ichini osiltirib, handalakdek bo‘qog‘i bilan o‘ng tomog‘ini ziynatlagan o‘rta yashar yana bir «husni YUsuf» ko‘rinar edi.</i>	B	Chiroyli emas
3	<i>...SHu kundan boshlab Lolani ko‘rish hajriga tushdim... Burnidagi buloqisidan boshqa (agar buloqi husnga qo‘shulsa) «Lola»likka arziydirgan hech gap yo‘q.</i>	C	Kibor
4	<i>Siz bizning odamiyatimiz yo‘qlig‘ini bir joyda ko‘rganmisiz yoki dimog‘ingizg‘a futur etib qolg‘anmi?</i>	D	Xunuk
5	<i>Axir Toshpo ‘lad akaning ham orqasig‘a oftob tegar, ul ham sizni yangi chiqg‘an «qirq gazligi» bilan bir kun mehmon qilib qolar, shoshmoq shaytonning ishi!</i>	E	O‘g‘rilik
6	<i>Ertalabki shaytonning «komitet qo‘yining dumbasi tushib qolgan» so‘zi esimga tushgan edi: – Ha, badbaxt, rost gapirgan ekansan, – deb qo‘ydin</i>	F	Aroq

javob:	1 -	2 -	3 -	4 -	5 -	6-
--------	-----	-----	-----	-----	-----	----

Javobi:

javob:	1 - C	2 - D	3 - V	4 - A	5 - F	6-E
--------	-------	-------	-------	-------	-------	-----

11. Berilgan gaplardagi disfemik ko‘chimlaring asl ma’nosi bilan juftlang.

№	Disfemik ko‘chim	№	Asl ma’no
1	<i>Kelin ko‘rib yurgan va kelin bo‘lg‘an «aqli qisqa» xotun-qizlarning o‘takasini yorib, nechtalarining bolalarini tushirdi.</i>	A	hech narsaga arzimaydigan odam
2	<i>Qalam guftoki...»ning shoiri to‘ng‘uz qo‘psa-chi, mani etti yildan beri bekorga sarson va sargardon qildi, harom tukimga turmaydig‘an hashpara maxsimlar yorug‘ dunyo orzu havasining arshi a‘losigacha borib etkanlarida, man qo‘tir itning keyingi oyog‘i ham bo‘lolmadim.</i>	B	va‘z o‘qimoq
3	<i>O‘tkan 25-yil samovor — choyxonalarda Puchuqqori va kuchukqorilar patnus qo‘lda, maqsad pulda <b>hangrashaberib</b> bizni juda bezor qildilar.</i>	C	Ahmoq
4	<i>Hay-hay qanday yaxshi... bu dumyodan qadri yo‘q musulmon og‘a-inilarning u dunyoda bunday rohat bilan kun kechirishlariga hasad qilg‘uchi kofirlarning ko‘zi chiqsun.</i>	D	kalta kiyangan, ochiq-sochiq, andishasiz, sharmanda, biroq bundan oz bo‘lsada uyalmaydigan
5	<i>Ana o‘sha lapka ko‘targan <b>sakibeduming</b> ham to‘rtta go‘dagi bilan xotinini qo‘yipti, it emgan, endi bir tatarskasiga uylanar emish – hezalak!</i>	E	Ko‘zi chiqib o‘lsin

javob:

javob:	1 - S	2 - A	3 - V	4 - E	5 - D
--------	-------	-------	-------	-------	-------

12. Evfemik ma’noli so‘z birikma va evfemik ma’noli iboralarning raqamlarini janvalning o‘ng tomoniga yozing.

- 1) *toq kelib juft ketmoqchi* («foydalanmoqchi»)
- 2) *tishlik hayvon* («cho‘ri»)
- 3) *qurigan ariqdan suv borg‘ishlab, shamoldan luqma berar* («asossiz va‘da beradi»)

- 4) *vaqtsizroq yaratilgan* («chala tug‘ilgan»)  
 5) *kavshining chakagi yirtildi* («ovora bo‘ldi»)  
 6) *yovvoyi chiqim* (pora)  
 7) *yolg‘iz bosh* («beva», «tul»)

Evfemik ifoda	Javob raqamlar
So‘z birikma shaklida	
Ibora shaklida	

Javob:

Evfemik ifoda	Javob raqamlar
So‘z birikma shaklida	7, 2, 4, 6
Ibora shaklida	1, 3, 5

13. Frazeologik hamda so‘z birikma shaklidagi disfemik birliklarni ajratib, raqamlarni jadvalning o‘ng tomoniga yozing.

- 1) *hukumat bo‘rilari;*  
 2) *boshi yorilmasdan, ko‘zi chiqmasdan* (bekamu ko‘st);  
 3) «*saylov*» *sichqonlari;*  
 4) *Najas siyosat;*  
 5) *aytmagan joyga yo‘nmagan tayoq* (chaqirilmagan mehmon);  
 6) *maorifga cho‘l xalq;*  
 7) *qumalog ‘ini kaka deb yurgan* (ona suti og‘zidan ketmagan, g‘o‘r);  
 8) *xaloyig‘i beparhez;*  
 9) *qitiq pari o‘l magan;*  
 10) *aqli tushdan keyin kirgan;*  
 11) *onasini Uchqo‘rg‘ondan ko‘rsatmoq*

Disfemik ifoda	Javob raqamlar
Frazeologik disfema	
So‘z birikma disfema	

Javobi:

Disfemik ifoda	Javob raqamlar
Frazeologik disfema	2, 5, 7, 10, 11
So‘z birikma disfema	1, 3, 4, 6, 8, 9

14. Berilgan “o‘lmoq” tushunchasining evfemik va disfemik ko‘chimlarini ajratib mos raqamlarini jadvalning “raqamlar” qismoga to‘g‘ri yozing.

№	Misol	№	Misol	Ko‘chimlar	Raqamlar
1	<i>Jahanam bo 'lmoq</i>	6	<i>qazo qilmoq</i>	evfemizm	
2	<i>dunyodan ketmoq</i>	7	<i>mangulik uyquga ketmoq</i>		
3	<i>Go 'rga ketdi</i>	8	<i>Ajali etdi</i>	disfemizm	
4	<i>Harom qotdi</i>	9	<i>Qaro er bo 'ldi</i>		
5	<i>jon bermoq</i>	10	<i>so 'nggi soati etmoq</i>		

Javobi:

№	Misol	№	Misol	Ko‘chimlar	Raqamlar
1	<i>Jahanam bo 'ldi</i>	6	<i>qazo qildi</i>	evfemizm	2, 5, 6, 7, 10
2	<i>dunyodan o 'tdi</i>	7	<i>mangulik uyquga ketdi</i>		
3	<i>Go 'rga kirdi</i>	8	<i>Ajali etdi</i>	disfemizm	1, 3, 4, 8, 9
4	<i>Asfalasofinga ketdi</i>	9	<i>Qaro er bo 'ldi</i>		
5	<i>jon berdi</i>	10	<i>so 'nggi soati etdi</i>		

15. Ma’nodosh (A), shakldosh (B), va zid ma’noli (C) evfemik va disfemik birliklarni aniqlang hamda jadvalning “javob” qismiga yozing.

1. <i>kesmoq – kallakesarga zakaz bermoq</i>	7. <i>mushtipar – tili uzun</i>
2. <i>bo 'g'oz – qisr</i>	8. « <i>adolatpanoh</i> » – « <i>Soyaboni marhamat</i> »
3. <i>aqling oqsaydir – gazeta oqsay boshladi</i>	9. <i>hukumat qo 'lga olindi – bizga yordam beradiganlarni qo 'lga olib qo 'yish kerak</i>
4. <i>o 'ziniki etmoq – tinchitmoq</i>	10. <i>aqli qisqa – po 'kak bosh</i>
5. <i>ikki yuzing qaro bo 'lsun – joying</i>	11. <i>afifa – buzilgan</i>

<i>jannatda bo 'lsin</i>			
6. <i>mangulik uyquga ketmoq – tobutga olinmoq</i>	12. “ <i>janobi oliv</i> ” – “ <i>huzuri muborak</i> ”		
javob	A -	B -	C -

Javob:

Javob	A – 1, 5, 6, 8, 10, 12	B – 3, 9	C – 2, 4, 7, 11
-------	------------------------	----------	-----------------

FOR AUTHOR USE ONLY

**TALABALARING BILIMLARNI AMALDA QO'LLASH O'QUV  
MAQSADIGA ERISHILGANLIK DARAJASINI NAZORAT  
QILISH VA BAHOLASHDA FOYDALANILADIGAN  
NOSTANDART TEST TOPSHIRIQLARI**

16. Evfemizm va disfemizmlarni aniqlab mos raqamlarni jadvalning o'ng tomoniga yozing.

- 1) *aqling oqsaydir*
- 2) *go 'rso 'xta*
- 3) *inqilob degan kasofat*
- 4) *bo 'yni yo 'g 'on*
- 5) *itbachcha*
- 6) *dunyodan ketdi*
- 7) *hayvon kabi maishat etmoq*
- 8) *qichig 'liq qilmang*
- 9) *yolg 'iz bosh*
- 10) *jilovim qo 'lida*
- 11) *o 'liksiz aza ochabersin*
- 12) *og 'ir oyoq*

Ko'chimlar	Javob raqamlar
Evfemizm	
Disfemizm	

Javobi:

Ko'chimlar	Javob raqamlar
Evfemizm	1, 4, 6, 9, 10, 12
Disfemizm	2, 3, 5, 7, 8, 11

17. Quyida Abdulla Qodiriyning «Mehrobdan chayon» asaridan olingan *ma'ni* evfemik birligining omomimik xususiyatiga ko'ra mos raqamlarini “javoblar raqamiga” yozing:

- *Gap-so 'zda ham bir **ma'ni** bo 'lishi kerak, – dedi Gulshan, – bo 'shdan bo 'shka haring-hiring; bundan ko 'ra tinch uxlag 'an yaxshi.*
- ***Ma'ni** o 'zi nima, Gulshan opa?*

– *Ma’nining ma’nisini so ‘rama, Tuhfa, – dedi Qumri, – Gulshan opam javob bersin, bizning shu «Qirq qizlar»da qamalib yotqanimizda ham **ma’ni** bormikin?*

– *Uni qo ‘yavur, – dedi qizlardan yana biri, – Gulshan opam erini yolg‘iz tashlab, biz **ma’nisizlarning** (1) ichida yana bir **ma’nisiz** (2) bo ‘lib yotipti; shunda ham bir **ma’ni** bormikan?*

– *Tovushlaring o ‘chsin.*

– *Bor, bor, – dedi allakim. – bizga hamroh topib keladi.*

– *Bizga hamroh topib kelganida ham **ma’ni** bormi?*

– *Nega **ma’ni** bo ‘lmasin, bizga o ‘xhash **ma’nisiz** (3) ko ‘payadi.*

(...)

– *Qirilib ket hammalaring... Endi **ma’nisizni** (4) ko ‘paytirmayman, tinch uxlalaring.*

– *Barakalla, – dedi Nozik. – Ana endi sizga ham **ma’ni** kiribdi.*

Ma’no turi	Javob raqamlar
<i>ma’nisiz I (ersiz)</i>	
<i>ma’nisiz II (fohisha)</i>	
<i>ma’nisiz III (mazmunsiz, kaltafahm)</i>	

Javobi:

Ma’no turi	Javob raqamlar
<i>ma’nisiz I (ersiz)</i>	1, 2
<i>ma’nisiz II (fohisha)</i>	3
<i>ma’nisiz III (mazmunsiz, kaltafahm)</i>	4

18. Berilgan birliliklarning adabiy til meyorlariga mos yoki mos emaslik darajasini aniqlab, jadvalning o’ng tomoniga javob raqamlarni yozing.

1) argotizm, 2) tabu, 3) vulgarizm, 4) disfemizm, 5) jargon, 6) evfemizmlar, 7) sleng.

Meyorlar	Javob raqamlari
Adabiy til meyorlariga xos	
Adabiy til meyorlariga xos emas	

Javobi:

Meyorlar	Javob raqamlari
Adabiy til meyorlariga xos	1, 3, 6
Adabiy til meyorlariga xos emas	2, 4, 5, 7

19. Quyidagi berilgan fikrlarning qaysi biri to‘g‘ri?

- A. Evfemizmlar va disfemizmlar o‘ziga yondosh hodisalar bilan paradigmatic munosabatda bo‘lib, ular o‘zaro privativ ziddiyatda turadi.
- B. Disfemizmlar shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra uch xil: a) ma’nodosh disfemizmlar; b) shakldosh disfemizmlar; g) zid ma’noli disfemizmlar.
- C. Evfemizmlar noverbal vositalar yordamida ham yuzaga chiqadi.
- D. Disfemizmlar evfemizmlar bilan munosabatdosh bo‘lganligi sababli ularning mavzuiy tashnifi evfemizmlar bilan aynan bo‘ladi.
- E. Tilning taraqqiyoti natijasida evfemizmlarning yangi shakllari, aytilishi me’yor bo‘lib kelgan ko‘pgina so‘z va iboralar o‘rnida unga nisbatan yanada qulay, so‘zlovchi va tinglovchi uchun yoqimliroq bo‘lgan ifodalar paydo bo‘laveradi
- F. Disfemizmlarning implitsit ko‘rishi ham bor.
- G. Evfemizmlarning shakliy strukturasiga ko‘ra so‘z, ibora, birikma va gap tusidagi turlari bor.

Javob:

A	B	C	D	E	F	G

Javob:

A	B	C	D	E	F	G
Ha	Yo‘q	Ha	Yo‘q	Ha	Yo‘q	Ha

20. Quyida “o‘lmoq” tushunchasining qaysi biri diniy bilimlar asosida yuzaga kelganligini topping. Javoblar jadvalga “ha” yoki “yoki” so‘zini yozing.

1. <i>bu dunyoi foniydan vido' qilmoq</i>	9. <i>qaro tuproqqa qo 'shilmoq</i>
2. <i>dunyo bilan vidolashmoq</i>	10. <i>qon bermoq</i>
3. <i>dunyodan ketmoq</i>	11. <i>qulog'i ostida qolmoq</i>
4. <i>dunyodan ko 'chmoq</i>	12. <i>mangulik uyquga ketmoq</i>
5. <i>dunyodan o 'tgan</i>	13. <i>Saodat quchog'iga kirmoq</i>
6. <i>joyi jannatda bo 'lmoq</i>	14. <i>so 'nggi soati etmoq</i>
7. <i>jon bermoq</i>	15. <i>tobutga olinmoq</i>
8. <i>qazo qilmoq</i>	16. <i>yoshini yashab, oshini oshamoq</i>

Javob:

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16

Javob:

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16
+	+	+	+	+	+	+	+	-	-	-	+	-	-	-	-

## **TALABALARING TAHLILGA OID O'QUV MAQSADIGA ERISHILGANLIK DARAJASINI NAZORAT QILISH VA BAHOLASHDA FOYDALANILADIGAN NOSTANDART TEST TOPSHIRIQLARI**

21. Quyidagi fikrlarning qaysilari to‘g‘ri?

- A. Evfemik va disfemik ma’noli birliklar, asosan nutqiy hodisa bo‘lganligi sababli, adiblar nutqida individuall hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.
- B. Evfemiklik yoki disfemiklik xususiyati eskirganda ma’nodagi sub’ektiv munosabat bo‘yog‘i kuchsizlashadi.
- C. Tabuning paydo bo‘lishiga turli bid’at va xurofotlar sabab bo‘lib, disfemizmlar uning nomini yopish uchun xizmat qiladi.
- D. Disfemizm va evfemizm aksariyat adabiyotlarda sinonim terminlar sifatida berilgan.
- E. Insoniyatning madaniy taraqqiyoti til rivojiga ta’sir qilib, madaniyat yuksalgan sayin evfemizmlar ham sayqallanib boradi.
- F. Disfemik hosila ma’no har xil sath birliklari vositasida, shuningdek, hatto noverbal vositalar yordamida ham yuzaga chiqadi.
- G. O‘zbek tilshunosligida evfemizm atamasi 1963-64 yillarda N.Ismatullaevning «Hozirgi o‘zbek tilida evfemizmlar» nomli dissertatsiyasi orqali kirib kelgan.

Javob:

---


Javob: A, B, E,

G.


---

22. Quyida berilgan “o‘ldirmoq” tushunchasining individual xarakterga egaligidan tortib to umumiste’mol xarakterdagi evfemik va disfemik ko‘chimlarini ketma-ketlikda darajalang.

- 1) *yer tishlatmoq*, 2) *to‘ng‘iz qo‘pmoq*, 3) *asfalasofinga jo‘natmoq*,
- 4) *kesmoq*, 5) *oradan ko‘tarmoq*, 6) *saranjomlamoq*, 7) *qonini to‘kmoq*,
- 8) *kallakesarga zakaz bermoq*, 9) *kulala qilmoq*, 10) *saranjom qilmoq*,
- 11) *o‘ldirmoq*, 12) *boshini olmoq*



Javobi:



23. Ma'lum guruh, mentalitet doirasida evfemizm jarayonni tadqiq etish borasidagi ishlarni bajarilish vaqtiga ko'ra ketma-ketligini sxemada ifodalang.

- 1) O.N.Turbachevning Yevropa ovchilari va ov mavsumi bilan bog'liq evfemizmlar tadqiqi; 2) E.A.Agayanning arman qishloqlari aholisi nutqidagi evfemizatsiya jarayoni tadqiqi; 3) S.Otayevning turkman tili evfemizmlari tadqiqi; 4) G.G.Musaboyevning qozoq tili evfemizmlari tadqiqi; 5) V.P.Darbakovaning mongol xalqi evfemizmlari tadqiqi; 6) N.Ismatullayev o'zbek tili evfemizatsiyasining tadqiqi.

Javob:

--	--	--	--	--	--

Javob:

3 (1955)	1 (1958)	4 (1959)	2 (1960)	6 (1963)	5 (1969)
----------	----------	----------	----------	----------	----------

24. Quyida berilganlar evfemizm yoki disfemizm ekanligini jadvalga raqamlari orqali yozing.

- 1) *bo 'yin eggan;*
- 2) *yerdan chiqgan;*
- 3) *mir quruq;*
- 4) *jigar so 'xtalari*
- 5) *maymunlik qilmoq*
- 6) *nafsi shayton*

Ko'chim turi	Javob raqamlari
Evfemizm	
Disfemizm	

Javobi:

Ko‘chim turi	Javob raqamlari
Evfemizm	1, 3, 6
Disfemizm	2, 4, 5

25. Tushurib qoldirilgan so‘zlarni yozing.

- 1) \_\_\_\_\_ muayyan matndagi predmet, narsa-hodisa nomini nisbatan qo‘pol, vulgar ifoda bilan almashtirish. Ziddi: \_\_\_\_\_
- 2) Tabuning paydo bo‘lishiga turli bid’at va xurofotlar sabab bo‘lib, evfemizmlar uning nomini \_\_\_\_\_ uchun xizmat qiladi.

Javobi

- 1) Disfemizm (kakofemizm) *isp.* disfemismo. Trop. muayyan matndagi predmet, narsa-hodisa nomini nisbatan qo‘pol, vulgar ifoda bilan almashtirish. Ziddi: Evfemizm.
- 2) Tabuning paydo bo‘lishiga turli bid’at va xurofotlar sabab bo‘lganligini aytib, evfemizmlar uning nomini yopish uchun xizmat qilishini ta’kidlaydi.

**TALABALARING BILIMLARNI SINTEZLASH O'QUV  
MAQSADIGA ERISHILGANLIK DARAJASINI NAZORAT  
QILISH VA BAHOLASHDA FOYDALANILADIGAN  
NOSTANDART TEST TOPSHIRIQLARI**

26. To‘g‘ri javoblarni aniqlang.

Evfemizm                    nutqiy                    madaniyat                    yuzasidan  
                                  uchun qo‘llaniladi.

1. aytish noqulay bo‘lgan vaziyatni yumshatish
2. salbiy bo‘yoqli ma’no ifodalash
3. tabuning nomini yopish
4. til imkoniyatlardan foydalanish
5. umumaxloqiy va madaniy jihatdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalamaslik
6. individual mohiyatini aniqlash
7. insonning jismoniy, ma’naviy nuqsonlarini qo‘pol ifodalamaslik
8. kishining muomala va munosabatdagi nuqsonlari noziklashtirish
9. o‘z maqsadlarini yashirish.

Javob 1, 3, 5, 7, 8

27. Quyida Abdulla Qodiriyning «O‘tkan kunlar» asaridan olingan **muvofiq** evfemik birligining raqamlarini tagma’no tushunchalariga mos “javoblar raqamiga” yozing:

— *Manimcha, uylanishdek nozik bir ish dunyoda yo‘qdir, — dedi Rahmat va Otabekka yuz o‘girdi. — Uylangach, xotining tab‘ingga **muvofiq** (1) kelsa, bu juda yaxshi; yo‘qsa, munchalik og‘ir gap dunyoda bo‘lmas. — So‘zingizning to‘g‘rilig‘ida shubha yo‘q, — dedi, — ammo shuni ham qo‘shamoq kerakki, oladirg‘on xotiningiz sizga **muvofiq** (2) bo‘lishi barobarida er ham xotin ‘a **muvofiquttab**’ (3) bo‘lsin. — Xotin ‘a **muvofiq** (4) bo‘lish va bo‘lmasliqni uncha keragi yo‘q, — dedi Homid e’tirozlanib, — xotinlarga er degan ismning o‘zi kifoya... ammo jiyan aytkandek, xotin degan erga **muvofiq** (5) bo‘lsa bas. Masalan, men ota-onamning yoqdirishlari bilan uylandim... ammo xotinim ota-onamga **muvofiq** (6) bo‘lsa ham, menga **muvofiq** (7) emas, siz aytgandek, ehtimol men ham xotinimg‘a **muvofiq** (8) emasdirmen. — Jiyani, — dedi Homid Rahmatka qarab, — boshlab uylanishing, albatta, ota-onang*

*uchun bo'lib, ulardan ranjib yurishingning o'rni yo'q. Xotining ko'nglingga **muvofiq** (9) kelmas ekan, **muvofiqini** (10) olib, xotinni ikki qil. Bunisi ham kelishmasa, uchunchisini ol. Xotinim **muvofiq** (11) emas deb zorlanib, hasratlanib yurish er kishining ishi emas.*

Ma'no turi	Javob raqamlar
Xarakterga mos	1, 3, 8
Meni tushunadigan	7
Menga yoqadigan	5, 7, 9
Ko'nglimni topadigan	5, 9
Xizmatimni qiladigan	5
Ra'yimni qaytarmaydigan	5
Didimga mos	1, 9
Mutanosib	2, 3, 8
To'g'ri kelish, yoqish	4, 6, 8
YAxshi, yoqadigan	10, 11

**TALABALARING XULOSA YASASHGA OID O'QUV  
MAQSADIGA ERISHILGANLIK DARAJASINI NAZORAT  
QILISH VA BAHOLASHDA FOYDALANILADIGAN  
NOSTANDART TEST TOPSHIRIQLARI**

28. Quyidagi fikrlarning qaysi biri to‘g‘ri? Javoblar jadvaliga “ha” yoki “yo‘q” so‘zlarini yozing.

- A. Polisemantik evfemalar ko‘chimning turlariga ko‘ra metaforik, metonimik, sinekdoxik, vazifadoshlik va kinoyaviy asosdagi turlarga ajraladi.
- B. Disfemik ma’no va disfemizatsiya evfemik ma’no va evfemizatsiyaga zid turadi.
- C. Siyosiy evfemizmlar turli shakl va maqsadda ishlatilsa-da, o‘quvchida salbiy taassurot qoldirish, voqelikni aslidan ko‘ra bo‘rttirish vazifasini ado etadi.
- D. Disfemik birliliklar ma’no qamroviga ko‘ra monosemantik va polisemantik birlilkлага bo‘linadi.
- E. Disfemizm – bu so‘zlovchi nazarida qo‘pol, noqulay bo‘lgan so‘z va ifodalar o‘rnida qo‘llangan, ularga ma’nodosh bo‘lgan emotsional betaraf so‘z va ifodalar.
- F. Metaforik nominatsiya, metonimik nominatsiya, sinekdoxik nominatsiya kabilar asosidagi disfemizmlar mavjud.
- G. Evfemizmlar, odatda, badiiy adabiyotda, madaniy muloqot muhitida odob nuqtai nazaridan berilishi mumkin bo‘lmagan birlik sifatida qaralgan.

Javob:

A	B	C	D	E	F	G
Ha	Ha	Yo‘q	Ha	Yo‘q	Ha	Yo‘q

## “EVFEMIZM VA DISFEMIZM” MODULINI O‘TISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Dunyo tilshunosligining hozirgi holati, jamiyatimizda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, boshqa fanlarga bo‘lgani kabi, til ta’limi sohasi oldiga ham yangi vazifalarni qo‘ymoqda. «Ayniqsa, fundamental fanlar, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari, bank-moliya tizimi kabi o‘ta muhim sohalarda ona tilimizning qo‘llanish doirasini kengaytirish, etimologik va qiyosiy lug‘atlar chop etish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish, bir so‘z bilan aytganda, o‘zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish milliy o‘zlikni, Vatan tuyg‘usini anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasiz.»<sup>1</sup>

Bugungi kunda o‘zbek tilshunosligi nazariy tilshunoslik aniqlagan lisoniy umumiylıklarning nutqiy voqelanishini tekshirishga jiddiy kirishilmoqda. Buni lisonning amaliy voqelanishi, undan camarali foydalanish masalalari bilan shug‘ullanuvchi zamonaviy fan yo‘nalishlari bo‘lgan sotsiolingvistika, lingvokulturologiya, psixolingvistika, lingvokognitologiya, kompyuter lingvistikasi kabi ijtimoiy va iqtisodiy samarador qator yo‘nalishlar jadal rivojlanayotganligi ham ko‘rsatmoqda.

O‘zbek tili lisoniy imkoniyatlari nutqiy voqelanishining o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘lgan evfemizm va disfemizmlarda til va ma’naviyat, til va ruh mushtarakligi yaqqol namoyon bo‘ladi. U milliy ma’naviyat muammosi global ahamiyat kasb etgan bugungi kunda milliy mentalitetni yaqqol namoyon qiladi. Ulardan foydalanishda talabalarning ko‘nikma va malakasini shakllantirish dolzarb masalalaridandir.

O‘zbek tili ta’limida talabalar nutqiy, lingvistik, sotsiokulturologik, pragmatik kompetensiyalardan iborat xususiy kompetensiyalarni egallashlari talab etiladi.

1. **Nutqiy kompetensiya** til ta’limining quyidagi 4 amali bo‘yicha: tinglab tushunish bo‘yicha (eshitilgan va eshitirilgan nutqni, tinglangan matndagi asosiy axborotni, dolzarb mavzulardagi radio va teledasturlarni tushunish); gapirish bo‘yicha (monologik, dialogik og‘zaki nutq turlarida o‘z shaxsiy qarashlari va fikrlarini bildirish, mavzu doirasida taqdimot qila olish ko‘nikmalarini rivojlantirish); o‘qish bo‘yicha: mavzuga oid materiallarni, adabiy-badiiy matnlarni, ommabop materiallarni (gazeta, hikoya, shaxsiy va elektron xatlarni) o‘qish; yozish bo‘yicha (diktant,

<sup>1</sup> Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2007. – B. 87.

bayon, insho yoza olish, ijodiy matnlar tuza olish, rasmiy ish qog‘ozlarini yuritishni bilish).

2. **Lingvistik kompetensiya:** kundalik hayotda faol qo‘llaniladigan ijtimoiy mavzularga oid va kasb-hunarga yo‘naltirilgan lug‘at boyligini oshirib borish, o‘zbek tilining so‘z yasalishi vositalarini bilish lug‘at boyligini oshirib borishdan iborat bo‘lib, bularning barchasi o‘zbek tilining fonetikasi, leksikasi va grammatikasi bo‘yicha nazariy bilimlarni muayyan izchillikda egallash vositasida amalga oshiriladi.

3. **Sotsiokulturologik (ijtimoiy-madaniy) kompetensiyada** eshitilgan nutqni shu xalqning milliy xususiyatlarini bilgan va o‘z ona tili va milliy an’analari bilan taqqoslagan holda muayyan nutqiy vaziyatga mos lingvistik shakl, ifoda usulida taqdim eta olish qobiliyatini shakllantirish. Ushbu layoqat talabalarni o‘z xalqining boy tarixi, milliy qadriyatlarini, urf-odatlari va ularni o‘zida aks ettirgan boy adabiy-badiiy meros bilan yaqindan tanishish, o‘zbek adabiyoti namunalarini, jahon milliy madaniyatiga hissa qo‘shtigan o‘zbek xalqi vakillarining ijodiy merosini o‘qib o‘rganish orqali shakllantiriladi.

4. **Pragmatik kompetensiya** kundalik hayotda o‘zbek tilidan egallagan bilim, ko‘nikmalari asosida muayyan nutqiy vaziyatda mustaqil muloqotga kirisha olish qobiliyatini, o‘zaro suhbatlashish, suhbatga qo‘shilish, suhbatdoshining nutqini sekinlashtirishga undashga oid muomala odobi vositalarini, tushunmovchiliklar paydo bo‘lganda qayta so‘rash, uzr so‘rash orqali murakkab vaziyatlardan chiqib keta olish, tilning amaliy imkoniyatlaridan o‘rinli foydalana olish qobiliyatini shakllantirishni nazarda tutadi.

Qayd etilgan kompetensiyalar ta’lim oluvchilarda shaxsiy, ma’naviy, ijtimoiy, kasbiy ko‘nikma-malakalarini tarkib toptirishga va egallagan bilimlarini turli hayotiy vaziyatlarda mustaqil qo‘llashga qaratilgan layoqatlarini shakllantirishga olib keladi. Biroq ko‘zda tutilgan provard natijaga erishish uchun har bir ta’lim bosqichi bitiruvchilari uchun belgilangan kompetensiyalarning me’yoriy darajasi talablarini bajarilishini ta’minlash kerak bo‘ladi.

### **Leksikologiya bo‘limida evfemizm va disfemizm modulini joriy etishning ahamiyiti**

Milliy ma’naviyat muammosi globallashgan bugungi kunda milliy mentalitetni ifodalaydigan evfemik va disfemik vositalarni o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

Evfemizmnинг paydo bo‘lishi insoniyat tafakkuri va axloqiy qadriyatlar rivoji bilan bog‘liq. U nafaqat til hodisasi (ifoda etayotgan shaxs nuqtai nazaridan noqulay bo‘lgan birliklar o‘rnida qo‘llangan so‘z, so‘z birikmasi yoki gap), balki insonning nutqiy vaziyatni qaysidir ma‘noda o‘zgartirishga moyilligi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Maqbul so‘z qo‘llana turib, so‘zlovchi tomonidan man etilgan (tabu) birliklar qo‘llanishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nosoz muhit yumshatiladi. Man etilgan so‘zlar esa insoniyat bilan tengqur deyilsa, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Tabu va evfemizatsiya hodisasi haqida diniy manbalarda ham qimmatli ma‘lumotlar bor. Masalan, Qur‘on oyatlarida ayni jarayon (ya’ni tabu o‘rnida boshqa bir til birligini qo‘llash — evfemizatsiya) mavjudligi kuzatiladi. Arab tilidagi *maoriz* atamasi *evfemizm* tushunchasiga nisbatan mos keladi. *Maoriz* muloqot madaniyati muhitida «ishora qilib gapirish» ma’nosida tushuniladi. Bir so‘z o‘rniga boshqa so‘z ishlatalib, asl maqsad ochiq aytilmay, ma’noning yashirin ifodalanishi ba’zan *ta’riz* ham deyiladi. Ular — o‘zakdosh. Shunday hadisi sharif bor:

«Anas ibn Molik roziyallohu anhuđan rivoyat qilinadi:

«Rasululloh sallallohu alayhi vasallam o‘z safarlaridan birida edilar. Sarbon xirgoyi boshladi. ShHunda Nabiylayhi vasallam:

«Muloyim bo‘l! Hoy Anjasha! Sho‘ring qurg‘ur! Billurlarni ehtiyot qil!» dedilar». Hadisning mazmuni shunday: Rasululloh sallallohu alayhi vasallam vidolashuv haji safariga ketayotganlarida sarbon — karvonni boshlab ketayotgan tuyakash, xirgoyi qilib qolibdi. Bu arab karvonboshilariga xos odat bo‘lib, karvondagi tuyalar o‘sha xirgoyining maromiga qarab qadam tashlashga o‘rganar ekan. Sarbonning xirgoysiiga qarab, tuyalar tezroq yoki sekinoq yurishi ham mumkin. Rasululloh sallallohu alayhi vasallam **billurlar** deb shu karvonda ketayotgan onalarini nazarda tutganlar. Karvondagi ayollar *xavdaj* deb nomlangan chodir tutilgan, egarning ustiga mahkamlangan maxsus o‘rindiqda yurardilar. Tuya tez yurganda xavdajlar qattiq silkinib, ayollarga biroz noqulaylik tug‘diradi. Shuning uchun Rasululloh sallallohu alayhi vasallam sarbonga tuyalarni shoshirmaslikni buyurib, buni go‘zal *ta’riz* ifodasi bilan bayon etgan. Bu hadisdagi ishorani ba’zi ulamolar *ta’riz* emas, *majoz*<sup>1</sup> deb aytganlar.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> «**Majoz** [a. مجاز — o‘tish joyi; boshqacha aytish, nomlash; tasviriy ifoda] ad. So‘z yoki iboraning o‘z ma’nosidan boshqa, ko‘chma ma’noda ishlatalishi va shunday ma’no ishlataligan

Ko‘rinadiki, evfemizmlarning qo‘llanishi murojaat madaniyati darajasini ko‘rsatuvchi asosiy omillardan bo‘lib, unga muloqot madaniyati ko‘zgusi orqali munosabatda bo‘lish talab qilinadi. Shu ma’noda yana shunday rivoyatni keltirish o‘rinli. Masalan, «Qur'on — maxluqdir» degan gap chiqib, ixtilof kuchayib, hatto xalifalar odamlarni shu gapni aytishga majburlashgacha ham borishgan. Fitna jarayonida mashhur ulamolar hammaning oldida shu gapni aytsa, keyin xalq unga ergashadi, degan maqsadda buyuk olimlarni ham aytishga majburlashgan paytlar bo‘lgan. Biroq Ahmad ibn Hanbal rahmatullohi alayh boshliq ulug‘ olimlar bunga ko‘nmay, turib olishgan. Urib-kaltaklab, qamab, qiyashsa ham, bu gapni aytishmagan. Shunda ba’zi olimlar bu gapni ishora bilan aytib, vaziyatdan qutulib chiqib ketishgan. Ularning ichida imom Shafeiy rahmatullohi alayh ham bo‘lgan ekanlar. U kishini xalifaning oldiga olib kelib, hammaning oldida shu gapni aytishga majburlashganda, imom Shafeiy rahmatullohi alayh:

- Qo‘lingda turgan narsani aftyapsanmi? – deb so‘raganlar.
- Ha, shuni, – deyishgan.
- Ha, u – maxluq, – deganlar.

Shu javobidan keyin u zotni tinch qo‘yishgan. Aslida imom Shafeiy rahmatullohi alayh xalifaning qo‘lida turgan qog‘oz kitobga ishora qilganlar va *maxluq* deganda Allohning kalomini emas, balki qog‘ozga chop qilingan, müqovalangan kitobni nazarda tutganlar.<sup>2</sup> Ko‘rinadiki, zakiy alloma evfemik vositadan manipulyativ yo‘sinda unumli va mantiqli foydalanib, o‘z e’tiqodiga putur yetkazishdan saqlangan.

Disfemizmlarning muloqot xulqini namoyon qiluvchi vosita sifatidagi roli o‘ziga xos. Keyingi paytlarda demokratiyaning jadallahuvi natijasida, qolaversa, 1948-yil 10-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan e’lon qilingan “Inson huquqlari Deklaratsiyasi” va so‘z erkinligi to‘g‘risidagi qonunning qabul qilinishi natijasida G‘arb OAV va boshqa axborot manbalarida disfemizmlardan foydalanish ommalashib, uni o‘rganish, tasnif qilish, talqin va tahlil etish davr taqozosi sifatida qaraldi.<sup>3</sup>

so‘z, ibora; metafora; allegoriya. Demak, lug‘aviy ma’nosiga ko‘ra metafora Sharqda qo‘llangan majoz — ko‘chim iborasiga mos keladi.» Qarang: O‘zbek tilinin izohli lug‘ati. 5 jiddlik. 80 000 so‘z va so‘z birikmasi. II jild. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – B. 523.

<sup>1</sup> [www.islom.uz](http://www.islom.uz)

<sup>2</sup> [www.islom.uz](http://www.islom.uz).

<sup>3</sup> Резанова А.Н. Дисфемия в английском языке: семантические механизмы и pragmaticальные функции: Дисс.... канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2008; Бойко Т.В.

Biroq, darsliklarda talaba yoshlarga bu ikki tushuncha to‘g‘risida to‘liq ma’lumot berilmaydi. Vaholangki, u barkamol shaxsning belgilaridan biri hisoblanib, bugungi kunda ular nutq madaniyatini tarbiyalashdagi amaliy vositalardir. Shu boisdan evfemik va disfemik vositalar qayd qilingan izohli lug‘atlar, fan dasturlarida alohida modul sifatida ta’limiy jarayonlar tashkil qilish dolzarb masaladir. Bизда bunday imkoniyat mavjud bo‘lib, yetarlicha ishlar amalga oshirilganligi bunga asosdir.

O‘zbek tilshunosligida bu atama 1963-64-yillarda N.Ismatullayevning «Hozirgi o‘zbek tilida evfemizmlar» nomli dissertatsiyasi<sup>1</sup> orqali o‘rnashgan<sup>2</sup>. So‘ng, 1997-yilda A.Omonturdiyev evfemizmni «uslubshunoslikning tadqiqot ob’ekti sifatida allaqachon o‘z yechimini topishi kerak bo‘lgan mavzu»<sup>3</sup>si sifatida keng doirada o‘rganib, o‘zbek nutqining evfemik asoslarini tadqiq qiladi. Vaqt o‘tib, «til taraqqiyoti, global muammolarning yechimi uslubshunoslikni notiqlik san‘ati maqomiga ko‘tarishni, jumladan, professional nutqning barcha tarmoqlarini — chorvador, ovchi, dehqon, yurist, jurnalist, diplomat, baxshi, shifikor, kurashchi,sovchi, to‘quvchi, tikuvchi, temirchi kabilar nutqini fundamental tadqiq qilish, xusan, ularning evfemik vositalarini yozib olish, evfemioziyani ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan mustaqil soha — tilshunoslikdan o‘sib chiqqan fan sifatida asoslash, dastur va darslik, lug‘at tuzish kabi»<sup>4</sup> muammolar yechimini davr taqozo qiladi. Shunda, A.J.Omonturdiyev muayyan soha evfemizmlari, ya’ni chorvador nutqiga xos evfemik vositalarni etnolingistik nuqtai nazardan tavsiflashga bag‘ishlangan «Professional nutq evfemikasi» nomli doktorlik dissertatsiyasida yuqoridagi masalalarni hal etish uchun chorvadorlar nutqidagi, xusan, chorvadorlarning hayoti, yashash tarzi, dunyoqarashi, urf-odatlari, an’analari, marosimlari bilan bog‘liq holda vujudga kelgan evfemizmlarni tadqiq qiladi. Demak, nazariy ma’lumotlar bor, uni faqat amalga tadbiq etish qoldi, xolos.

---

Эвфемия и дисфемия в газетном тексте: дисс. ... канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2008.

<sup>1</sup> Исматуллаев Н. Эвфемизмы в современном узбекском языке: Автореф. дисс... канд. филол. наук. — Т., 1963. – С.19.

<sup>2</sup> Ismatullayev N. Hozirgi o‘zbek tilida evfemizmlar // ToshDPI ilmiy asarlari. – Т., 1963. 1-kitob. Т.42. – Б. 8, 19-28, 3-59; Ismatullayev N. Evfemizmlarning lug‘at sostavini va so‘ma’nolarini boyitishdagi ahamiyati // ToshDPI ilmiy asarlari. – Т., 1964. 2-kitob. – Б. 3-12.

<sup>3</sup> Omonturdiyev A.J. Evfemik vositalarning funksional xususiyatlari: Filol. fanlari nomzodi... diss. – Т., 1997. – Б. 176.

<sup>4</sup> Omonturdiyev A.J. Professional nutq evfemikasi (Chorvadorlar nutqi misolida): Filol. fanlari di... diss. avtoref. – Т., 2009.

## **EVFEMIZM VA DISFEMIZM MODULINING O‘QUV-USLUBIY TA’MINOTI**

### **Evfemizm va disfemizm modulining o‘quv-uslubiy qo‘llanmasining metodik ishlanmasi**

Evfemizm va disfemizmni ilmiy o‘rganish o‘zbek tili imkoniyatlarini ochish va talqin qilish masalalari bilan uyg‘unlashib ketadi. Ular millatning etik-estetik didi, milliy ruhi, odobi va nazokati bo‘lib, muomala madaniyatining o‘ziga xosligini aks ettiradi. Evfemizmlarning «dabdabali» (tantanavor), «hurmat-ehtiromli», «ko‘tarinki» ma’no ottenkalari bilan badiiy, ilmiy, so‘zlashuv uslubida qo‘llanilishi tilning keng imkoniyatidan dalolat beradi.<sup>1</sup>

Disfemizatsiya til birliklarining pragmatik ma’nosи bo‘lib, u evehfmizatsiyaga zid turadi. U ham qadimdan mavjud bo‘lgan bo‘lsa-da, evfemizmdan farqli o‘larоq, kam o‘rganilgan. Buning sababini esa, madaniy muloqot me’yorlaridan izlash muhim. Chunki ular, odatda, badiiy adabiyotda, madaniy muloqot muhitida odob nuqtai nazaridan berilishi mumkin bo‘lmagan birlik sifatida qaralgan. Odatda, tilshunoslikka oid lug‘atlarda disfemizm xususida alohida to‘xtalinmay, ko‘pincha unga evfemizm bo‘limida yo‘l-yo‘lakay izoh beriladi.

Har ikki hodisa milliy madaniyat ko‘zgusida namoyon bo‘lar ekan, ularni mental xususiyatlar misolida o‘rganish, milliy nutq jarayonida shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun, modulni “O‘zbek tilida evfemizm va disfemizm” shaklida tadbiq etish maqsadga muvofig. Mazkur nom bilan 2013-yilda o‘quv uslubiy qo‘llanma nashr etilgan edi. Bugun uni qayta yangilangan 2-nashriga bel bog‘ladik. U ikki hodisaga bag‘ishlangan 6 soatlik modul bo‘lib, 2 ta ma’ruza matni, 2 ta amaliy mashg‘ulot hamda 2 ta seminar mashg‘ulotdan tarkib topgan. Shuningdek, mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar, mustaqil ish mavzulari va 20 ta sinov testlari ham kiritilgan. Endilikda bu hodisalarни dars jarayoniga innovatsion tarzda olib kirish imkoniyati tug‘ildi. Shunday ekan, uni o‘qitish metodikasini ishlab chiqish bizning oldimizga qo‘yilgan vazifa bo‘lib, bu masalani hal qilishga urinib ko‘ramiz.

<sup>1</sup> Ayniqsa, o‘zbek tilida o‘lim bilan bog‘liq evfemik vositalarining 300 va yaqin varianti topilganligi ahamiyatli. Bu esa ularning turli vaziyat, matn va zamonda qo‘llanilishga xoslangan turidan foydalana olish imkonini beradi, shuningdek, nutqning sayqallanishiga olib keladi. (Omonturdiev A. Bir so‘z lug‘ati. – Termiz: Jayxun, 1996. – B. 45.)

## **“Evfemizm” mavzusini o‘qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish**

### **1-MA’RUZA MASHG‘ULOT TEXNOLOGIK XARITASI**

<b>1-mavzu</b>	<b>Evfemizmlar</b>
<b>Ta’lim berish texnologiyasi</b>	
<b>Mashg’ulot vaqtি 2 soat</b>	<b>Talabalar soni 25 ta gacha</b>
<b>Mashg’ulot shakli</b>	<b>Mavzu bo'yicha bilim va ko'nikmalarni kengaytirish yuzasidan ma'ruza mashg'uloti.</b>
<b>Ma'ruza mashg'ulot rejasи</b>	<ol style="list-style-type: none"><li>Modul bo'yicha qisqacha ma'lumot berish</li><li>Evfemizmlarni o'rganilish tarixi xususida axborot.</li><li>Evfemizmlarning tasnifi haqida ma'lumotlar beriladi.</li><li>Evfemik ma'noli birliliklarning qo'llanish xususiyatlari yuzasidan fikrlar almashinadi.</li><li>Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar beriladi.</li></ol>
<b>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</b> modul bo'yicha umumiy tushuncha berish, evfemizm tushunchasining hususiy jihatlarini tushuntirish, so'z qo'llashda evfemizatsiyaga ahamiyat berish, uning nutqiy hodisa ekanligi, shaxs psixologiyasi bilan bog'liqligi va amaliy jihatdan muhimligi masalasi yuzasidan talabalarning ongida tasavvur hosil qilish.	
<b>Pedagogik vazifalar:</b> Evfemizm tarixi va turlari to'g'risida, shuningdek uning nutqda qo'llanish xususiyatlari to'g'risida talabalarda bilim hosil qilish; Evfemizm haqidagi ma'lumotlarga ko'nikma hosil qilish.	<b>O'quv faoliyati natijalari</b> talabalar tushuntira oladilar; Evfemizmga misollar topib, turini aniqlay oladilar; Topilgan misollar vositasida mavzuni mustahkamlaydilar.
<b>Ta’lim berish usullari</b>	Tushuntirish, munozara, suhbat, tezkor-so'rov
<b>Ta’lim berish metodlari</b>	Ommaviy, guruhlarda ishlash
<b>Ta’lim berish vositalari</b>	Elektron o'quv-uslubiy qo'llanma
<b>Ta’lim berish sharoiti</b>	Texnik ta'minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya
<b>Monitoring va baholash</b>	Og'zaki nazorat: savol-javob

## EVFEMIZMLAR

### Reja:

- 1.Evfemizmlarning o‘rganilish tarixi
- 2.Evfemizmlar tasnifi
- 3.Evfemik ma’noli birlıklarning qo‘llanish xususiyatlari

**Tayanch tushunchalar:** *evfemizm, mavzuviy tasnif, struktural tasnif, so‘z-evfema, birikma-evfema, gap-evfema, ma’nodosh-evfema, shakldosh-evfema, zid ma’noli-evfema, monosemantik evfema, polisemantik evfema, evfema qo‘llash mahorati, badiiy evfema, portret evfemasi, publitsistik evfema*

### Kirish “BBB” chizmasi

**Metodning maqsadi:** Mazkur chizma tabalarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o‘zlashtirilishini engillashtirish maqsadida qo‘llaniladi. Mavzu, matn, bo‘lim bo‘yicha izlanuvchilikni olib borish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi

#### Metodni amalga oshirish tartibi:

- yangi mavzuga o‘tishdan oldin mavzuning asosiy tushunchasi – **evfemizm** so‘zining ma’nosi so‘raladi;
- ta’lim oluvchilar qo‘yidagi jadvalni ikki ustunini tezda to‘ldirib beradilar;
- evfemizmnning tavsifi havola etadi;
- mashg‘ulotning oxirida uchinsi ustuni to‘ldirilgan holda tabalardan yig‘ib olinadi.

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
Evfemizmni eshitganman, ammo mohiyatini aniq bilmayman	Uning mazmunini tushunishni xohlayman	

“Evfemizm (grek. *euphemismos*; *eu* — yaxshi, *phemi* — gapiraman) narsa-hodisaning ancha yumshoq formasidagi ifodasi; qo‘pol, beadab so‘z, ibora va tabu o‘rnida qo‘pol bo‘limgan, botmaydigan so‘z, iborani qo‘llash.


## 1-reja. Evfemizmlarning o‘rganilish tarixi

### “Klaster” metodi

**Metodning maqsadi:** Evfemizmning o‘rganilish tarixi haqida umumiy tasavvurga ega bo‘lish, xotirada tizimli aks ettirish.

#### Metodni amalgalashish tartibi:


- o‘qituvchi klasterni talabalar e’tiboriga havola etadi;
- ta’lim oluvchilar o‘z daftarlariiga qayd etadilar;
- Mazkur chizma vositasida ta’lim oluvchilarga ma’lumot, axborot og‘zaki yetkaziladi, tushuntiriladi.



## “Venn” diagrammasi

Klasterning “qarashlar” bo‘limi ochiq qolganing boisi, uni chuqurroq o‘rganish maqsadga muvofiq. Bu o‘rinda **Venn** diagrammasi ahamiyatli. Qarashlarning alohida jihatni hamda umumiy tomonlarini solishtirish yoki taqqoslash yoki qarama-qarshi qo‘yish uchun qo‘llaniladi.

Tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.



- 1 «...evfemizm hodisasini o‘rgana turib, albatta, uning kelib chiqishi bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy-madaniy muhitni inobatga olish kerak» (Krisin L.P.)
- 5 «Evfemizm (grek. euphemismos; *eu* — «yaxshi», *phemi* — «gapiraman») narsa-hodisaning ancha yumshoq formasidagi ifodasi; qo‘pol, beadab so‘z, ibora va tabu o‘rnida qo‘pol bo‘lmagan, botmaydigan so‘z, iborani qo‘llash. Mas., *ikkiqat* so‘zi o‘rnida *homilador*, *og‘ir oyoqli* so‘zlarini qo‘llash.» (A.Hojiyev)
- 2 «Dastlab, evfemizmlar XII—XV asrlarda ingliz tilida paydo bo‘lgan. XIV asrlarda fransuz madaniyati urf bo‘la boshlaydi, bu esa tilda ham o‘z aksini topadi» (Potapova N.M.)
- 7 «O.S.Axmanovaning qayd etishicha, kakofemizm – bu disfemizmdir. Disfemizm esa tropning bir ko‘rinishi hisoblanadi. Trop biror tushuncha, muayyan so‘zning hosila ma’nosini sifatida ifoda topishi bo‘ladi. Ammo A.Shomaqsudov keltirgan misol, garchi dag‘al ifoda bergen bo‘lsa-da, trop emas, parafrazalardir.» (M.M.Mirtojiyev)
- 4 «Evfemizm – uslubiy va emosional betaraf so‘zni nisbatan ko‘pol,

noqlay so‘z bilan almashtirish» (V.N.Yarseva)

8

«... qo‘pol va dag‘al formada ifodalash usuli ham mavjud. Bunday so‘z va iboralar kokfemizm deb yuritiladi» (Shomaqsudov A.)<sup>4</sup>

3

«Disfemizm (kakofemizm) *isp.* disfemismo. Trop. muayyan matndagi predmet, narsa-hodisa nomini nisbatan qo‘pol, vulgar ifoda bilan almashtirish. Ziddi: *Evfemizm...*» (S.Axmanova)

6

«Disfemizm – denotatni salbiy baholovchi (u yoki bu darajada ma’lum bir bo‘yoq vositasida kamsituvchi, salbiylashtiruvchi) lisoniy ifoda.» (Razanova A.N.)

### «FSMU» metodi

**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ta’lim oluvchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

#### Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga klaster va venn diagrammasidan xulosa chiqarish taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatildi:

F	Fikringizni bayon eting	<i>Grafik organayzerlar shuni ko‘rsatdiki bu hodisalar o‘zbek tilshunosligida ham o‘rganilgan va u mavjud bilimlarni yanada boyitgan</i>
S	Sabab ko‘rsating	<i>Sababi, milliy mental muhit, muloqot madaniyati, axloq-odob qoidalari bunday hodisalarning nutqda o‘z ifodasini topishda imkon yaratgan.</i>
M	Misol keltiring	<i>Masalan, er-xotinning bir biriga ismini aytmasdan murojaat qilish madaniyati – hurmat yuzasidan, etika va tarbiya, qolaversa, ismi aytib chaqirilgan odamga balo yetkazmaslik istagida paydo bo‘lgan.</i>
U	Umumlashtiring, xulosalang	<i>Demak, bu nafaqat til bilan, balki, nutqiy jarayon, odob-axloq, psixologik tafakkur bilan bog‘liq hodisa ekan.</i>

## 2-reja. Evfemizmlar tasnifi


### “Klaster” metodi

**Metodning maqsadi:** Evfemizmning tasnifi haqida umumiy tasavvurga ega bo‘lish, xotirada tizimli aks ettirish.

#### Metodni amalga oshirish tartibi:

- o‘qituvchi klasterni talabalar e’tiboriga havola etadi;
- ta’lim oluvchilar o‘z daftarlariiga qayd etadilar;


Mazkur chizma vositasida ta’lim oluvchilarga ma’lumot, axborot og‘zaki yetkaziladi, tushuntiriladi.



**3-reja. Evfemik ma'noli birliklarning qo'llanish xususiyatlari**  
**Novatsion yondashuv**  
**Graduonimiya texnologiyasi**

Denotativ ma'no	Evfemik vosita
O'lmoq	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Boshi olinmoq</li> <li>2. Bu dunyoi foniyan vido' qilmoq</li> <li>3. Dunyo bilan vidolashmoq</li> <li>4. Dunyodan ketmoq</li> <li>5. Dunyodan ko'chmoq</li> <li>6. Dunyodan o'tgan</li> <li>7. Joyi jannatda bo'lmoq</li> <li>8. Jon bermoq</li> <li>9. Qazo qilmoq</li> <li>10. Qarо tuproqqa qo'shilmoq</li> <li>11. Mangulik uyquga ketmoq</li> <li>12. Saodat quchog 'iga kirmoq</li> <li>13. So 'ngi soati yetmoq</li> <li>14. Tobutga olinmoq</li> <li>15. Yoshini yashab oshini oshamoq</li> </ol>

*Mazkur Abdulla Qodiriy asarlaridan olingan "o'lmoq" so'zining evfemik ma'nolarini denotatga yaqinligiga qarab semantik jihatdan darajalang va birinchi chizmaga raqamlar bilan joylashtiring.*



Mazkur interaktiv metod iyerarxiyaning qiyosiy-tahliliy yo‘li bilan amalga oshiriladi. Denotatdan o‘sib chiqqan semalar o‘zidan oldingi yoki keyingi semaning biror xususiyatiga ko‘ra ortiq yoki kam darajalanishi nitijasida o‘rin egallab boraveradi. Bunda talabaning mantiqiy va ijodiy tahlili rivojlanadi. Bu tipdagi ta’limning ko‘rinishiga biz ijtimoiy tarmoqlarda faqat biznes sohasida qo‘llanilganini ko‘rdik.

Quyidagi darajalanish ham novatsion xarakterga ega bo‘lib, talabalardagi ijodiy tafakkur tajribasini oshirishga xizmat qiladi.

### **Graduonimik tahlil metodi**

Bunda talabalar misollarni ijobjiy bo‘yoqdoरligiga ko‘ra semantik tahlil qiladilar va darajasiga ko‘ra pog‘onaga qo‘yib chiqadilar.


*Abdulla Qodiriy asarlaridan olingan “o‘lmoq” tushunchasining evfemik vositalarini ijobjiy bo‘yoqdoरligiga ko‘ra darajalang.*



### **“T” jadval**

Mazkur metod ijodiy tafakkurni rivojlantirishga, evfemizm tushunchasiga bo‘lgan munosabatni bildirishga xizmat qiladi.

*Abdulla Qodiriy asarlaridan olingan “o‘lmoq” tushunchasining evfemik ifodalalarini “individual” va “individual emas” jihatlariga ko‘ra tasniflang.*



**T-sxema.** Evfemizm nutqiy hodisa hisoblanib, individual xususiyatga ega. Ular tez-tez qo'llanilishi tufayli umumiy stilistik vosita sifatida ommalashadi, badiiy adabiyotlarda o'z aksini topadi. Shunda, evfemiklik xususiyati sekin asta yo'qola boradi. Ayrim hollarda disfemizatsiyalashadi. Shunga ko'ra tushunchalar individuallik kasb etgandagina sof evfemik xususiyatga ega bo'ladi.

### Mustahkamlash

Darsning bu qismida mashg'ulot avvalida tarqatilgan "BBB" jadvalining uchinchi ustunini to'ldirishga vaqt beriladi. Shunga ko'ra, talabalar o'z xulosalarini og'zaki bayon etadilar.

### Esse

Darsning so'ngida har bir talabaga individual savol yoki topshiriq aks etgan kartochkalar topshiriladi va ularga berilgan savol yoki topshiriq yuzasidan uyga vazifa qilib esse yozish vazifasi yuklanadi.

1. *Evfemizm nima?*
2. *Evfemizmni mavzuviy tasniflang.*
3. *Evfemizmnинг struktural tasnifi haqida gapiring.*
4. *So 'z-evfemaga misol keltiring.*
5. *Evfemik birikma xususida nimalar deya olasiz?*
6. *Gap-evfema nima?*
7. *Ma'nodosh-evfemaga misol keltiring.*
8. *Shakldosh-evfemaga misol keltiring.*
9. *Zid ma'noli evfemaga misol keltiring.*
10. *Evfemik birlingning ma'no ko 'lamiga ko 'ra tasnifi haqida gapiring.*
11. *Evfemizmnинг metaforik, metonimik, sinekdozik, vazifadoshlik asosida ma'no ko 'chish usullariga misollar keltiring.*
12. *Implitsit evfema nima?*
13. *Evfema qo'llash mahorati xususida nimalar deya olasiz?*
14. *Portret evfemasi nima?*
15. *Badiiy evfema deganda nimani tushunasiz?*
16. *Publitsistik evfema qanday holatlarda qo'llaniladi?*

## Disfemizm mavzusini o‘qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish

### 2-MA’RUZA MASHG‘ULOT TEXNOLOGIK XARITASI

<b>2-mavzu</b>	<b>Disfemizmlar</b>
<b>Ta’lim berish texnologiyasi</b>	
<b>Mashg’ulot vaqtি 2 soat</b>	<b>Talabalar soni 25 ta gacha</b>
<b>Mashg’ulot shakli</b>	<b>Mavzu bo'yicha bilim va ko'nikmalarni kengaytirish yuzasidan ma'ruza mashg'uloti.</b>
<b>Ma'ruza mashg'ulot rejasи</b>	<p>1. Evfemizm haqida 5 minutlik esse yozish. O'tilgan mavzuni takrorlash.</p> <p>2. Disfemizmlarning o'rganilish tarixi xususida axborot berish.</p> <p>3. Disfemizmlarning tasnifi haqida ma'lumotlar berish.</p> <p>4. Disfemik ma'noli birliklarning qo'llanish xususiyatlari yuzasidan fikrlar almashinadi.</p> <p>5. Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar berish.</p>
<b>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</b> disfemizm tushunchasining hususiy jihatlarini tushuntirish, so'z qo'llashda disfemizatsiyaga ahamiyat berish, uning nutqiy hodisa ekanligi, shaxs psixologiyasi bilan bog'liqligi va nomadaniy hodisa ekanligi yuzasidan talabalarning ongida tasavvur hosil qilish.	
<b>Pedagogik vazifalar:</b> Disfemizm tarixi va turlari to‘g‘risida, shuningdek uning nutqda qo'llanish xususiyatlari to‘g‘risida talabalarda bilim hosil qilish; Disfemizm haqidagi ma'lumotlarga ko'nikma hosil qilish.	<b>O'quv faoliyati natijalari</b> talabalar tushuntira oladilar; Disfemizmga misollar topib, turini aniqlay oladilar; Topilgan misollar vositasida mavzuni mustahkamlaydilar.
<b>Ta’lim berish usullari</b>	Tushuntirish, munozara, suhbat, tezkor-so'rov
<b>Ta’lim berish metodlari</b>	Ommaviy, guruhlarda ishslash
<b>Ta’lim berish vositalari</b>	Elektron o'quv-uslubiy qo'llanma
<b>Ta’lim berish sharoiti</b>	Texnik ta'minlangan, guruhlarda ishslash uchun mo'ljallangan auditoriya
<b>Monitoring va baholash</b>	Og'zaki nazorat: savol-javob

## DISFEMIZMLAR

### Reja:

1. Disfemizmning o‘rganilish tarixi
2. Disfemizmning tasnifi
3. Disfemik ma’noli birlıklarning qo’llanish xususiyatlari

**Tayanch tushunchalar:** *disfemizm, jargon, argo, mavzuviy tasnif, struktural tasnif, so’z-disfema, birikma-disfema, gap-disfema, ma’nodosh-disfema, zid ma’noli-disfema, monosemantik disfema, polisemantik disfema, disfema qo’llash mahorati, badiiy disfemizm, siyosiy tushuncha disfemizmi*

### Kirish


#### “Aqliy hujum” metodi

Evfemizm mavzusini disfemizm mavzusi bilan bog‘lashda “aqliy hujum” eng samarali metoddir. Talabadar e’tiboriga quyidagi ta’rif havola etiladi va bu xususda fikr mulohazalar so‘raladi.


O.S.Axmanova: “**Dişfemizm (kakofemizm) isp. disfemismo. Trop. muayyan matndagi predmet, narsa-hodisa nomini nisbatan qo‘pol, vulgar ifoda bilan almashtirish. Ziddi: Evfemizm...**”

So‘ngra barcha mulohazalar birlashtiriladi. Va qiyosiy tahlil qilinadi. Bunda “venn” diagrammasidan foydalanish o‘rinli.


## “Venn” diagrammasi



## Masalan: “it tekkan”




## 1-reja. Disfemizmning o‘rganilish tarixi Klaster



Xulosa, Evfemizmning aksi hisoblangan disfemizm hodisasi ham qadimdan mavjud bo‘lgan bo‘lsa-da, evfemizmdan farqli o‘laroq, kam o‘rganilgan. Buning sababini esa, madaniy muloqot me’yorlaridan izlash muhim. Chunki ular badiiy adabiyotda, madaniy muloqot muhitida odob nuqtai nazaridan berilishi mumkin bo‘lmagan birlik sifatida qaralgan. Odatda, tilshunoslikka oid lug‘atlarda disfemizm xususida alohida to‘xtalinmay, unga evfemizm bo‘limida yo‘l-yo‘lakay izoh berilib ketiladi. Masalan, “**uslubiy va emotsional betaraf so‘zni nisbatan qo‘pol, noqulay so‘z bilan almashtirish**” yoki “**Disfemizm – denotatni (tahqirlovchi, u yoki bu tarzdagi ottenkali) salbiy bo‘yoqdir so‘z bilan ifodalash.**”

## 2-reja. Disfemizmning tasnifi “Klaster” metodi



Xulosa, Disfemizatsiya leksemalarning nutqiy differentsiatsiyasini ham keltirib chiqaradi. Bu esa, o'z navbatida, nutqiy ma'nodoshlik qatorining boyishini ham ta'minlaydi. Ayniqsa ma'nodoshlik, zid ma'nolilik holatlari e'tiborga molik. Shuningdek, disfemik ma'noli birliklar kam ekanligi jihatdan uning mavzuiy guruhlari doirasi ham asosan so'kish, haqarat, qarg'ish, kinoya, masxara tushunchalarini ifodalovchi birliklar bilan chegaralanadi. Disfemik birliklar ma'noviy ko'lami jihatidan: metaforik nominatsiya, metonimik nominatsiya, sinekdoxik nominatsiya kabilari ham o'zaro farqlanadi. Va nihoyat so'z, ibora, so'z birikmasi, gap shaklidagi disfemik ma'noli birliklar farqlandi.

### **3-reja. Disfemik ma'noli birliklarning qo'llanish xususiyatlari “Tahliliy” metod**

Disfemizmni qo'llashdan asosiy maqsad denotatga salbiy bo'yoq berish va shu bilan axborot qabul qiluvchida salbiy munosabat uyg'otishdir.

#### **Grafik organayzer**

Ta'sir vazifasi				
Ta'sir strategiyasi				
salbiy ta'sir qilish	fosh qilish	uyaltirish	ayblash	tahqirlash

#### **Matn tahlili**

Abdulla Qodiriyning “Qizil bayroq” gazetasida 1922-yil 28-aprelda bosingan “Azob bog‘chasida – yig‘i-sig‘i kechasi” deb nomlangan “kichkina feleto’n”ida kinoya asosidagi disfemik ifodalarning ko‘pini uchratish mumkin. Adib Shayxontohur tumanidagi hozirgi Abdulla Qodiriy bog‘i bilan sirk binosi oralig‘ida joylashgan “Rohat boqchasi”ni “azob boqchasi”, undagi “qiziq kecha”larni teskari ma’noli ifoda – yig‘i-sig‘i kechasi birikmasi bilan ifodalashda ana shunday piryomlarni qo'llaydi. Shuningdek, o‘zlarining kechaga borganlarida odmi kiyimlarda bo‘lganligiga “boqcha” xodimlarining salbiy munosabati natijasidagi holatini *tanazzulda qolg‘onlig‘* birikmasi bilan kuchaytirib beradi. Albatta, bunda disfemik ma’no kinoyaviy asosda emas, balki shunchaki holatni salbiy tomonga kuchaytirish asosida berilgan.

Siyosiy tushunchalarni yopiq ifodalashda fonografik, leksik, morfologik va tekstual vositalardan foydalilanildi. Alliteratsiya, qofiya, tinish belgilari, metagrafik vositalar (qoraytirib yozish, tagiga chizish, bosh harflar bilan berish) bunda manipulyativ vositalar sifatida namoyon bo‘ladi. *Madaniyat boqchasining madaniy yigitlari*, “azob bog‘chasida – yig‘i-sig‘i kechasi”, “baba” kabilar bunga misol bo‘la oladi.

Umuman olganda, siyosiy disfemizmlar turli shakl va maqsadda ishlataligan bo‘lsa-da, ular orasida tinglovchi yoki o‘quvchida salbiy taassurot qoldirish, voqelikni aslidan ko‘ra bo‘rttirish vazifasi ko‘zga

alohida tashlanib turadi. Bunda disfemik ma’no ochiq yoki manipulyativ asosda ifodalanadi.

## Mustahkamlash

### Esse

Darsning so‘ngida har bir talabaga individual savol yoki topshiriq aks etgan kartochkalar topshiriladi va ularga berilgan savol yoki topshiriq yuzasidan uyga vazifa qilib esse yozish vazifasi yuklanadi.

1. *Disfemizm nima?*
2. *Disfemizmning yondosh hodisalar bilan munosabati xususida gapiring.*
3. *Disfemik ma’noli birlklarni mavzuiy tasniflang.*
4. *Disfemizmning struktural tasnifi haqida nimalar deya olasiz?*
5. *So ‘z-disfemaga misol keltiring.*
6. *Birikma shaklidagi disfemik birlklarga misol keltiring.*
7. *Gap-disfema xususida gapiring.*
8. *Ma’nodosh-disfema deganda nimani tushunasiz?*
9. *Shakldosh-disfemaga misol keltiring.*
10. *Qanday zid ma’noli disfemik birlklarni bilasiz?*
11. *Disfemik ma’noli birlikning ma’no ko ‘lamiga ko ‘ra qanday turlari bor?*
12. *Metaforik, metonimik, sinekdoxik, vazifadoshlik asosida ma’no ko ‘chgan disfemik birliklar xususida gapiring.*
13. *Kinoya shaklidagi disfemizmga misol keltiring.*
14. *Disfema qo ‘llash mahorati deganda nimani tushunasiz?*
15. *Badiiy disfemizm nima?*
16. *Siyosiy tushuncha disfemizmi haqida gapiring.*

**“Evfemizm” mavzusining amaliy mashg‘ulotini o‘tishda  
pedagogik texnologiyalardan foydalanish**

**1-AMALIY MASHG‘ULOT TEXNOLOGIK XARITASI**

<b>1-mavzu</b>	<b>Evfemizmlar</b>
<b>Ta’lim berish texnologiyasi</b>	
<b>Mashg‘ulot vaqtি 2 soat</b>	<b>Talabalar soni 25 ta gacha</b>
<b>Mashg‘ulot shakli</b>	<b>Mavzu bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni kengaytirish va ijodiy tafakkurni rivojlantirish yuzasidan amaliy mashg‘uloti.</b>
<b>Ma’ruza mashg‘ulot rejasи</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Evfemizm tushunchasini mustahkamlashda qo'llaniladigan mashqlarni bajarish;</li> <li>2. Mashqlarni bajarishda interaktiv matodlardan foydalanish;</li> <li>3. Mashqlarni bajarish davomida talabalar faoliyatini baholash.</li> </ol>
<p><b>O’quv mashg‘ulotining maqsadi:</b> modul bo'yicha bilim va ko'nikma hosil qilish, evfemizmlar bilan ishlash natijasida ularning hususiy jihatlari bilan yaqindan tanishish, evfemik vaziyatlar hosil qilish malakasini oshirish, mazkur nutqiy hodisa bilan bog‘liq talabalarning ijodiy tafakkurini oshirish.</p>	
<b>Pedagogik vazifalar:</b> Evfemizm bilan talabalarni yaqindan tanishtirish; Nutq jarayonida sodir bo‘ladigan evfemizatsiya hodisasini farqlay olishiga erishish.	<b>O’quv faoliyati natijalari</b> talabalarning ijodiy faoliyati rivojlanadi; Evfemizmga oid misollar yordamida nutqiy savodxonligi oshadi; Evfemik hodisalarni tahlil qila oladi.
<b>Ta’lim berish usullari</b>	Analiz, sintez, qiyoslash, tasniflash, erkin fikr bildirish
<b>Ta’lim berish metodlari</b>	Ommaviy, guruhlarda ishlash
<b>Ta’lim berish vositalari</b>	Elektron o’quv-uslubiy qo’llanma
<b>Ta’lim berish sharoiti</b>	Texnik ta’minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo’ljallangan auditoriya
<b>Monitoring va baholash</b>	Og’zaki nazorat: yozma mashq natijalari va faolligi

## 1-amaliy mashg‘ulot

**1-mashq.** 1. *Bunga o‘xshagan bir kam yuzlar boplayapti-da, jamiyatni.* (S.Ahm.) 2. *Sotiboldining xotini og‘rib qoldi.* (A.Qah.) 3. *Yopiqliqda kun kechirish azobini mendan so‘rang.* (Shukr.) 4. *O‘rtoqlarim yuraksiz yigitlar emas, bu yog‘idan xotirjam’ bo‘lingiz.* (A.Qod.) 5. *Bu qiz ne-ne orzu-umidlar bilan u bilan bir yostiqqa bosh qo‘ydi.* (A.Juma.) 6. *Bu kishi kimingiz? – deb so‘ragan savoliga javob topishga ulgurmagan edim, o‘zi yordam qildi: – Ahliyatingizmi? – Ha, ahliyatim deb qutuldim.* (Cho‘lp.) 7. *Hozir yana uning bo‘yida bo‘lgan, uch oydan keyin farzand tug‘ilishi kerak.* (P.Q.) 8. *O‘g‘rilar esa bahuzur “ish”ni davom ettirdilar.* (A.Qod.) 9. *Stolning ustiga tentak suvni keltirib qo‘ydi.* (S.Siyo.) 10. *Nurmatjon magazindan aroq olganida, “uyga borib, yonboshlab maydalayman”, deb o‘ylagan edi.* (S.Ahm.)

## GAPLARDAGI KO‘CHMA MA’NOLI BIRLIKLARNI ANIQLANG

### “Insert” metodi

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod talabalarda evfemizm mavzusini tushunish va tahvil qilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi.

#### Metodni amalga oshirish tartibi:

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar evfemizm ko‘chimli matnlar aks etgan taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- evfemizm mohiyatini yorituvchi matnlar ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

#### Belgilar:

- V – bilaman
- (-) – to‘g‘ri kelmadи
- (+) – yangi axborot
- (?) – tushunmadim

№	V	-	+	?
1.			<i>kam yuzlar</i>	
2.	<i>og‘rib qoldi</i>			
3.			<i>Yopiqliqda kun kechirish</i>	
4.				<i>yuraksiz</i>

<b>5.</b>	<i>bir yostiqqa bosh qo'ydi</i>			
<b>6.</b>			<i>Ahliyatingizmi</i>	
<b>7.</b>	<i>bo'yida bo'lgan</i>			
<b>8.</b>			<i>"ish"ni davom ettirdilar</i>	
<b>9.</b>			<i>tentak suv</i>	
<b>10.</b>			<i>maydalayman</i>	

**BU BIRLIKALAR IFODALAYDIGAN DENOTATLARNING ASL  
TUSHUNCHASINI TOPING**

**“Tushunchalar tahlili” metodi**

**Metodning maqsadi:** mazkur metod talabalarni mavzu buyicha evfemik ko‘chimlarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, mavzu buyicha bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo’llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:


- talabalar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- talabalarga tushunchalar qatnashgan kichik matn tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- talabalar mazkur ko‘chimlar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo’llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga etgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi;
- har bir ishtirokchi berilgan to‘g‘ri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaysidi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

<b>Evfemik ko‘chimlar</b>	<b>Sizningcha uning asl ma’nosи nima?</b>	<b>Qo’shimcha ma’lumot</b>
<i>bir kam yuzlar</i>	Yuzi yo‘q	Yuz bo‘lishga nimadir etmaydi
<i>og‘rib qoldi</i>	Kasal bo‘ldi	Kasal bo‘lganda biror eri og‘riydi
<i>Yopiqliqda kun kechirish</i>	Paranjida kun kechirish	Uning ham mashaqqati bor
<i>yuraksiz yigitlar</i>	Vijdonli, birovning dardini tushunadigan	
<i>bir yostiqqa bosh</i>	Turmush qurdi	Turmush kurganda


<i>qo'ydi</i>		birga yotishadi
<i>Ahliyatingizmi?</i>	Xotingizmi	Ahli bo'lmoq
<i>bo'yida bo'lgan</i>	Ikkiqat, bo'g'oz	
<i>"ish"</i>	O'g'rilik	Bu ham bir yumush
<i>tentak suv</i>	Araq	Araq ichganda odam o'zini tentakdek tutadi
<i>maydalayman</i>	Araqni oz-ozdan ichaman	

## KO'CHMA MA'NOLI BIRLIKLARNI IKKIGA AJRATING

### "Venn" diagrammasi



Evfemizm nutqiy hodisa hisoblanib, individual xususiyatga ega. Ular tez-tez qo'llanishi tufayli umumiylar stilistik vosita sifatida ommalashadi, badiiy adabiytlarda o'z aksini topadi. Shunda, evfemiklik xususiyati sekin asta yo'qola boradi. Ayrim hollarda disfemizatsiyalashadi. Shunga ko'ra tushunchalar individuallik kasb etgandagina sof evfemik xususiyatga ega bo'ladi.



- 2-mashq.** 1. Soqoliga oq tushgan Dehqon ota minarda. (H.Olim.)  
 2. O'tirganlarning hammasi oq ichishdi. (Mirm.) 3. Xumsa semizing

*keldi-kettini faqatla oqsoqol bilan sug'orar ekan.* (A.Qod.) **4.** *Bugun yoshi oltmisning nari berisida bo'lgan yoki umri vafo qilmay hayotdan ko'z yumgan "ikkinchi avlod" deb atalmish oqsoqollarimiz haqida gapiramiz.* (O'.Hosh.) **5.** *O'zingizga ma'lum, 6 yildan beri keliningiz bilan... Endi almashtiray desam, bir yog'i Shamsi akamlarga qarindosh.* (N.Amin.) **6.** *Jo'n odamlar qatorida odam o'ldirib yurdim, degin?* (A.Qod.) **7.** *Salimxonning yoniga cho'kkalab, – zanjirni shiqirlatsam ham, devorni yiqtib kirsam ham, erta-indin to'rtta soladat oldiga tushamiz.* (A.Qah.) **8.** *Ha, o'sha Shonazar aka besh yil olibdi.* (N.Amin.) **9.** *Xonim, muborak bo'lsin, qizingiz o'ng'aygina qutildi, o'g'ilgina ekan.* (M.Koz.) **10.** *Men seni halol yo'ldosh qilaman degan edi.* (Cho'lp.)


## BERILGAN GAPLARDAGI EVFEMIK MA'NOLI BIRLIKLARNI ANIQLANG. BU BIRLIKLARNI QUYIDAGI BELGILARI ASOSIDA TASNIFLANG

### **"Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi" metodi**

**Metodning maqsadi:** evfemik ko'chimlarning turlarini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, mavzu buyicha bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo'llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- talabalar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- talabalarga tushunchalar qatnashgan kichik matn tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- talabalar mazkur ko'chimlar turini aniqlab tegishli katakka strelka chizadilar.



**“Disfemizm” mavzusining amaliy mashg‘ulotini o‘tishda  
pedagogik texnologiyalardan foydalanish**

**2-AMALIY MASHG‘ULOT TEXNOLOGIK XARITASI**

<b>2-mavzu</b>	<b>Disfemizmlar</b>
<b>Ta’lim berish texnologiyasi</b>	
<b>Mashg‘ulot vaqtি 2 soat</b>	<b>Talabalar soni 25 ta gacha</b>
<b>Mashg‘ulot shakli</b>	<b>Mavzu bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni kengaytirish va ijodiy tafakkurni rivojlantirish yuzasidan amaliy mashg‘uloti.</b>
<b>Ma'ruza mashg‘ulot rejasи</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Disfemizm tushunchasini mustahkamlashda qo'llaniladigan mashqlarni bajarish;</li> <li>2. Mashqlarni bajarishda interaktiv matodlardan foydalanish;</li> <li>3. Mashqlarni bajarish davomida talabalar faoliyatini baholash.</li> </ol>
<b>O'quv mashg‘ulotining maqsadi:</b> modul bo'yicha bilim va ko'nikma hosil qilish, disfemizmlar bilan ishlash natijasida ularning hususiy jihatlari bilan yaqindan tanishish, disfemik vaziyatlarning oldini olish, mazkur nutqiy hodisa bilan bog'liq talabalarning nutqiy va madaniy savodxonligini oshirish.	
<b>Pedagogik vazifalar:</b> Disfemizm bilan talabalarni yaqindan tanishtirish; Nutq jarayonida sodir bo'ladigan disfemizatsiya hodisasini farqlay olishiga erishish.	<b>O'quv faoliyati natijalari</b> talabalarning nutq meyorlariga rioya qilish malakasini oshiradi; Disfemizmga oid misollar yordamida nutqiy savodxonligi oshadi; Disfemik hodisalarni tahlil qila oladi.
<b>Ta’lim berish usullari</b>	Analiz, sintez, qiyoslash, tasniflash, erkin fikr bildirish
<b>Ta’lim berish metodlari</b>	Ommaviy, guruhlarda ishlash
<b>Ta’lim berish vositalari</b>	Elektron o'quv-uslubiy qo'llanma
<b>Ta’lim berish sharoiti</b>	Texnik ta'minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya
<b>Monitoring va baholash</b>	Og'zaki nazorat: yozma mashq natijalari va faolligi

## 2-amaliy mashg‘ulot

**1-mashq.** 1. *Masalan, “O’rtiq Akmal Cho ‘lponboyning... she’ri bilan ziylolilarning aftiga tupurgani holda yana nima uchundir, “Hezlar tavba qilsa ularga firqaning qulog‘i ochiq”, deb qo‘yadir. (A.Qod.) 2. So‘fi takbir tushirar ekan, maxdumning ko‘nglidan «Ra’noga cho‘ri qo‘sha ko‘rmasinlar-da, tishlik hayvonning bo‘lg‘anidan bo‘limg‘ani yaxshi» degan andisha kechti... (A.Qod.) 3. Ammo bul joy tilovatxonalar ermas erkan, shaytonxona erkan! (A.Qod.) 4. Bu kun kechasi Toshkand qon ichida, mahallalarda bo‘lg‘an hukumat kishilari xalq tomonidan o‘ldiriladilar, uylariga o‘t qo‘yilib mollari talong‘a tushadir. 5. Oyimning bir qiziq odati bor: har qachon yangiroq kiyim kiymakchi bo‘lsam, ko‘zini ola-kula qilib: «qaqshag‘ir, kir qilasan, to‘y-po‘yga borganda kiyarsan!» – deb qarg‘ay boshlaydi. (A.Qod.)*

GAPLARDAGI KO‘CHMA MA’NOLI BIRLIKLARNI ANIQLANG.  
BU BIRLIKLAR IFODALAYDIGAN DENOTATLARNING ASL  
IFODALOVCHILARINI TOPING

### “Tushunchalar tahlili” metodi

**Metodning maqsadi:** mazkur metod talabalarni mavzu buyicha disfemik ko‘chimlarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, mavzu buyicha bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo‘llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- talabalar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- talabalarga tushunchalar qatnashgan kichik matn tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- talabalar mazkur ko‘chimlar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga etgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi;
- har bir ishtirokchi berilgan to‘g‘ri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaysidi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

<b>ko‘chimlar</b>	<b>Sizningcha uning asl ma’nosi nima?</b>	<b>Qo‘shimcha ma’lumot</b>
<i>aftiga tupurgan</i>	Nafsoniyatiga tekkan, haqorat qilgan	
<i>Hezlar</i>	Biror narsani eplay olmaydigan	Haqorat so‘z
<i>firqanining qulog‘i ochiq</i>	G‘iybatni, yomonlikni jon dili bilan eshitadi	
<i>tishlik hayvon</i>	Cho‘ri	
<i>shaytonxona</i>	Yoomon io‘lar bajariladigan joy	Yomonlikka undovchi shaytonga ishora
<i>Toshkand qon ichida</i>	Odamlar vaxshiyarcha o‘ldirilmoqda	O‘lmning ko‘pligidan qonlar ko‘p, qonga to‘lgan ma’nosida
<i>qaqshag‘ir</i>	O‘lgur (qarg‘ish)	Kasal bo‘lib, qaqshab o‘lishga ishora
<i>ko‘zini ola-kula qilib</i>	Hayron bo‘lib, soxta taajubda qodib	Odamning fizik holatiga ishora

## KO‘CHMA MA’NOLI BIRLIKLARNI IKKIGA AJRATING

### “Qiyyosiy tahlil” metodi

<b>Denotatni qo‘pol ifodalagan birliklar</b>	<b>Salbiy bo‘rttirishga xizmat qiluvchi birliklar</b>
<i>aftiga tupurgan</i>	<i>firqanining qulog‘i ochiq</i>
<i>Hezlar</i>	<i>Toshkand qon ichida</i>
<i>tishlik hayvon</i>	<i>ko‘zini ola-kula qilib</i>
<i>shaytonxona</i>	
<i>qaqshag‘ir</i>	

**2-mashq.** 1. *Kelin ko‘rib yurgan va kelin bo‘lg‘an «aqli qisqa» xotun-qizlarning o‘takasini yorib, nechtalarining bolalarini tushirdi.* (A.Qod.) 2. *Bu yerdagи bolalari ahvollaridan so‘rasalar, alhamdulilloh, ular ham erkagu urg‘ochi, bo‘g‘ozu qisr degandek o‘ynab kulib yuriydirlar.* (A.Qod.) 3. *Gapka buncha chechan bu haromilar.* (A.Qod.) 4. *To‘vba, bu avlodning bir zuvolasi haromdan, Xamfabuvi, Norpochchani o‘zi qurib ketkurniyam shayton ali qoplag‘an.* (A.Qod.) 5. *Nekalay taxtdan yiqlig‘andan keyin oddiy xalq militsasiga ko‘ngilli*

*bo 'lub yozildim. (A.Qod.) 6. Ammo charxi kajraftor davrasini teskaridan olib, shartta inqilob degan kasofat yuz ko 'rsatgan edi, shilq etib bizning Mahdixonimiz ham kursisidan qulab tushdi. (A.Qod.) 7. Agar ul sirringizni bilgan bo 'lg 'anda ham allaqachon kelaturgan ishka tushunib olib, Marg 'ilondan dumini xoda qildi, desangiz-chi! (A.Qod.)*


## BERILGAN GAPLARDAGI DISFEMIK MA'NOLI BIRLIKLARNI ANIQLANG. BU BIRLIKLARNI QUYIDAGI BELGILARI ASOSIDA TASNIFLANG

### “Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi” metodi

**Metodning maqsadi:** disfemik ko‘chimlarning turlarini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, mavzu buyicha bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo‘llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- talabalardan mashg‘ul qoidalari bilan tanishtiriladi;
- talabalarga tushunchalar qatnashgan kichik matn tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- talabalardan mazkur ko‘chimlar turini aniqlab tegishli katakka strelka chizadilar.



# **Modulning mustahkamlash hamda nazorat masalalarida interaktiv metodlarning o‘rni**

## **Referat**

Talabalarni muammoga oid ma'lumotlarni to‘plash, ularni tahlil qilish, umumlashtirish, mohiyatini yoritish, muammoni hal etish usul va vositalarini tavsiflash, ularning ahamiyatini asoslashga o‘rgatishning yaxshi usullaridan biri “referat”dir. U mustaqil o‘quv faoliyatining bir turi bo‘lib, bir nechta bosqichlarda amalga oshiriladi.<sup>1</sup>

1. Referat mavzusini tanlash.
2. Mavzuga oid adabiyot va meyoriy manbalarni tanlash.
3. Tanlangan adabiyotlarni o‘rganish.
4. Referat rejasini tuzish.
5. Manbaa axborotlarini referat rejasiga maqsadli qayta taqsimlash.
6. Turli ma'lumotlarni to‘plagach, shaxsiy tahliliy fikrlar bilan mualliflar nuqtai nazaridagi tanqidiy baholarni bog‘lab mantiqiy matn tuzish.
7. Referatni o‘qib chiqish.
8. Matnni tahrirlash va referatning yozilish tartibiga tushurish.
9. Himoyaga olib chiqiladigan fikrlarni qoralash.
10. Referatning baholanishi.

### **Referatning yozilish tartibi**

1. Titul varag‘i(familiya, ismi, qabul qiluvchining ismi va familiyasi, o‘quv yurt nomi va predmet nomi)
2. Referat mavzusi va rejası
3. Kirish (1,5-2 bet)
4. Asosiy qism (1, 2, 3 paragraf – 12-15 bet)
5. Xulosa (1-2 bet)
6. Adabiyotlar ro‘yxati (8-10 nomdagi)
7. Ilovalar (majburiy emas)

<sup>1</sup> Симакова С.И. Реферат как самостоятельной учебной деятельности (методика написания).// Челябинский гуманитарий. – 2010, № 10

## **Referat mavzulari:**

- 1.Evfemizm va disfemizmlarning yondosh hodisalarga munosabati.
- 2.Evfemizm va disfemizmlarda darajalanish.
- 3.So‘zlashuv nutqiga xos evfemizm va disfemizmlar.
- 4.Evfemizm va disfemizmlarda milliy mentalitetning namoyon bo‘lishi.
- 5.Evfemizmlar va disfemizmlarning etnik va professional xoslanganligi.

## **Keys**

*Anvar qishloqdan Toshkentdagi Ko‘kcha mahallasiga ko‘chib keldi. Bu eski mahallada 60 ga yaqin xonodon bor. Anvar qo‘snilar bilan tanishish maqsadida ko‘chaga chiqqanida Salim otani ko‘rib qoldi. Salom alikdan so‘ng:*

- *Iya, uka, sizni tanimadim... yangi qo‘sni sizmisiz? – dedi Salim ota.*
- *Ha, ismim Anvar. Qishloqdan bu yerga ko‘chib keldik. Siz Salim otasiz-a? Nima uchun narigi eshikda odam to‘planib turibdi?*
- *Haa, Hadicha xolangizni berib qo‘ydik. Peshinga chiqarsiz??*
- *Berib qo‘ydik....*

*Bir muddat anglashmovchilikdan so‘ng:*

- *Haa, qaytish bo‘b qoldimi?*
- *Yo‘o‘q, vafot etdi.*

*Anvar endi to‘g‘ri tushunganini anglab yetdi.*

- *Janoza peshinda, – dedi Salim ota.*
- *Peshinda... tushdan keyinmi?*
- *12 larda, bolam 12 larda.*

*Anvar Salim ota bilan xayrlashgach, ikki qadam yurgandan keyin ko‘cha supurayotgan yosh kelinni ko‘rdi. Salom alikdan so‘ng Anvar bu yerda turar joy masalasida xujjatlar bilan kim shug‘ullanishini so‘radi.*

- *Kechirasiz, mullaka, man bilmiman. Ukangizam yo‘g‘idilar.*

*Anvar biroz anglayolmay qoldi. “Tavba, ukamning nima aloqasi bor...”*

*Anvar uyga kirdi-yu ayoliga qarab:*

- *Xotin, bu yerning kishilarini tushunish uchun ancha vaqt ketadiganga o‘xshaydi, – dedi va divanga yonboshlab ko‘zini yumib oldi.*

## **Amaliy mashq**

Kichik muammo va katta muammoni toping.

<b>Kichik muammo</b>	<b>Katta muammo</b>
Anvar hudud aholising nutqiy belgilarini tushunmadi.	Anvar va hudud ahli adabiy tilda so‘zlashmadi.

## **Savollar**

1. Nima uchun Anvar qo‘snilarni tushunmadi?
2. Anvar qanday yo‘l tutishi kerak? Qo‘snilar-chi?
3. Tilning bu kabi vositalari haqida nimalarni bilasiz?

## **Topshiriq**

Keys matnida uchragan evfemizm va disfemizmlarni ko‘chirib yozing va ularning o‘rniga adabiy nutq vositalarini qo‘llab ko‘ring. Munosabat bildiring.

## UMUMIY XULOSALAR

O‘zbek tili lisoniy imkoniyatlari nutqiy voqelanishining o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘lgan evfemizm va disfemizmlarda til va ma’naviyat, til va ruh mushtarakligi yaqqol namoyon bo‘ladi. U milliy ma’naviyat muammosi global ahamiyat kasb etgan bugungi kunda milliy mentalitetni aks ettiradi. Ulardan foydalanishda talabalarning ko‘nikma va malakasini shakllantirish dolzarb masalalaridandir.

Umuman olganda, evfemik va disfemik birlıklarning möhiyatini talabalarga yetkazish ehtiyoji borligi xususidagi fikr, ularning nutqidagi nuqsonlarni kuzatish bilan dunyoga keldi. Toki pedagog oldiga qo‘yilgan davlat va jamiyatning barkamol avlod hamda yetuk kadrlar yetkazib berish talabi yetaricha qondirilmas ekan, dasturlarga zamon bilan hamnafas ishlov berish, mavzularni ko‘rib chiqish va qaysidir o‘rinlarda o‘zgartirish kiritish ham muayyan samaradorlikka ta’sir qiladi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Zero, *yer tishlamoq, to‘ng‘iz qo‘pmoq, asfala sofiga jo‘natmoq* kabi iltifotsiz, masxara, istehzo, qarg‘ish kabi qo‘pol vositalar dialektlarda o‘rnashib qolgan, so‘zlovchi nutqida odatiy ifoda sifatida «o‘tirib» qolgan so‘z va iboralar talay.<sup>1</sup> Ularni bartaraf etish uchun ta’lim-tarbiya jarayonida boshqa sohalar bilan integratsion tarzda o‘qitishni davr taqozo qilmoqda. Ehtimol, bu vositalarni o‘rganish talaba-yoshlarga mustaqil ta’lim sifatida berilar. Biroq, mavzu pedagog bilan birga nazariy va amaliy o‘rganilmas ekan, bilim bilimligicha qolib, ko‘nima va malaka shakllanmaydi. Shunday ekan, mazkur vositalar xususida nafaqat ko‘nikma va malakani, balki ijodiy tafakkur tajribasini ham yoshlar onggiga singdirib, dars mashg‘ulotlarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

<sup>1</sup> Disfemizm – denotatni salbiy baholovchi (u yoki bu darajada ma’lum bir bo‘yoq vositasida kamshituvchi, salbiylashtiruvchi) lisoniy ifoda.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 30-maydagi "Kompyuterlashtirish yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-maydagi “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-4797-sonli Farmoni.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2007.
5. Ismatullayev N. Hozirgi o‘zbek tilida evfemizmlar // ToshDPI ilmiy asarlari. – T., 1963. 1-kitob. T.42. – B. 8, 19-28, 3-59;
6. Ismatullayev N. Evfemizmlarning lug‘at sostavini va so‘z ma’nolarini boyitishdagi ahamiyati // ToshDPI ilmiy asarlari. – T., 1964. 2- kitob. – B. 3-12.
7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 2-jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – 582 b.
8. Omonturdiyev A. Bir so‘z lug‘ati. – Termiz: Jayxun, 1996. – 45 b.
9. Omonturdiyev A.J. Evfemik vositalarning funksional xususiyatlari: Filol. fanlari nomzodi... diss. – T., 1997. – 176 b.
10. Omonturdiyev A.J. Professional nutq evfemikasi (Chorvadorlar nutqi misolida): Filol. fanlari d-ri... diss. avtoref. – T., 2009.
11. Yo‘ldoshev R.A. O‘zbek tili darslarida talabalarning og‘zaki nutqini ularni ko‘p gapirtirish orqali o‘stirish metodikasi. – T.: Fan va texnologiya, 2012. – 212 b.
12. Бойко Т.В. Эвфемия и дисфемия в газетном тексте: дисс. ... канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2008.
13. Исматуллаев Н. Эвфемизмы в современном узбекском языке: Автореф. дисс... канд. филол. наук. — Т., 1963.
14. Резанова А.Н. Дисфемия в английском языке: семантические механизмы и pragmaticальные функции: Дисс... канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2008.
15. Симакова С.И. Реферат как самостоятельной учебной деятельности (методика написания).//Челябинский гуманитарий. №10 – 2010,

## MUNDARIJA

1. KIRISH	3
2. 1-ma’ruza.	5
2.1. EVFEMIZMLAR	5
2.2. Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar	31
2.3. AMALIY MASHG‘ULOT UCHUN MASHQLAR	33
2.4. SEMINAR MASHG‘ULOTI	34
2.5. Seminar mashg‘ulotida qo‘yilgan masalalarga tayyorlanish uchun uslubiy tavsiyalar	34
2.6. ADABIYOTLAR	36
3. 2-ma’ruza	38
3.1. DISFEMIZMLAR	38
3.2. Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar	52
3.3. AMALIY MASHG‘ULOT	54
3.4. SEMINAR MASHG‘ULOTI	55
3.5. Seminar mashg‘ulotida qo‘yilgan masalalarga tayyorlanish uchun uslubiy tavsiyalar	55
3.6. ADABIYOTLAR	57
4. Mustaqil ish mavzulari	58
5. Test	59
6. “EVFEMIZM VA DISFEMIZM” MODULINI O‘TISHDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	81
6.1.1. Leksikologiya bo‘limida evfemizm va disfemizm modulini joriy etishning ahamiyiti	82
6.2. EVFEMIZM VA DISFEMIZM MODULINING O‘QUV-USLUBIY TA’MINOTI	86
6.2.1. “Evfemizm va disfemizm” modulining o‘quv-uslubiy qo‘llanmasining metodik ishlanmasi	86
6.2.2. Modulning mustahkamlash hamda nazorat masalalarida interaktiv metodlarning o‘rni.	113
6.3. UMUMIY XULOSALAR	116
7. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	117







**More Books!**

**I want morebooks!**

Buy your books fast and straightforward online - at one of world's fastest growing online book stores! Environmentally sound due to Print-on-Demand technologies.

Buy your books online at  
**[www.morebooks.shop](http://www.morebooks.shop)**

Kaufen Sie Ihre Bücher schnell und unkompliziert online – auf einer der am schnellsten wachsenden Buchhandelsplattformen weltweit! Dank Print-On-Demand umwelt- und ressourcenschonend produziert.

Bücher schneller online kaufen  
**[www.morebooks.shop](http://www.morebooks.shop)**

KS OmniScriptum Publishing  
Brivibas gatve 197  
LV-1039 Riga, Latvia  
Telefax: +371 686 20455

[info@omnascriptum.com](mailto:info@omnascriptum.com)  
[www.omnascriptum.com](http://www.omnascriptum.com)

OMNI**S**criptum







